

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

TOLIB ENAZAROV

DIALEKTOLOGIYA METODOLOGIYASI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT

“Innovatsiya-Ziyo”

2020

UDK:811.512.133'28(062)

BBK:81/633.1

E 29

Tolib Enazarov

Dialektologiya metodologiyasi /Monografiya /– Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 152 b.

Monografiyada “O‘zbek dialektologiyasi”ning nazariy va amaliy muammolari hamda ayni vaqtdagi dolzarb masalalari – dialektal leksikografiyasi va o‘zbek dialektal leksikografiyasi muammolari; o‘zbek shevalarining leksikasini lingvistik geografiya metodida o‘rganish, yig‘ish, jamlab, ilmiy tadqiqqa tortish bilan dialektal so‘z turlariga oid leksik materiallar asosida ko‘p jildli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni yaratishga kirishish masalalari talqini va tahlili turli dalillar bilan ko‘rsatildi. Dialektizm, dialektal so‘z va uning turlari; shevalarning leksik birliklarini sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlardan ajratib olish va ular asosida dialektal so‘zlarning lug‘at maqolalarini tuzish “O‘zbek dialektologiyasi” sohasining bahsli muammolaridan ekanligi asoslanilgan.

Monografiya “O‘zbek dialektologiyasi” masalalarining ilmiy-amaliy tadqiqi va tahlili bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilarga, shuningdek, ilmiy kuzatishlar olib borayotgan magistr'larga hamda ilmiy jamoachilikka mo‘ljallangan.

The monograph includes theoretical and practical problems of "Uzbek dialectology" and topical issues - dialect lexicography and problems of Uzbek dialectological lexicography; interpretation of the issues of the beginning of the creation of a multivolume "Dictionary of Uzbek dialects" based on lexical materials on dialect types of words by studying, collecting, generalizing and researching the vocabulary of uzbek dialects using the method of linguistic geography, and the analysis was confirmed by numerous evidence. And also dialectics, dialect words and dialect types of words; it is argued that the separation of lexical units of dialects from dialect texts recorded in the speech of representatives of dialects, and the compilation of dictionary entries of dialect words on their basis is one of the controversial problems in the field of Uzbek dialectology.

The monograph is intended for researchers engaged in scientific and practical research and analysis of "Uzbek dialectology", as well as masters of scientific observations and the scientific community.

Taqrizchilar:

Y. Ibragimov

- filologiya fanlari doktori, professor

S. Normamatov

- filologiya fanlari doktori

Mas'ul muharrir:

B. Abdushukurov

- filologiya fanlari doktori .

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Kengashining 2020-yil 28-noyabrdagi majlisida (6-sonli) muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6792-6-9

© Enazarov T., 2020.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

SO‘ZBOSHI

XX asrning 60-90-yillarida ziyoliylar sheva so‘zlarini ehtiyotkorlik bilan qo‘llashgan. Chunki sho‘ro davrida juda ko‘p ziyolilar til (hamda sheva) va adabiyot masalalarida o‘z fikrlarini aytib, ijtimoiy hayotda faol qatnashishgani uchun millatchi sifatida jazolanganligi tarixdan ma‘lum. Hatto, bu davrda faoliyat yuritgan ustozlarimizning “*So‘zlaganda tutun qaytarmaydigan so‘zlarni ayting*”, degan jumalari hali-hali esimizdan chiqmaydi. Ayni vaqtda “O‘zbek dialektologiyasi” muammo hamda masalalarini atroflicha yoritib, ularning yechimini qidirish, topish va dialektal materiallarga asoslanib, amalga oshirish vaqti keldi. Shuning uchun ham, bizningcha, “O‘zbek dialektologiyasi” sohasida quyidagi muammo va masalalar mavjud: 1) ona tilimiz va uning boyish manbai bo‘lgan sheva(lar)ning ahamiyati; 2) bu sohaning o‘qitilishi hamda rivojlanishida dialektologik amaliyotning zarurligi; 3) dialektal so‘z tushunchasi va uning ham amaliy, ham nazariy ahamiyati; 4) dialektal so‘z hamda uning turlari masalasining talqini va tavsifi; 5) dialektal so‘z va dialektizmlarni farqlash zarurligi; 6) dialektal leksikografiya va o‘zbek dialektal leksikografiyasi masalalari; 7) o‘zbek dialektal leksikografiyasining tamoyillari masalasiga oydinlik kiritish; 8) sohaga tegishli dialektal leksika materiallarini yig‘ib, ularni o‘zbek dialektal leksikografiyasining tamoyillari nuqtai nazaridan tadqiq etib, nisbatan mukammal dialektal lug‘atlarini tuzish; 9) bu sohaga oid bo‘lgan ilmiy maktablar tavsifi; 10) mazkur sohada ilmiy tadqiqot manbalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasining ilk tavsifi va talqini; 11) o‘zbek shevalarining dialektologik atlaslarini tuzishning nazariy va amaliy masalalarini asoslash; 12) “O‘zbek dialektologiyasi” sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarning talqini; 13) “O‘zbek dialektologiyasini o‘qitish metodologiyasi va metodikasi” muammolarini ilmiy asoslash; 14) “Dialektal kvalometriya” muammolarini talqin etib, yechimini dalillash; 15) “Tarixiy dialektologiya” masalalarini yozma manbalar asosida talqin etish; 16) “Dialektal leksikografiya” masalalarini “Leksikografiya” fanining nazariy va amaliy umumlashmalari bilan tavsiflash; 17) “O‘zbek dialektologiyasi”, “Lingvistik geografiya” va “Areal lingvistik”ning o‘zaro munosabatlari masalasini dalillar bilan ko‘rsanish; 18) “Oltin bitiklar” hamda ulardan ba‘zilarining kelib chiqishini doimiy ravishda

tahlil etib borish va boshqalar. Bu monografiyada yuqoridagi muammo hamda masalalarga qisman bo'lsa hamki, ma'lum darajada to'xtalindi

Mazkur masalalarning ilgari surilishiga sabab shuki, hali hanuz ko'pchilik dialektologlar dialektal so'z turlaridan faqat sof leksik dialektal so'zlarga tayanishgani; o'rganilayotgan sheva materiallarini dialektal matnlar sifatida yozib olishmasdan, *“Maxsus anketa”*¹, *“Alohuda bir dialektal so'zni yozib olish”*, *“Anketa”*, *“Jomli suhbat yo'li bilan materiallar to'plash”* (*“Dala usuli”*) va *“Savol-javob”* kabi individual metodlariga bog'lanib qolishganidir².

1971-yilda nashr etilgan *“Ўзбек халқ шевалари луғати”*da sof leksik dialektal so'zlar qisman yig'ilgani uchun dialektal so'z turlari masalalari e'tibordan qolib ketgan. *“Dialektologik amaliyot”* hamda *“Dialektologik ekspeditsiyalar”*ni tashkil etib, dialektal materiallar yig'ish va ulari dialektal leksik tahlil talablari bilan aniqlab ajratish yuqorida tilga olingan muammo hamda masalalarning yechimiga yo'l ochadi. Shular bilan birga oldingi dialektologik tadqiqotlarni e'tiborga olgan holda zamonaviy va tarixiy o'zbek dialektal leksikografiyasi masalalarini yoritish zaruriyati ham o'ziga xos dolzarblikni tashkil qiladi.

*“Dialektologiya milliy tilning quyi bosqichini o'rganadigan fan bo'lishi bilan xarakterlanadi, shu bilan birga boshqa tillardagi dialektologiyadan farqlanadi”*³. Agar shevalardagi mavjud dialektal so'zlarni ularning turlari bo'yicha to'plash uchun har bir aholi punktidagi yoshi ulug' insonlardan dialektal matnlarni yozib olishni amalda qo'llasak, ayni vaqtdagi ma'lumotlarga ko'ra 83000 (sakson uch ming) atrofidagi aholi punktining har biridan turli mavzuda yuzta dialektal matnni yozib olinsa⁴, taxminiy hisoblarga ko'ra eng kamida ikki-ikki yarim million dialektal so'zlarni bemalol yig'ib olish mumkin bo'ladi. Bu degani yuz tomdan ortiq dialektal lug'atlarga dialektal lug'at

¹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент, Фан, 1979. –В.152.

² Алиев А. Наманган диалекти материалларини тўпловчилар учун анкета. –Наманган, 1964. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. –Тошкент, 1976. Назаров К., Ғуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет, 1993. –В.23.

³ Ashirboyev S., Xidraliyeva Z. R. O'zbek dialektologiyasi ta'limi: Yangilanish tamoyillari (xorij tajribasini milliy lashtirish) // Pedagogika. 2017, 1-son. –В.109-114.

⁴ Mana bir necha yillardan buyon sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar ustida kuzatishlar olib borayapman. Ba'zi talabalarning dialektal matnlaridan 180-200 ta so'zlikli matnlarni o'rganganilganda, ular tarkibidagi bir varaqda dialektal so'z turlaridan 25 tadan 76 tagacha bo'lgan dialektal so'zlar belgilab chiqilyapti. Bunday matnlardan namunalar mana shu monografiyaning 4-bobida berilgan.

maqolalarning matnlari tayyorlanadi, demakdir. Albatta, yuqorida aytib o‘tilan muammo va masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali va tajribali dialektolog mutaxassislarni tayyorlash lozim bo‘ladi. *“Qisqasi, bu shevalar adabiy tilimiz uchun kerakli bo‘lgan imkoniyatlarga (leksik boylikka – ta’kid bizniki) ega. Bularni hammasini qunt bilan yig‘ib, chidam bilan o‘rganish kerak”*¹.

Shunda o‘bek xalq shevalarda qolib ketayotgan eng kamida ikki-ikki yarim milliondan ortiq dialektal so‘zlar(bu kamida yuz yoki yuz ellik tomli dialektal lug‘atlar demakdir)ni yig‘ib jamlab, mavjud dialektal so‘z turlari bo‘yicha monografiya, dialektal lug‘at, bugungi oliy ta’lim talab qilayotgan darajada yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlash va nashr etishda imkoniyat bo‘ladi.

Shu o‘rinda quyidagi holatni alohida ta’kidlashni lozim deb bilamiz: Fan o‘qitilish va o‘rgatishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv kursi, sohada esa shu fan o‘rgatadigan nazariy va amaliy jarayonlar amalda qo‘llanib, unga oid mahsulot ishlab chiqariladi. Masalan, ximiya fanining o‘zi ham bor va ximiya sohasi bor. Ayni vaqtda “O‘zbek dialektologiyasi” fani bo‘lgan holda uning sohasi 2006-yilgacha Dialektologiya bo‘limi nomi bilan bo‘lgan, u mutaxassislar yo‘qligi sababli tugatildi. Shuning uchun dialektologlar ham dars berishadi, ham ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishadi, dialektal so‘zlardan lug‘at maqolalar tayyorlashib, shevalar tadqiqiga oid maqola va monografiya, shuningdek, dialektal lug‘atlar kabilarni tayyorlab nashr ettirishgan². “Ўзбек халқ шевалари луғати”ни (–Тошкент: Fan,1971.) “O‘zbek dialektologiyasi” sohasining mahsuli deyish o‘rinli, chunki uni Dialektologiya bo‘limi xodimlari tayyorlashgan. Shu sababli bir o‘rinda “O‘zbek dialektologiyasi” fani, boshqa bir o‘rinda esa berilayotgan matn mazmunining talab va me‘yoriga asoslanib “O‘zbek dialektologiyasi” sohasi deb berilishi o‘rinli. Hozircha turkiy tilli xalqlar ichida shevalarimizni o‘rganish, tadqiq etish va dialektal lug‘atlar tuzish masalasida eng past darajadamiz. “Ўзбек халқ шевалари луғати”da sof dialektal so‘z qayd etilgan, xolos. Ushbu masalda qardosh turkiy

¹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент, Фан, 1979. –В.151.

² Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 2010. To‘uchiboyev B., Yo‘ldoshyev Q. Zomin so‘zligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012. Омонтуриев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луғати (Унитилаётган мақол, матал ва айтимлар). 2-қисм. –Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2019. -96 bet va boshqalar.

xalqlarning olimlari anchagina miqdordagi dialektal soʻzlarni toʻplab olishganki, bu masalada ular bizdan yuqori turishadi...

Mazkur masalada turk, ozarboyjon, qozoq qirgʻiz, turkman, tatar, boshqird, yoqut, oltoy, moʻgʻul dialektologlari ilgʻor... Ular oʻz shevalarining materiallarini toʻplab olib, jiddiy dialektologik, lingvogeografik va areal tadqiq etishga kirishishgan. Natijada, bir qancha dialektal soʻzlar lugʻatlarini tuzishgan. Va har yili dialektolog ekspeditsiyalarni davlat taʼminotida oʻtkazishadi...

Bizda esa bu masalani hal etish va amalga oshirishga mutaxassis, moliyaviy taʼminot va eʼtibor kerak. Albatta, bularni oʻttiz yilda ortiq shu sohada ishlab, zarur materiallarni qisman boʻlsa hamki, toʻplab ulguranim uchun bir mutaxassis sifatida va qoʻlimdagi dalillarimga tayanib yosh dialektologlar uchun bir qoʻllanma sifatida yozdim... Oʻzbek xalq shevalari uchta katta lahjaga birlashadi: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, oʻgʻuz lahjasi. Shuning uchun *“Oʻzbek shevalarining gʻoyat xilma-xil murakkab ekanligi koʻpdan maʼlum. Tarixan, oʻbek xalqi sostaviga kirgan va qarluq, qipchoq, oʻgʻuz nomlari bilan ataluvchi yirik etnik guruhlarining mavjudligi, bu xilma-xilligining bosh sababchisidir, shuningdek, oʻzbek tilida soʻzlashuvchi aholining oʻtmishda boshqa turkiy xalqlar, qavm va elatlar bilan boʻlgan iqtisodiy-madaniy aloqalari ham davrlarning oʻtishi bilan oʻzbek shevalarining borgan sari murakkablashuvi, aralashib ketuviga katta yoʻl ochdi. Ayniqsa, markaziy shaharlarda yashovchi oʻzbeklar tilining kuchli oʻzgarishiga sababchi boʻldi, markaziy oʻzbek shevalarining fonetik strukturasi turkiy tillarga xos boʻlmagan qator spesifik xususiyatlar yuzaga keldiki, bunday xususiyatlar uni boshqa turkiy tillardan ancha farqlanishiga olib keldi. Bunday oʻzgaliklar uning morfologik qurilishida, sintaktik konstruksiyalarida, ayniqsa, leksikada yaqqol koʻzga tashlanib turadi”*¹. Shevalarni va uning lahjalarini bugungi kundagi ilm-fan talablari asosida oʻrganish va tadqiq etish lozim. Shu sababli *“Adabiy tilimizning muhim ichki manbalaridan biri boʻlgan qipchoq dialektlari va xalq dostonlarining til imkoniyatlaridan ular yoʻqolib ketmasdan burun barakali foydalanib qolishimiz kerak”*².

Zero, *“Tilni yaratish mumkin emas, chunki uni xalq ijod qiladi. Filologlar faqat uning qonuniyatlarini ochadilar va uni bir tizimga*

¹ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. –В. 83.

² Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент: Фан, 1979. –В.152.

tushuradilar, yozuvchilar esa shu qonunlar orqali o‘ziga xos tarzda unda faqat ijod qilshadi”¹. Buning uchun dialektologlarning faoliyatini o‘zbek shevashunosligining ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha yangi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan boyitib borish lozim. Sababi, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqt davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga keltiramiz”, deb bekorga aytmagan².

Xullas, o‘zbek xalq shevalari har tomonlama mukammal o‘rganish davri – mustaqillik davri keldi. Bular, yani quyida to‘plangan va tahlilga tortilgan masalalar “O‘zbek dialektologiyasi” fani hamda sohasi doirasida amalga oshirladigan navbatdagi ishlar to‘g‘risidagi o‘ttiz yildan ortiq shu sohadan dars berish hamda ilmiy tadqiqot olib borish davomida shakllangan fikr-mulohazalarimiz hisoblanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning shakllanishiga o‘z fikr-mulohazalari bilan hissa qo‘shgan hamkasblaringa chin dildan minnatdorchilik bildiraman.

¹ Беленский В. Г. Литературные мечтания. ПСС, т.1. –Москва: Изд-во АН, 1953. -Стр.44.

² Мирзиёев Ш. Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –В.14.

1-BOB. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI”NING DOLZARB MASALALARI TO‘G‘RISIDA

1.1.USHBU FANNING O‘TMISHI VA BUGUNI

Adabiy tilimizning ichki boyish manbai bo‘lgan “O‘zbek dialektologiyasi” (yoki Shevashunoslik) fanining buguni, ertasi va kelajagi to‘g‘risida ba’zi bir qaydlarimizning bayonini berishga quyida harakat qildik¹... O‘zbek adabiy tili o‘zbek xalq shevalaridan-da o‘ziga kuch oladi, chunki sheva va lahjalar bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun sheva va lahjalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. U(lar)ni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva, shevalar yig‘indisini lahja terminlari bilan ataladi. Biz u(lar)ni sheva deb atashni o‘rinli hisoblaymiz. Shuningdek, “O‘zbek dialektologiyasi” sohasiga “O‘zbek nomshunosligini”ni ham kiritilishi tabiiy holdir, chunki nomlarni ham xalq vakillari sheva so‘zliklaridan biri sifatida ishlatadi va kerakli o‘rinlarda izohlab beradiki, bu ham umuman nomlar dialektal so‘zlar

¹ Ushu monografiyamni yozishdan avval “*Buni yozishga mening ma’naviy haqim bormi, yo ‘g‘mi?’*”- deb rosa o‘yladim. Va ToshDU(hozirgi O‘zMU)da ustoz professorlar Karim Nazarov, Yormat Tojiyev, Abdug‘ani Aliyev, Miraziz Mirtojiyev, Muhammadnodir Saidov, dotsentlar Omonulla Madayev, Yoqub G‘ulomov, L.Karimova, katta o‘qituvchi Muborak Qurbonova kabi olimlardan olgan bilim va ko‘nikmalarim, O‘zR FAsining Til va adabiyot instituti “Dialektologiya bo‘limi”da akademik, f.f.d., professor Shonazar Shoabdurahmonov, yetakchi ilmiy xodim, professorlar Qosimjon Muhammadjonov, Bahrom Bafoyev, f.f.n., katta ilmiy xodimlar Ahmad Ishayev, Komil Mengliyev, Shukur Nosirov, Tohir Sodiqov, Masharif Safarov, katta ilmiy xodim Do‘stmurod Abdurahmonov, f.f.n., katta ilmiy xodim Klara Sharipova va yana o‘zbek tilshunosligining taniqli va benazir leksikologlaridan biri ustoz professor Ernest Begmatov, f.f.n., yetakchi ilmiy xodimlar Qayum Karimov, Abdurahob Madvaliyev, shuningdek, f.f.n., kichik ilmiy xodim Nasiba Shoimova singari bir qancha hamkasb dialektolog olimlar bilan ishlab, ta’limu tajriba orttirganligim, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori ustoz Samixon Ashirboyev (ayni vaqtda TDO‘TAUda professor) bilan, Qarshi DU ustoz professorlari Kenja Usmonov, To‘ra Nafasov va X. Jabborov bilan, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professori, f.f.d. Yo‘ldosh Ibrahimov, SamDU ustoz professorlari Bozorboy O‘rinboyev, Suyun Karimov, Nazar Rajabov, Tojikistondagi o‘zbek dialektolog olimlardan f.f.n., dotsent Erali Sheraliyev, f.f.n., dotsent Dilorom Abdullayeva, Jizzax DU professori Bosim To‘ychiboyev kabilar bilan ustoz-shogird hamda hamkasb sifatidagi hamkorligim va yana ToshDU (hozirgi O‘zMU)da o‘ttiz yilga yaqin “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan o‘zbek filologiyasi fakultetining ikkinchi kurs talabalariga darslar o‘tganim va ustoz professorlar Miraziz Mirtojiyev, Yormat Tojiyev, Muhammadnodir Saidov, dotsentlar Omonulla Madayev, To‘lqin Tog‘ayev, katta o‘qituvchi Nodira Hasanova, o‘qituvchi Kamola Rixsiyevalar bilan birgalikda 1988-2010-yillarda o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabalarini dialektologik amaliyotga olib borib, ularni muvaffaqiyatli ravishda yakunlaganlarim mazkur manografiyamni yozishimga ma’naviy asos bo‘la oladi, degan fikrga keldim. Agar ustoz dialektolog olimlardan oshirib bunda birorta fikr aytishgan botingan bo‘lsam, buni ham hamkasblarimning umumiy fikr-mulohazalari, deb bilish o‘rinli.

jumlasiga kirishini asoslaydi. Qarang, dialektal soʻzlar qanchalik katta hajmda va bebaho qimmatga egayu biroq...

Shu oʻrinda shoirlarning shoiri hazrat Alisher Navoiyning “*Emas oson bu maydon ichra turmoq*” degan misralari kishini beixtiyor xushyorlikka daʼvat etadiki, natijada, shevashunoslikning buguni, ertasi hamda kelajagi haqida dialektologiya sohasidagi ustoz hamkasblarning mulohazalari va ilmiy ishlariga begʻaraz tanqidiy yondashib, bugungi iln-fan talablaridan kelib chiqqan holda mazmun-mohiyatida oʻzbek xalq shevalarining leksikasi va dialektal leksikografiya tadqiqiga innovasion yondashuvli ushbu fikr-mulohazalarni bayon etishga harakat qildik.

Albatta, DL (dialektal lugʻat) tuzish uchun shevalardan maxsus soʻroqlik yoki savolnoma asosida yigʻilgan va yangi-yangi sheva soʻzlarini topib, ulardan lugʻat maqolalar tayyorlashga asos boʻladigan manba - dialektal materiallar kerak. Biroq shevalarni oʻrganmasdan tayyorlangan soʻzliklardan ehtiyot boʻlish shart. Sababi, bugungacha shevalarni oʻrganish metodlari; shevalarni tadqiq etish metodikasi; lahja va shevalarni ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslardagi tadqiqining metodologiyasi kabi dolzarb masalalariga eʼtibor juda kam boʻlgan.

Bizningcha, shevashunoslikning tarixi XI asarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshgʻariyning lugʻatchilik faoliyatiga borib taqaladi. Mana shu lugʻat tufayli turkiy qabila-urugʻlarning tillari bir ona tildan rivojlanganligi haqidagi ilmiy-nazariy qarash dalillar asosida tasdiqlanganki, bu hol ona tilimizning oʻziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini tasdiqlab turibdi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, yaʼni eski oʻzbek adabiy tilida sheʼrlar yozib, olam ahlini qalam bilan egallagan allomalardan biri sanaladi. Ilm-fan hamda sheʼriyat ahillari, xususan, Mavlono Lutfiy, mashhur shoir va shayx Abdurahmon Jomiy kabi ziyolilar Nizomiddin mir Alisher Navoiyning turkiy sheʼriyatdagi oʻrnini alohida eʼtirof etishgan. Xonliklar davrida ham tilimiz ijtimoiy hayotda oʻz mavqeini saqlay olganligi tarixda oʻz ifodasini topgan.

Shoʻro davrida tilimizga katta huquqlar berilmagan boʻlsa hamki, rus sharqshunos olimlari sayi-harakatlari bilan oʻzbek xalq shevalarini ilmiy asoslarda oʻrganishni boshlashgan. Bu olimlarning shevalar haqidagi ilmiy ishlari bilan oʻzbek adabiy tili haqida gapirish uchun, soʻzsiz, uning shevalarini bilish, oʻrganish lozimligi masalasi koʻtarilgandi. Rus olimlari XIX asrning 80-yillaridan to XX asrning 20-

yillarigacha o‘zbek tilini, xususan, o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishda rus tilini vosita qilib olishgan: “Ma’lum bo‘ladiki, N. Ostroumov asaridan boshqa barcha asarlar harbiy maqsadlarda va ijtimoiy talablari bilan yaratilgan”¹. Bu yangi til sifatida o‘zbek tilini, shu jumladan, o‘zbek xalq shevalarini o‘rganish jihatidan yaxshi va o‘rinli jarayondir. Biroq o‘zbek tili va uning shevalarini tadqiq etilishi jihatidan noto‘g‘ri ilmiy yo‘nalish edi. Aslida, ularni turkologik ilmiy tadqiqotlar zaminda tadqiq etish lozim edi. Shu bilan birga E. D. Polivanov, K. K. Borovkov, I. I. Zarubin, K. K. Yudaxin kabi olimlarning o‘zbek xalq shevalarining fonetikasi, morfologiyasi va tasniflash to‘g‘risidagi tadqiqotlari yaratildi va ular bugungi kunda shevalarni o‘rganish bo‘yicha bebaho ilmiy manbalar qatoridan o‘rin olgan. Xullas, o‘zbek tili grammatikasida ham, o‘zbek xalq shevalarini ilmiy tadqiqida ham rus tili grammatikasining ta’siri XX asrning 90-yillarigacha kuchayganligini hamma biladi.

Rus olimlarining shevalarimiz haqidagi tadqiqotlari natijasida XX asrning 30-yillaridan O‘zFA qoshida A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti ish boshlagan. Bu yerda o‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asoslarda tadqiq etish uchun maxsus Dialektologiya bo‘limi tashkil etilgan. Unda V. V. Reshetov, F. Abdullayev, Sh. Shoabdurahmonov, A. Aliyev, B. Jo‘rayev, X. Doniyorov, Yo. G‘ulomov, Yu. Jumanazarov, N. Rajabov, Q. Muhammadjonov kabi dialektolog olimlarning bebaho ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy ishlari yuzaga keldiki, bu holni jahonning dialektolog olimlari ham e’tirof etishgan. Hatto, bu davrda dialektologiya masalalari bo‘yicha ilmiy anjumanlar ham o‘tkazilgan.

O‘zbek shevashunosligining dolzarb masalalari ilgari surilgan bir paytda, ya’ni XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan davrdagi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar dialektologiya metodologiyasiga asoslanmay, qattiy bir tartibda olib borilmagan, tadqiqotchilarning tashabbuslari asosidagi faoliyat stixiyali tarzda, ya’ni kim qaysi shevani o‘rganishni o‘zi hal qilgan, sho‘ro manfaatlariga xizmat qilgan rahbariyat ularni tasdiqlab, ro‘yxatdan o‘tkazishgan².

Bor haqiqat shuki, soha mutaxassislari juda kam bo‘lishgani uchun sheva va shevashunoslarga e’tibor kamayib bormoqda. Hozirgi kunda

¹Qarang: Аширбоев Самихон. Ўзбек тили грамматик қурилишининг ўрганилиш тарихидан. -Тошкент: Nodirabegim, 2020. –В.16. (125 bet).

² Bu bilan “O‘zbeklarning shevasi ham bor-yo‘g‘i shu”,- degan noto‘g‘ri xulosani keltirib chiqarish bo‘lgan.

universitet va institutlarda shevashunoslikdan dars berayotganlarning juda ko‘pchiligi tilshunoslikning boshqa sohalarida ish olib borib, keyin bu fandan dars berishni boshlab yuborishgan-da! Shevashunos mutaxassislar esa boshqa soha va tashkilotlarda ishlashga majbur bo‘lishmoqda. Mazkur fan va sohaga bo‘lgan e‘tiborsizliklar esa o‘z natijasini ko‘rsatmoqda – boshqa soha mutaxassislarini qo‘yavering, hatto, o‘zbek filologlarining ba‘zi birlari ham umumiste‘mol so‘zlari bilan birga dialektal so‘zlarni, ya‘ni sheva so‘zlarini farqlashmayapti.

Ayni vaqtda shevashunoslikda dialektologiya metodologiyasi bo‘yicha shevalarning bebaho bo‘lgan lug‘aviy boyligini xalq vakillari nutqidan bittalab yozib olib, saqlab qolish uchun yangi ilmiy tadqiqot va monografik ishlarni olib borish zaruriyati sezilmoqda. Chunki oldin, ya‘ni XX asrni 20-80-yillarida o‘rganilganda ham shevalar hududiy jihatdan atroflicha holda to‘liq tadqiq etilmagan. Turli sharoit va sabablar tufayli o‘sha vaqtda shevalar tizimidan bir qancha shevalar ilmiy va amaliy jihatlardan o‘rganilmasdan qolib ketgan.

Bular bilan o‘zbek shevalari bo‘yicha jiddiy ilmiy ishlar qilinmayapti degan fikrdan yiroqmiz. Ular kam bo‘lsa ham bir necha yo‘nalishda yaratilmoqda. Masalan, professor Samixon Ashirboyev¹ va Nigora Murodovlarning² “O‘zbek dialektologiyasi” nomli darsliklari, Tolib Enazarov va boshqalar³ hammuallifligidagi “O‘zbek dialektologiyasi” o‘quv qo‘llanmasi ilmiy hamda amaliy yo‘nalishda yaratigan. Shuningdek, oz bo‘lsa ham ilmiy jurnal hamda ilmiy to‘plamlarda shevalar tadqiqiga doir ilmiy maqola va tezislar nashr etilmoqda.

Ilmiy amaliy yo‘nalishda bu sohada dialektal lug‘atlar nashr etilib, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu fikimizga quyidagi ilmiy ishlarni misol sifatida ko‘rsatish o‘tish o‘rinli:

“Ўзбек тили лексикологияси” nomli kitobda o‘z qatlam, qadimiy turkiy til so‘zlari⁴ deb berilgan leksik birliklarning juda ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek shevalarida qo‘llaniladi. Shu kitobning “Og‘zaki nutq leksikasi” nomli bo‘limida sheva so‘zlari og‘zaki nutq leksikasi deb berilgan⁵. E. Begmatovning “Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик

¹ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. -130 bet.

² Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Barkamol fayz media, 2019. -180 bet.

³ Enazarov T., Karimjonova, Enazarova M., Mahmadiyev Sh., Rixsiyeva K. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, Universitet, 2012. -189 bet.

⁴ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –В.58-78.

⁵ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –В.191-197.

катламлари” nomli kitobida sheva leksikasi haqida gapirilmaydi, lekin sheva soʻzlaridan bir qanchasi berilgan¹.

Toʻra Nafasovning “Қашқадарё ўзбек шевалари луғати”² va Bosim Toʻychiboyev, Qozoqboy Yoʻldoshyevning “Зомин сўзлиги”³ nomli lugʻat shaklidagi kitoblari *oʻzbek dialektal leksikografiyasi talablariga umumiy maʼnoda amal qilingan boʻlsa-da, ularning nashr etilgani mazkur sohaning bugungi kundagi eʼtirof etiladigan yutuqlari jumlasiga kiradi. Shu bilan birga ularda ham baʼzi bir oʻrinlarda umumiylik va koʻp misollarda transkripsiyaga boʻysoʻnmaslik holati koʻzga tashlanib turadi. Ammo “Dialektal lugʻat tuzish prinsiplari haqida mutaxassislar «Ўзбек тили ва адабиёти» jurnali sahifalarida va doklad tezislari oʻz fikr va mulohazalarini bayon et(ishgan)dilar”ki, bu holatni dialektal lugʻatlar haqida ilmiy izlanishlar olib borganda yoki gapirganda unutmazlik lozim⁴.*

Shuningdek, Ubrohim Darvishovning janubiy-gʻarbiy Namangan shevalarining areal tadqiqiga bagʻishlangan monografiyasi eʼtiborga loyiq ilmiy tadqiqotlardan biri sanaladi⁵. Va yana Alijon Allaberdiev⁶ va Umida Ibragimova⁷ kabi yosh dialektologlarning ilmiy tadqiqot ishlari muvaffaqiyatli himoya qilingan.

Shu oʻrinda bir fikrni alohida taʼkidlamoqchimizki, sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar bilan birga yozilgan folklor materiallari (XX asrning 40-yillaridan to bugungi kungacha yozib olinib, qoʻlyozma hamda nashr qilingan holda saqlanayotgan topishmoq, tez aytish, maqol, matal, xalq qoʻshigʻi, ertak, aytim va dostonlar) ham sheva vakillari tomonidan aytilgani uchun sheva materiallari

¹ Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари.-Тошкент: Фан, 1985.-В.66-76.

² Nafasovning T. Qashqadaryo oʻzbek shevalari lugʻati. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.

³ Toʻychiboyev B., Yoʻldoshyev Q. Zomin soʻzligi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2012.

⁴ Абдуллаев Ф. Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2-сон. 1966. Гуломов А.Ф. Дialektal луғат ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 4-сон. 1968. Ш. Носыров. Из опыта составления словаря узбекских народных говоров. Тезисы докладов (УІ регион. Совещание по диал.т.яз.). Ташкент, 1969. Назаров К.Н. Из опыта составления диалектологического словаря узбекского языка. Тезисы докладов. (УІ регион. Совещание по диал.т.яз.). Ташкент, 1969.стр. 26-27.

⁵ Дарвишов И. Ареал тилшунослик: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. –Тошкент: Наврўз, 2019. -167 бет.

⁶ Аллабердиев Алижон Авезбердиевич. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2018. -49 бет (5-22-бетларда oʻzbek tilidagi matn bor).

⁷ Ибрагимова Умида Юлдашевна. Қорақалпоғистон Республикаси ўзбек шеваларида сўз ясалиши. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Қарши, 2019. -52 бет (4-22-бетларда oʻzbek tilidagi matn mavjud).

hisoblanishi to‘g‘ri. Xuddi shu ma‘noda quyidagi tadqiqot ham folklor materiali, ham dialektologiya materiali bo‘la oladi: Anvar Omonturiyev va Botir Rahmonovlarning “Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луғати. 2-қисм” nomli kitobida Surxondaryodagi qipchoq va qarluq lahjalariga xos shevalarning asosiy elementar xususiyatlari o‘z ifodasini topgan¹.

“*Shevalardan o‘zbek adabiy tiliga qancha va qanday so‘zlar o‘zlashdi?*” degan savolga aniq javob topish ancha qiyin masala sanaladi. Chunki olimlarimiz nazarida “O‘zbek dialektologiyasi” faning zarurligiga e‘tibor qanchalik sust bo‘lsa, sheva so‘zlarini ko‘z-ko‘z qiladigan “Shevashunoslik muammolari” hamda “Dialektal leksikografiya” sohalariga ham diqqat-e‘tibor shunchalik pastdir.

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida qayd etgan so‘zlar va hatto, XX asrning 70-yillarida qayd etilgan dialektal so‘zlar bugun shevalarda kam qo‘llanmoqda va ba‘zilar umuman qo‘llanmayapti. Ba‘zi bir shevalarni XX asrdan turib o‘rganilganiga ham mana qirq yilda oshib ketdi, demakki, shevalarni XXI asrdan turib Mahmud Koshg‘ariy darajasidan-da yuqoriroq turib o‘rganish zaruriyati kun tartibida turibdi. Shevalarni XXI asrdan turib ilmiy va amaliy asoslarda o‘rganish uchun xalqimiz va davlatimizning homiyligi hamda ko‘magidagina bunday ulug‘, muqaddas hamda miqyosi benihoya katta bo‘lgan ishni amalga oshirish mumkinligi tabiiydir.

Shu o‘rinda ilm va ma‘rifat bilan yaponlar ilm-fan taraqqiyotining eng yuqori pog‘onasiga chiqqanligini e‘tiborga olsak. Shuning uchun shevalarni o‘rganish yuzasidan bir necha o‘n yillikka mo‘ljallangan va moddiy ta‘minlangan shu sohaga tegishli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyolash va ilmiy tadqiqotlarni olib borish markazini Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida tashkil etish zarur. Shu markaz qattiy rejim asosida shevalarni har tomonlama tadqiq etishni nazorat qilib, shevashunoslarning asosiy maqsadi bo‘lgan dialektal so‘zlarni yig‘ishga yo‘naltirilishi va amalda qilingan tadqiqotlar bo‘yicha hisobot berib turishi lozim.

O‘zbek lahjalari va shevalararo yaratilgan dilektal lug‘atlar mukammal holda yaratilmagan. “Jonli shevalarimizning leksikasini

¹ Омонтуриев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луғати (Унитилаётган мақол, матал ва айтимлар). 2-қисм. Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2019. -96 bet.

o‘rganish ishiga hozirgacha ahamiyat bermay kelayotirmiz”¹. Dialektal lug‘at tuzish tamoyillariga e‘tibor berilmagan, tavsiya qilinganlari esa e‘tiborga olinmagan².

Buning natijasida esa o‘zbek xalq shevalarining lug‘aviy boyligini o‘zida jamlagan va umumiy holda ifodalaydigan bor-yo‘g‘i bittagina “Ўзбек халқ шевалари луғати” yaratilgan³. Unda 12 (o‘n ikki) ming atrofida xalq shevalarimizga oid dialektal so‘z mavjud, xolos. Shu bilan birga tadqiq etilgan har bir sheva bo‘yicha lug‘atlar o‘sha tadqiqotlarda hali hanuz qolib ketmoqda Bu haqida A. Ishayevning maxsus to‘xtalgan tadqiqoti bor⁴.

Bugungacha shevalarning dialektal atlaslari yaratilmagan. Ba’zi bir manbalarda prof. V. V. Reshetov shevalarning dialektologik atlaslari tuzgan degan fikr bor, ammo shunday atlasning o‘zi yo‘q, bu bor haqiqat. Bu bilan prof. V. V. Reshetov o‘zbek dialektologiyasi soha bo‘yicha katta va salmoqli ilmiy ishlar qilganligini rad etmayapmiz. Sababi, dialektal atlas tuzilmaganligini ham tan olish vaqti keldi. Shevashunoslikni ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy asoslarda o‘rganuvchi tadqiqotchilarning ishlari markazlashtirilmagani va maxsus “Dialektologiya fondi” tashkil etilmagani uchun bu ishni boshlash ham, tugatish ham ancha og‘ir bo‘lmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi FA qoshidagi ilmiy tekshirish institutida qoraqalpoq shevalari bo‘yicha to‘plangan materiallar borligi va undan tadqiqotchilar foydalanayotganligini 2015-yil dekabr oyining ikkinchi yarmida borib ko‘rgandik. Shu bilan birga o‘sha ilmiy dargohda ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilardan biri kichik ilmiy xodim Abdumurod Yesemuratov ulardan FA rahbariyatining maxsus ruxsati asosida foydalanayotganligini aytdi. Qiziq, O‘zR FA huzuridagi Til va adabiyot institutida sheva materiallari bo‘yicha maxsus dialektologik fond yo‘g‘u Qoraqalpog‘iston Respublikasi FA qoshidagi ilmiy tekshirish institutida qoraqalpoq tilining shevalari bo‘yicha to‘plangan materiallar uchun maxsus fond azaldan bor (ekan) va bugun ham ish olib bormoqda.

¹ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. –В.5.

² Абдуллаев Ф.А.Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39.

³ Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1971.

⁴ Qarang: A. Ишаев. Ўзбек шеваларининг диалектал лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –В. 4-12.

Bu sohada olib borilgan tadqiqotlarni sinchkovlik bilan o‘rganib chiqilganda shevalarning fonetikasi, leksikasi, so‘z yasalishi, sintaksisi to‘liq o‘rganilmaganligi ayon bo‘lib turibdi. Chunki amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga nazar solsak, olingan dialektal materiallar turli joylardan saralanmasdan olinib, tadqiq etilgan, xolos. Malaka oshirish institutlari va kurslarining o‘zbek filologlariga mo‘ljallangan o‘quv rejalarida negadir adabiyotshunoslik va folklorshunoslik fanlari qo‘yilganu “Shevashunoslik muammolari”, “Dialektal leksikografiya” nomli o‘quv kurslarini qo‘yishni o‘ylab ko‘rish lozim. Chunki ToshDU qoshidagi malaka oshirish instituti faoliyat ko‘rsatgandan boshlab bunday o‘quv kursidan dars berilganligini Yo.G‘ulomovning quyidagi ilmiy ishi asosdir: *“Программа для слушателей ФПК. Формаобразующии аффиксы в узбекских народных говорах. Ташкент, ТашГУ, 1971”*.

Shu o‘rinda taklifimiz bor: Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetidagi Shevashunoslar markazi qoshida “Dialektologiya bo‘limi”, “Dialektologiya laboratoriyasi”ni va “Dialektologik fond”ni ochish kerak. Chunki “O‘zbek dialektologiyasi” fanning zarurligiga e’tibor qanchalik sust bo‘lsa, sheva so‘zlarini ko‘z-ko‘z qiladigan “Shevashunoslik muammolari” hamda “Dialektal leksikografiya” sohalariga ham e’tibor shunchalik past.

Shevalar taraqqiyotda ekan ularni ma’lum bir davrda o‘rganish zarurligi tabiiy hol-ku! Va yana sho‘ro davrida shevalarimiz markaziy shaharlarning shevalarinigina o‘rganishgan, markazdan uzoqdagi qishloq, qishloq kengashi, mahalla va tumanlarning shevalari esa o‘rganilmasdan qolib ketgan¹. 1920-yildan to 40-yillarning boshigacha amalga oshirilgan tasniflarning qaysi hududlar bo‘yicha qilinganiga xarita asosida bir qarasangiz, aytgan fikrimizga qo‘shilasiz. 60-yillardagi ilmiy izlanishlar esa sho‘roparast filolog rahbarlarning talabi bilan 20-40-yillardagi tasniflarga hech bir tuzatish kiritmagan, balki ularni yana ham asoslashga qaratilgan.

Shevashunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning sustlashib borayotganligiga yana bir sababi bu - magistratura sohasida mana shu soha yo‘nalishi bo‘yicha magistrlik mutaxassisligi 2018-yilgacha ochilmaganligidir. Shevalarni ilmiy asoslarda o‘rganishga ijtimoiy,

¹ Bu fikr tirnoq ostidan kir qidirish emas, balki achchiq haqiqatni tan olib, eslashdir, xolos.

ma'naviy va ilmiy-nazariy jihatlardan ehtiyoj sezilmoqda. Sababi, ular o'zbek milliy tilining asosi va poydevori hisoblanadi.

XX asrning 20-yillaridan o'zbek shevalarini o'rganish, tadqiq etish boshlangan va 80-yillarda bu ish ma'lum ma'noda yakunlangan. Ammo qariyb oltmish yil ichida, sho'ro davrida qilingan ilmiy tadqiqotlarni bir umumiy planda ko'zdan kechirilsa, quyidagilar ayon bo'ladi:

1) shahar tip, markaziy tuman, ba'zi viloyatlarning markazlariga tegishli shevalar ma'lum davrda o'rganilgan, keyinchalik ular e'tibordan chetda qolgan;

2) mamlakatimizning tog'li hududlariga oid bo'lgan shevalar o'rganilmagan. Bu fikrga isbot sifatida mamlakatimizning istalgan tog'li hududi aholisining shevasini olib kuzatsak, to'g'ri bo'ladi. Ularda alohida shevaviy holatni ham, oraliq shevaviy jarayonlarni ham, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarining o'zbek xalq shevalariga ta'sirlarini aniq kuzatib, bilish mumkin;

3) shahar va tuman markazidan uzoqda bo'lgan aholi punktlari shevalari esa umuman tadqiq etilmagan. Masalan, Ishtixon, Jarqo'rg'on, Beshariq, Qunqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Yakkabog' va yana bir qancha tumanlarining shevalari shu holdadir;

4) Mamlakatimiz hududidagi shevalar to'liq o'rganilmagani kabi dialektal lug'atlar tuzishning talab va me'yorlari mukammal holatda tayyorlanmagan. Ya'ni shevalar stixiyali ravishda va "O'rganildimi? O'rganildi!" holatida tadqiq etilgani kabi markaziy shaharlardan chetdagi hududlarning shevalari o'rganilmagan. Buning uchun "O'zbek shevalarining morfologiyasi" nomli monografiyaning 253-269-betlari bilan tanishish kerak, xolos. Bu haqida ko'rsatilgan sahifalarda ancha e'tiborga loyiq ma'lumotlar mavjud.

Va yana shunga bog'liq masalalardan biri dialektal so'z hamda dialektal matnlar shaklidagi dialektologik materiallarni yig'ish masalasi. Bu yerda sohaning dolzarb masalari chalkashtirib tashlangan. Bularni farqlash uchun ularning maqsad va vazifalariga qarash lozim: 1) dialektologik amaliyot masalasi; 2) dialektologik ekspeditseya masalasi; 3) dialektologik fond masalasi; 4) dialektologik amaliyot va dialektologik ekspeditseyalar vaqtida yig'ilgan dialektal so'z hamda dialektal matnlarni saralab dialektologik fondga topshirish masalasi.

Ko'pchilik 2-kurs oxirida o'tkaziladigan dialektologik amaliyot masalasiga ortiqcha baho berishmoqda. Emishkim, shu amaliyot yordamida sheva so'zligini yig'ib olish mumkin emish. Bu noto'g'ri

fikr, uning noto'g'riligini DTS (Davlat ta'lim standartlari) ham tasdiqlaydi. Unda talabalarning quyidagilarni bilishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan: a) adabiy til bilan shevani farqlashi; b) shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini bilishi; v) sheva matnlarini transkripsiyada yoza olishi; g) shevaning boshqa shevalardan farqlini ko'rsatish.

Dialektologik ekspeditseya masalasi dolzarb masala bo'lgani holda ko'pchilik tushunishi qiyin, ya'ni tushunib ham hazm qilana olmaydigan masaladir. Sababi, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy mablag' bilan ta'minlanmagan dialektologik ekspeditseya jarayonlarini tasavvur ham qilishmaydi, ammo usiz shevalarni to'liq o'rganib bo'lmaydi. Chunki o'zbek xalq shevalari rus sharqshunos olimlari bilan birgalikda XX asrning 20-yillaridan to hozirgacha o'rganilgan bo'lsa-da, shevalar to'liq o'rganilmagan.

Dialektologik ekspeditseya masalasini quyidagi ko'rinishda hal qilish o'rinli:

a) dialektolog olimlarning nazorati va kuzatishlari asosida ilmiy ish olib boruvchilar va dialektologik magistrlargina o'rganilayotgan hududi Dialektologik kordinatsion kengashning "O'rganilayotgan sheva hududlari" rejasiga kiritilgach, qat'iy tartibda va "Dialektal ekspeditsiya materiallarini yig'ish uchun tuzilgan so'roqlik" asosida to'planayotgani dialektal matnkar ko'rimishidagi materiallarning ilmiyligini saqlagan holda jamlash yo'lidan borilishi o'rinli;

b) yana shunday takliflar bo'lyapti – boshqa universitetlarning talabalari to'plagan materiallarni bizda shartnoma asosida jamlash yo'lidan borilishi shart ekan. Bu fikrda ham bir noziklik bor – sho'ro hukumati XX asrning 20-yillarida shevalarimizni o'rganish uchun butun professorlar guruhini tashlagan holda biz shevalarimizni yangidan qayta o'rganish uchun kelib-kelib, bor-yo'g'i talabalarning ma'lum bir kursdagi guruhlarini tashlaymizmi?!. Bizningcha, bu sal noto'g'riroq fikrdir. Mayli, talabalarni ham ma'lum so'roqlik asosida tashlaylik, ammo ularning amaliyotdagi faoliyati DTS talablari bilan belgilab qo'yilgan. Hamma o'z haqqini bilgan bugungi kunda talabalarni DTS talabidan ortiq biror narsani ishlatib bo'lmasligi haqqi rost. Talabalarning dialektologik amaliyoti DTS asosida tayyorlansa, ularda nari borsa, yigirmadan ortiq dialektal so'zni topib bo'lmagani kabi sheva matnlarining yozib olinishi ishonchsiz holda bo'ladi yoki umuman yozib

olinmaydi. Bular esa o‘zbek dialektologiyasi sohasida biz kutgan natijalarga kelinmaydi;

v) tadqiqotchilarning bu sohada tadqiqot olib borishlari esa “Dialektologik ekspeditsiya so‘roqligi” asosida o‘tgach, yig‘ib olingan dialektal materiallarning “Dala daftari”da berilishi esa ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi. Ya’ni ilmiy tadqiqotchilar to‘g‘ri va o‘rinli ravishda boshqarilsa, ma’lum muddatda o‘zbek xalq shevalari qishloq, mahalla, guzar, tuman, viloyat doiralarida, va yana o‘rganilishi amalga oshib, oldingi ilmiy ishlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi hamda shevalarning turli nomdagi tom-tom lug‘atlarini nashr etish va xalq ommasiga yetkazish asosida adabiy tilni sheva so‘zliklari bilan boyitib borish an’anasi yana ham kuchayadi. “Shu bois ham o‘zbek xalq shevalarini atroflicha o‘rganish, klassifikatsiya masalalarini aniqlashtirish, keng monografik hamda umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqotlarni yaratish dialektologlarning birinchi vazifasi ekanligini taqozo etmoqda”¹.

Shevalardan adabiy tilga so‘z o‘zlashtirish masalasi ham ancha bahsli. Shu o‘rinda “O‘zbek dialektologiyasi” va “O‘zbek folklori” fanlari orasiga sun’iy to‘siq qo‘yishdan voz kechish vaqti keldi. Axir folklordagi hech bir janr sheva so‘zlarisiz shakllana olmaydi. Sababi, dostonlar ham, maqollar ham, tez aytishlar ham, ertaklar ham, allayu yor-yorlar ham sheva so‘zlari bilan o‘zlarining noyob ekanliklarini namoyon qilib turibdi. Ularni tahlil qilish uchun folklor matnlaridagi dialektizmlarga ham e’tibor qaratish shart.

Adabiy tilda sheva so‘zlarini ko‘proq qo‘llash uchun dialektal so‘zlarga xos so‘z o‘zlashtirish me’yorlarini mavjud uchala lahjaning eng umumiy xususiyatlarini singdirgan holda yangilash kerak. Bugungacha amal qilayotgan so‘z o‘zlashtirish qoidalari sho‘ro va ruslashtirish davrlarining qoldig‘idir. XX asrning 20-90-yillarida rus tili va u orqali boshqa tillardan so‘zlarni o‘zlashtiraverganimiz uchun adabiy tilda shevalarimizning qon tomiri bo‘lgan singarmonizm hodisasi juda passivlashdi...Zero, singarmonizm hodisasi ona tilimizning asosiy fonetik qonuniyatlaridan biri bolib, uning latofatini ham, latifligini ham, salohiyatini ham ko‘rsata oladi...

¹ Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиқлол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -Б. 55.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tilining o‘zbek dialekt, shevalari asosida shakllangani ma’lum. Shuningdek, adabiy til leksikasining rivojlanishi, takomillashuvida shevalarning o‘ziga xos rol o‘ynashi ham lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan. Bunda umummilliy tilga shevadan olinadigan so‘zlar ikki xususiyatga ega bo‘lishi mumkin: 1) ma’lum teritoriyadagina mavjud bo‘lgan narsalarni ifodalovchi so‘zlar. Masalan, bir joyda yilqichilik rivojlangan bo‘lsa, boshqa joyda baliqchilik rivojlangan. Ana shu joylarda yilqichilik va baliqchilikka oid tushunchalarni ifodalovchi oid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ham bo‘ladi¹. Umumadabiy tilda yilqichilik va baliqchilikka oid biror tushunchani ifodalash talabi tug‘ilsa, uning ifodachisi bo‘lgan so‘z ana shu joydagi xalq tilidan, ya’ni shevadan olinadi; 2) ma’lum bir teritoriya bilan chegaralanmagan narsa-hodisani ifodalovchi so‘z barcha shevalardan emas, balki ulardan ayrimlarida bo‘lishi mumkin. Bunday so‘zlar ham vaqti kelib adabiy tilga qabul qilinadi. Masalan, ruscha *skvoznyak* so‘zi bildirgan hodisani bildiradigan so‘z 50–yillargacha o‘zbek adabiy tilida yo‘q edi. R. Abdurahmonov tahririda 1954-yilda nashr etilgan “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da *skvoznyak* so‘zi “g‘urillagan shamol” (“bir yoqdan kirib, ikkinchi yoqdan chiqadigan shamol”) deb tarjima etilgan. Keyinchalik shevalarda bu hodisani bildiradigan *yelvizak* so‘zi borligi ma’lum bo‘ldi va u adabiy tilga kiradi. Demak, shevalarda bor bo‘lgan har ikki tipdagi so‘zlar hisobiga adabiy til leksikasi boyib boradi².

Lekin shuni alohida qayd etish kerak bo‘ladiki, adabiy til leksikasining boyishiga dialekt va shevalar yuqorida ko‘rib o‘tilgan yo‘llarga nisbatan, masalan, affiksatsiya usuli bilan va kalkalash orqali so‘z hosil qilishga nisbatan u qadar rol o‘ynamaydi. Shunday bo‘lishi ham tabiiy. Chunki dialektal so‘zlar ma’lum teritoriyadagi narsa-hodisalarni, ularga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar bo‘ladi. Hayotda (dunyo miqyosida) paydo bo‘layotgan yangi-yangi narsa-hodisalarni ifodalash uchun dialektal so‘zlarni qo‘llash imkoni bo‘lmaydi. Bunday holatlarda yangi paydo bo‘lgan tushunchani ifodalash uchun tilning o‘z imkoniyatlari asosida yangi so‘z yaratiladi yoki boshqa tilda shu narsa, tushunchaning ifodachisi bo‘lgan so‘z o‘zlashtiriladi. Xuddi shu boisdan bundan buyon, leksikaning boyishida

¹ Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тил тараққиёти. III. –Тошкент, Фан, 1991. -В.150.

² Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тил тараққиёти. III. –Тошкент, Фан, 1991. -В.150.

shevalarning adabiy tilga ta'siridan ko'ra adabiy tilning shevalarga ta'siri ko'proq bo'ladi. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining boyishida o'zbek shevalarining roli haqida gap borganida yuqorida ko'rib o'tilgan holat(faktor)larni aniq hisobga olish va bu hodisa(jarayon)ni ob'ektiv baholash kerak bo'ladi. Biroq o'zbek tili leksikasining rivojlanishiga oid ishlarda ana shu jarayonning ob'ektiv baholamaslik hollari kuzatilyapti¹. Ayrim shevalarda bu faktor, ya'ni adabiy til leksikasining rivojlanishida shevalarning roli juda orttirib ta'riflansa, ayrim ishlarda, aksincha, unga yetarli (ob'ektiv) baho berilmaydi. Masalan, sovet davrida o'zbek tili leksikasining rivojlanishi bilan maxsus shug'ullangan filologiya fanlari kandidati N. G. G'ulomovaning bu haqidagi qarashlariga e'tibor beraylik. Avtor o'zbek adabiy tilida malina so'zining qo'llanishini nortativ hodisa deb, ayrim shevalarda bu ma'noda *xo'jag'at* (yoki *maymunjon*) so'zi qo'llanishini aytadi va shundan kelib chiqib, "*malina*" so'zini *xo'jag'at* so'zi bilan almashtirish mumkinmi?", degan savol qo'yadi va faqat rad javob berilishi mumkin deydi. Buni asoslash uchun *xo'jag'at* so'zining barcha sheva vakillari uchun tushunarli emasligini va bu ma'noda hammaga tushunarli bo'lgan malina so'zi qo'llanayotganini aytadi. *Qorag'at* – *smoradina* so'zlari haqida ham avtor xuddi shunday fikr bildiradi, ya'ni *qarog'at* emas, *smorodina* so'zini adabiy tilga qabul qilishni to'g'ri deb biladi². Lekin bu fikr haqida bir emas, bir necha e'tiroz aytish mumkin. Birinchidan, *xo'jag'at* so'zini emas, *malina* so'zining adabiy tilda qo'llanishini nima bilan isbotlash mumkin? Ikkinchidan, barcha sheva vakillari uchun *xo'jag'at* so'ziga nisbatan *malina* so'zining tushunarli ekanini nima bilan dalillash mumkin? Nahotki, o'zbekning o'zida bor bo'lgan narsani atavchisi (ya'ni *xo'jag'at* so'ziga) nisbatan o'zbek tiliga bo'lmagan so'z (*malina*)ni hamma tushunsa? *Malina* so'zini adabiy norma deb majburiy qabul qilgan bilan shu meva o'sadigan joydagi xalq ikki dunyoda ham malina so'zini qo'llamaydi (qo'llash xayoliga ham kelmaydi). Uchinchidan, o'z tilida narsa-hodisani aniq ifodalovchi so'z bo'lgani holda uni chetga surib. Shu vaqtgacha qo'llanmagan, eshitmagan o'zga tilga oid so'zni qabul qilishga ehtiyoj bo'ladi?! Bunday yo'l tutish tilning tabiatiga, tilning taraqqiyot qonuniyatlariga tamomila ziddir. Xullas, ming yillardan biri o'zingda bor narsaning

¹ Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тил тараққиёти. III. –Тошкент, Фан, 1991. -В.151.

² Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тил тараққиёти. III. –Тошкент, Фан, 1991. -В.151.

ifodachisi bo‘lgan so‘zni chetga chiqarib (talabga javob bermaydi deb), u narsani o‘zga tilga oid so‘z bilan atashni tavsiya etish o‘ta kulgulidir”¹.

Natijada, adabiy tilimiz bilan shevalarimiz o‘rtasida ko‘zga ko‘rinmas katta g‘ov paydo bo‘ldi. Ayni vaqtda bu holni ko‘pchilik e‘tiborga ham olmaydi, ammo ular sheva so‘zlari adabiy tilga o‘zlashtirilmayotganligini aytib ham charchashmaydi. Va yana boshqa turkiy tillarning adabiy tillari ularning o‘z shevalariga moslashganki, o‘zbek adabiy tilini ham ma‘lum darajada shu holatga olib kelish milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan ham zarur. Zero, biz (ya‘ni o‘zbek xalqi) sho‘ro davridan ham va yana ruslashtirish davridan ham o‘tdik, mamlakatimizning mustaqilligi davrida yashayapmiz.

Mamlakatimiz hududini areal metodda ma‘lum hududlarga bo‘lib o‘rganishni boshlash lozim. Ammo shevalarni o‘rganuvchi mutaxassislarni bu masalani yechimiga jalb qilish metodikasini o‘ylab ko‘rish vaqti keldi. Buning yechimi quyidagi ko‘rinishdadir:

1) “O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘qitish jarayonida ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va seminar mashg‘ulotlar bilan birga bir oyga mo‘ljallangan dialektologik amaliyotni asosli ravishda qayta tiklash kerak;

2) shevashunoslarni tayyorlaydigan o‘quv rejani bakalavriyat davridayoq ishlab chiqib, universitetlarning o‘zbek filologiyasi bor fakultetlariga qat‘iy amal qildirish yo‘llarini izlab, o‘zbek shevalarining materiallarini yig‘ish uchun mutaxassislarning XX asrning 60-70-yillardagi maxsus dialektologik ekspeditsiyasini tiklab, yillik reja asosida ma‘lum hududlarga borishning doimiy va qat‘iy talab qilinadigan hisobotli dasturini tuzish lozim;

3) shevalarni o‘rganadigan dialektologik ekspeditsiyaning yilma-yil rejalashtirilgan maxsus dasturini mamlakatimizdagi har bir qishloq va qishloq kengashi qolib ketmaydigan darajada qat‘iy tartibda tuzish va amalga oshirishni jiddiy nazorat asosida amalga oshirish kerak. Shunda “*Dialektologiya laboratoriyasi*” yoki “*Dialektologiya bo‘limi*”ni va maxsus “*Dialektologik fond*”ni ochish maqsadga muvofiq;

5) dialektologik materiallar bo‘yicha topshiriq olganlarni olib kelgan shunday materiallari bo‘yicha hisobotlarni materiallari bilan birga olib, rag‘batlantirish ham lozim. Bunday tajriba “O‘TIL”ning materiallarini tayyorlash jarayonida, ya‘ni XX asrning 90-yillarida

¹ Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тил тараққиёти. III. –Тошкент, Фан, 1991. -В.151.

amalga oshirilgan: mutaxassis o‘zbek tili so‘zlarining ma’lum bir matnlarda ishlatilishi asosida misollar to‘plab kelsa, undan hisobot olingan holda moddiy rag‘batlantirilgan;

6) O‘zR FA OAKsi qoshida ushbu fan sohasida ma’lum bir mavzuda ilmiy izlanishlar olib borib, mutaxassis sifatida shakllangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini himoya qiladigan ma’lum shifrga ega bo‘lgan ixtisoslashgan himoya kengashini “O‘zbek dialektologiyasi” nomi bilan tuzish kerak. Unda o‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek nomshunosligi bo‘yicha nomzodlik hamda doktorlik ilmiy ishlarini himoya qilinishini amalga oshirish kerak. Ammo bu fikrga turli sharoit, holat va narsalarni bahona qilib, ba’zi birlar o‘zi ilmiy ishini himoya qilib olgani uchun raddiya ham aytilishi mumkin. To‘g‘risi, bugungi kunning fidoiy dialektolog tadqiqotchilarini busiz topib bo‘lmaydi... Yuqoridagilar amalga oshirmasa, shevalarning to‘liq tadqiq qila olinmaganidek, shevalarning leksik boyligini ham saqlay olmagan bo‘lamiz.

Bu fikr-mulohazalarimiz kimlargadir noo‘rin, erish tuyilayotgandir, biroq ozroq vaqtdan so‘ng avlodlarimiz shevalarimiz boyligini saqlab qolishning ishonchli va hayotiy dasturini amalga oshira olmaganimiz uchun ma’naviy qashshoqlikda ayblashadi. Chunki shevalarning boyligi bo‘lgan dialektal leksika xalq ma’naviyati, ma’rifatini ko‘rsatgani kabi uning bebaho salohiyatini ham asoslab turadi. Shu bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar asosida tayyorlanadigan kitob va o‘qimishlilik Mahmud Koshg‘ariy uslubida shakllantirilgan dialektal lug‘atlar esa sarflangan moddiy harajatlarni ortig‘i bilan qoplaydi.

Ayni vaqtda talabalar tugul olimlar ham negadir umumiste‘mol so‘zlari bilan dialektal so‘zlarni farqlashmaydigan holga kelib qoldik desak, xato bo‘lmaydi. Aniqrog‘i, Mustaqim Mirzayev, Do‘stmurod Abdurahmonov, Ahmad Ishayev kabi olimlar bu masala doirasida bir necha marta salmoqli va mazmunli maqolalar yozishgan, ammo nashr vaqtida jiddiy o‘zgartirilgan yoki nashr etilmagan.

Shu bilan birga quyidagi ilmiy nazariy yo‘nalishlarda sheva va lahjalar doirasida dialektologik ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan:

1. Arab lug‘atchili an‘analari asosida yaratilgan M. Koshg‘ariyning “Debonu lug‘at-it turk” asarida XI asrdagi turkiy tillarning shevalari, shu jumladan, o‘sha vaqtdagi o‘zbek shevalari ham leksik, ham leksikografik jihatlardan o‘rganilgan.

2. An'anaviy ilmiy nazariy yo'nalishda, ya'ni shevalarning qisman leksik, asosan fonetik va grammatik xususiyatlarini o'rganish asosida yaratilgan ilmiy ishlar¹ (XX asrning 20-yillaridan to bugungi kungacha).

3. Lingvistik geografiya ilmiy nazariy yo'nalishida shakllangan ilmiy tadqiqotlar (rus dialektolog olimlarining lingvistik geografiyaga bag'ishlangan asarlari ta'sirida XX asrning 80-yillaridan boshlangan)².

4. Areal lingvistik ilmiy nazariy yo'nalishda yuzaga kelgan ilmiy ishlar (rus olimlari hamda etarchi ilmiy xodim, f.f.d. Q. Muhammadjonov³ va professor Aziz Jo'rayevning mazkur sohadagi ilmiy izlanishlari asosida yuzaga kelgan⁴. Ayni paytda TDO'TAUda bakalavriat (4-kurs) va Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi magistraturasi 2-kursida "Areal lingvistika" fani o'qitilmoqda.

Bu sohaga tegishli "O'zbek dialektologiyasi" fanning dolzarb masalalarini guruhlab, bir necha fanga jamlash lozim. Ular quyidagilar: "*O'zbek dialektal leksikologiyasi*", "*O'zbek dialektologiyasiga kirish*", "*Tarixiy dialektologiya*", "*Tavsifiy dialektologiya*", "*Qiyosiy dialektologiya*", "*Dialektologik kvalometriya*", "*Areal lingvistika*".

Shu o'rinda quyidagi fikrni maxsus ta'kidlash lozim, hozirgacha qilingan o'zbek dialektologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning uchdan biri hisoblanadi. Bizningcha, bu sohada quyidagi ishlarni bajarish kerak: 1) dialektologiyaga oid e'lon qilingan nashrlarni yig'ish; 2) avval nashr etilgan ishlardagi dialektal so'zlarni bittalab yig'ish; 3) shevalarning dialektal so'zlarini yig'ishni dialektal matnlar asosida amalga oshirishni boshlash; 4) to'plangan dialektal materiallarni jamlab, guruhlab, lug'at maqolalarini tayyorlash.

Lekin bajarilgan ishlar bizning nazarimizda qancha ko'p bo'lsa, fan va soha nuqtai nazaridan shunchalik kamligini tan olish ham keyingi ishlarni bajarishga imkoniyat yaratadi-da. Shu bilan birga universitetda

¹ Mazkur ilmiy nazariy yo'nalishda asosiy ilmiy tadqiqot, maqola, monografiya va darsliklar yaratilganligini "Adabiyot ro'yxati"da ko'rish mumkin.

² Эделман Д.И. Основные вопросы лингвистической географии. Москва: Наука, 1968. с.112. Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1980. Фуломов Ё. Ф. Ўзбек халк шеваларини лингвогеографик текшириш // Ўзбек тилшунослигининг актуал масалалари. – Тошкент, 1987.20-25- betlar.

³ Мухамеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казахстана. АДД. –Ташкент, 1988. с.44.

⁴ Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. АДД. Москва, 1991.с. 38. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива.-Ташкент: Фан, 1991. 220 с. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. –Тошкент: Наврўз, 2019. 148 bet.

“O‘zbek shevashunosligi markazi”ning jamoatchilik asosida tashkil etilishi, “O‘zbek xalq shevalarining lingvogeografik tadqiqi” nomli laboratoriya faoliyatini boshlagani ham e‘tiborga loyiq. Bular ham mazkur sohaning tarixi va taraqqiyoti mavjudligini asoslaydi.

“O‘zbek dialektologiyasi”ning o‘ziga xos tarixi ham, rivojlanish taraqqiyoti ham bo‘lganligi rad etilib bo‘lmagani kabi uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga mos bo‘lishi lozim. Bularni amalga oshirish uchun “Dialektal fond” va “Dialektal arxiv”ni ishga tushirish kerak bo‘ladi. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, zamon talabini his etmasdan, eskicha ishlashga endi hech birimizning haqqimiz yo‘q¹. Bu fikrlarni “Dialektologik kvalometriya”ning xulosalari tasdiqlab turibdi. Buning uchun dialektal fondini tashkil qilib, mutaxassis va imkoniyatlarni kuchaytirish lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda shevalar bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borish uchun tavsiya etiladigan ilmiy tadqiqot ishlarning mavzulari mavjudmi?-degan savol chiqadi. Albatta, bu masala ham ustozlar bilan birga o‘ylab ko‘rilgan, shevalarni bugungi ilm-fan talablaridan kelib chiqib o‘rganilishi mumkin bo‘lgan behisob mavzular bor². Faqat “Mana shu sohaning bu mavzusida ilmiy ish qilaman”,- deydigan bilimli va malakali tadqiqotchilar kerak.

1.2. DIALEKTAL SO‘Z MAQOMI

“Ўзбек тили лексикологияси” nomli kitobning “Semasiologiya” bo‘limida adabiy til nuqtai nazardan so‘zlarning ma‘no turlari haqida gapirilgan, ammo dialektal ma‘no to‘g‘risida mulohaza yuritilmagan. Bu haqida fikr yuritish uchun dialektal leksikani to‘la yig‘ib olish lozim edi, biroq bu hol amalga oshmagan. Bir o‘inda “dialektal xususiyatli so‘z” degan jumla uchradi³. Bu esa dialektal so‘zlarga e‘tibor kam bo‘lsa ham borligini isbotlab turibdi.

Sheva so‘zlari uslubiy xususiyatlarga ko‘ra takroriylikning oldini olish uchun ikkinchi nom bilan dialektal so‘z deyiladi. Ularning ikkinchi

¹ Мирзиёев Шавкат. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. -Тошкент: Ўзбекистон. 2017. –В. 54.

² Shuni ta’kidlash kerakki: Mazkur manografiya muallifi qo‘lida 20.000 (yigirma ming) atrofida dialektal so‘z va amaliy tadbiqini kutib yotgan, saralab tanlangan ilmiy mavzular mavjud.

³ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –В. 247.

bir ko‘rinishi esa dialektizmlar deyiladiki, ular sheva so‘zlarining badiiy asarlarda qo‘llanishidan shakllangan¹. Bundan anglashilib turibdiki, so‘zning maqomi uning boshqa so‘zlar o‘rtasidagi mavqei va ahamiyatidir. Dialektal so‘zlar maqomi esa bu – o‘ziga o‘xshagan boshqa so‘zlar ichidagi, ham adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan dialektal ma‘nolari bilan ma‘no munosabatlari strategiyasidagi betakroriy mavqei nazarda tutiladi. Shuning uchun ham “*Jonli shevalar leksikasining adabiy til leksik qatlamlariga munosabati masalasi tekshiruvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilish tabiiydir*”².

Xullas, dialektal so‘z maqomi sheva so‘zlari ichida uning leksik-semantik va semantik (dialektal ma‘no) xususiyatlari bilan farqlanishi, adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan orfoepik va orfografik me‘yorlari bilan adabiy til me‘yori va talablariga bo‘ysunmasligi, unda kam ishlatilishi yoki umuman qo‘llanmasligi, ularning tarkibidagi leksik ma‘no esa ma‘nolar tizimida kam uchraydigan dialektal ma‘no ekanligi bilan adabiy tildagi leksik birliklardan farqlanishi jihatlari bilan ajralib turadi. Ushbu fikrni misollar tahlilida ham ko‘rish mumkin. Albatta, bunda “*Ўзбек халқ шевалари луғати*”da berilgan dialektal so‘zlarning lug‘at maqolalari bilan birga o‘zimiz tayyorlagan dialektal so‘zlarning lug‘at maqolalari bilan qiyoslab olib boramiz³:

⁴АВСАН (Жўш) // АВСАР (Қашқадарё) *фаросатсиз “недогадливый, несобразительный (1971, 12.12-)*⁵. *Bu lug‘at maqolada negadir dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagani kabi u ifodalaydigan dialektal ma‘noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali faollashmagan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi lozim edi: [авсан // avsan] // [авсар // avsar]. Ushbu dialektal so‘zning “hech narsani tushunmaydigan, e‘tiborsiz” degan ma‘nolari Shahrisabz shevasida mavjud (axborotchi...). Sof dialektal so‘zlardan biri hisoblanadi.*

¹ Файзуллаев Б. Бадий адабиётда диалектизмларнинг стилистик вазифалари // Тилшунослик масалалари. –Тошкент, Фан, 1978. –В.203-211.

² Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент, Фан, 1973. –В.80.

³ Misollardagi (1971, 12.12-) gacha bo‘lgan fikrlar shu so‘zga 1971-yilda nashr etilgan “Ўзбек халқ шевалари луғати”da berilgan. Qoraytirilgan qismi esa shu so‘z talqiniga biz tomondan qo‘shilgan fikrlar.

⁴ Quyida namuna uchun berilayotgan lug‘at maqolalarning yozuv shakli o‘zgarsa, matn boshqa holatga kelib qolishining oldini olish uchun tayyorlanayotgan dialektal lug‘atda ular qanday berilgan bo‘lsa, shu tarzda o‘zgarishsiz qayd etildi.

⁵ Qavsda berilgan (1971, 12.12-) dan keyin keltirilgan fikrlar uchala lug‘at maqolaga biz qo‘shgan qo‘shimchamizdir.

АБЗАЛ I (Хоразм) – афзал (яхши, аъло) “лучшей, преимущественный”. (1971, 12.4-). *U fors-tojikcha afzal (f > b) so‘zining shevada fonetik o‘zgargan holda qo‘llangan shakli. Ushbu lug‘at maqolada negadir dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagani kabi u ifodalaydigan dialektal ma‘noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali faollashmagan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi lozim edi: [абзал // abzal]. Ayni vaqtda (Shah.) bu so‘zning dialektal ma‘nolari oydinlashgan: abzal, yaxshi, a‘lo, tuzuk, durust. (axborotchi...). O‘zlashgan so‘zdan shakllangan dialektal so‘zlardan biri sanaladi.*

АБЗАЛ II (Хоразм) – от анжومي “сбруя, упряжь” (1971, 12.5-). *Bu lug‘at maqolada negadir dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagani kabi u ifodalaydigan dialektal ma‘noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali faollashmagan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi lozim edi: [абзал // abzal]. Mazkur (abzal) so‘z fors-tojikcha afzal (f > b) so‘zining shevada fonetik o‘zgargan holda qo‘llangan shakli hisoblanadi. Bu so‘zning (Shah.) ma‘nosi real(aniq)lashgan: otning to‘qimi, otning egar-jabdug‘i. O‘zlashgan so‘zdan shakllangan dialektal so‘zlardan biri.*

Bulardan ko‘rinib turibdiki, dialektal so‘zlarning talqinlariga biz qo‘shgan qo‘shimchalar ma‘lum ma‘noda asoslidir. Albatta, bu fikrimiz va keltirib o‘tilgan misollarning to‘g‘ri hamda aniqligini asoslashda sheva vakillari nutqidan yozib olingan matn(dialektal matn)larning o‘rni beqiyos kattadir. Chunki har qanday so‘zning, xususan, sheva so‘zlarining ma‘nosi va ma‘no munosabatlari o‘zaro muloqot jarayonidagi gaplar misolida reallashadi. Masalan, kal so‘zi adabiy tilda sochi tushgan kishiga nisbatan aytilsa, shevada esa hech narsa o‘smaydigan dalaga nisbatan “*Шу жерларда элльнән бърэр гъйэх унмәйдъ, ҳэзъйәм. Шу учун унь кәл дәлә дейъшәдъ*”. - Bu jernlarda biror giyoh unmaydi, shu uchun uni kal dala deyishadi. Ushbu gapda kal so‘zi dala so‘zi bilan birikib kelib, birikib, o‘tlar ham o‘smaydigan yer boshqa yerlardan farqlangan. Lekin adabiy tilda kal dala iborasi umuman ishlatilmaydi. Chunki u sheva vakillari nutqida qo‘llanadiki, dialektal ma‘no munosabatiga egaligi bilan giyohsiz yerni adabiy tilda umuman qo‘llanmaydigan tarzda gap ichida nomlanishi ham dialektal semantika va dialektal sintaksis jarayonlarining o‘zaro muvofiqlashuvi bilan yuzaga kelgan. Demak, sheva so‘zining dialektal maqomini

oydinlashtirish uchun eng birinchi vosita bu – dialektal matnlar hisoblanadi.

Yana misol: *g'ilvindi* sheva soʻzi (Shahrisabz sh.) boʻlib, somsaning bir turi sanaladi. U gap ichida qoʻllanganda unga dialektal maʼno yuklaydi:

[“Энәм бечорә, эттә турън, хәмър қорън, сут пшьърън, шърън вә гошль масаллықла бълә гылвъндънь ъккъ турънь ёққа тәшлән, пшьърън энтъ. этәм эсә тушдән соң пәловдән әлдънрәқ нәёб әвқәт богән ячмиччъ ъссъқ нән ва сәрәгдән тайёрлән бедълә”].

- *Onam bechora, erta turib, xamir qorib, sut pishirib, shirin va go'shtli masalliqalar bilan g'ilvindining ikki turini yoqqa tashlab, pishirib olibtilar. Otam esa tushdan palovdan oldinroq noyob ovqat bo'lgan yachmichni issiq non va saryog'dan tayyorlab berdilar.*] Ushbu matndan shu narsa anglashilib turibdiki, *g'ilvindi* va *yachmish* soʻzlari sheva vakillaridan birining nutqida qoʻllangani uchun hamda ularni shevaning boshqa vakillari tushunishgani uchun ham u dialektal soʻz maqomiga, yaʼni dialektal maʼnoga ega boʻlgan. Demak, dialektal soʻz oʻzicha shakllanmaydi, balki dialektal matn(lar) va u(lar)ning tarkibida shevaga xos xususiyatli soʻzlar bilan birga qoʻllangani uchun u faqat bir (yoki bir necha) sheva vakillari tushunadigan dialektal maʼnoga ega boʻladi. Mana shu jarayonlardan keyingina u dialektal soʻz hisoblanadi. Dialektolog olimlar sheva leksikasi haqida gapirganda dialektal soʻz, dialektizm va dialektal xususiyatlarining xilma-xilligi haqida gapirishgan. Ammo shevaning dialektal leksikasidagi maʼno(lar) haqida toʻxtalishmagan. Bizningcha, sheva leksikasi birliklarida dialektal maʼno mavjud. Shuning uchun ular sheva va lahjalararo farqlangani kabi adabiy til leksikasidan ham tubdan farqlanib turishi tabiiydir. Shu sababli ham Alibek Rustamov bunday maʼnoni “el maʼno” (elga, yaʼni shevaga xos maʼno) deb atagan¹. Demak, sheva soʻzlarida dialektal maʼno(lar) borligi uchun bimalol dialektal soʻz maqomi haqida gapirish oʻrinli.

¹ Rustamov A. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2020. –В.94.

1.3. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANIGA OID TERMINLAR

Bilamizki, istalgan fanni terminlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu fanda ham quyidagi terminlar ham faol qo‘llanadi: *dialektal ma’no(lari)*, *dialektal so‘zlarning ma’no munosabatlari strategiyasidagi betakroriy mavqei*, *bir sheva lug‘ati metodi*, *sheva*, *oraliq sheva*, *shevalar guruhi*, *lahja*, *dialektal lahja masalasi*, *dialektal lahjaga xos xususiyatlar*, *dialektal lahjaga xos xususiyatlar masalasi*, *lahjalararo munosabat*, *dialekt*, *dialektal so‘zlik*, *dialektal so‘zlik tamoyillari*, *tasnif*, *shevalar tasnifi*, *lahjalar tasnifi*, *dialektal leksika*, *dialektal leksika tamoyillari*, *dialektal leksika tamoyillari tadqiqi*, *dialektal leksika tamoyillari tadqiqi metodologiyasi*, *dialektal leksikadagi onomatsiologik xususiyatlar*, *dialektal leksikaning onomastik xususiyatlari*, *dialektal leksikadagi onomatsiologik xususiyatlar tadqiqi*, *dialektal leksikadagi onomatsiologik xususiyatlar tadqiqi metodologiyasi*, *dialektal leksika masalalari*, *dialektal leksikografiya masalalari*, *dialektal leksikografiya tadqiqi metodologiyasi*, *dialektal fonetika masalalari*, *dialektal fonetika masalalari tadqiqi*, *dialektal fonetika masalalari tadqiqi metodologiyasi*, *dialektal lug‘at*, *sof dialektal lug‘at*, *morfologik dialektal lug‘at*, *morfologik dialektal o‘quv lug‘ati*, *leksik-derivatsion dialektalizmlar lug‘ati*, *leksik-derivatsion dialektalizmlarning o‘quv lug‘ati*, *leksik-fonetik dialektal lug‘at*, *leksik-fonetik dialektal o‘quv lug‘ati*, *dialektal frazeologik lug‘at*, *dialektal frazeologizmlarning o‘quv lug‘ati*, *leksik-semantik dialektal lug‘at*, *leksik-semantik dialektal o‘quv lug‘ati*, *etnografik dialektal lug‘at*, *etnografik dialektal o‘quv lug‘ati*, *chappa dialektal lug‘at*, *chappa dialektal o‘quv lug‘ati*, *dialektal sinonimlar lug‘ati*, *dialektal sinonimlarning o‘quv lug‘ati*, *dialektal omonimlar lug‘ati*, *dialektal omonimlarning o‘quv lug‘ati*, *dialektal antonimlar lug‘ati*, *dialektal antonimlarning o‘quv lug‘ati*, *dialektal paronimlar lug‘ati*, *dialektal paronimlarning o‘quv lug‘ati*, *dialektal laqablar lug‘ati*, *dialektal laqablarning o‘quv lug‘ati*, *badiiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati*, *maxsus dialektal-toponimik o‘quv lug‘at*, *maxsus dialektal-toponimik lug‘at*, *maxsus dialektal (antroponimik) lug‘at*, *maxsus dialektal-antroponimik o‘quv lug‘ati*, *dialektizmlarning etimologik lug‘ati*, *dialektizmlarning etimologik o‘quv lug‘ati*, *dialektal so‘zlik turlari*, *leksik dialektizm*, *dialektal lug‘at maqola*, *dialektal lug‘at maqola*

tayyorlash, dialektal zona, dialektal azonal hudud, dialektal fokus nuqta, dialektal fonemalar, dialektal imkoniyat, fonetik dialektizm, dialektal leksika, dialektal arxaizmlar, dialektal istorizmlar, dialektal antonimiya, dialektal sinonimiya, dialektal omonimiya, dialektal paronimiya, dialektal frazeologizm, dialektal maqtoqlar, dialektal olqishlar, dialektal qarg'ishlar, dialektal maqollar, dialektal polesemiya, dialektal polesemiya masalalari, dialektal monosemiya, dialektal monosemiya masalalari, dialektal so'z-gaplar, dialektal farq, dialektal xususiyatlar, dialektal xususiyatlar talqini, dialektal xususiyatlar tahlili, dialektal xususiyatlar dialektikasi, dialektal aytishuv, dialektal qo'shiq, dialektal etnografiya, dialektal nutq, dialektal so'zlashuv, dialektal so'zlashuv me'yori, dialektal so'zlashuv latofati, leksik-semantik dialektizm, leksik-morfologik dialektizm, dialektizimlarning leksik-semantik turlari, tarixiy metod, tavsifiy metod, tasniflash metodi, areal metod, areal tadqiq metodi, lingvogeografik metod, geografik lingvistika metodi, savol-javob metodi, matnga dialektal yondashuv masalalari, izoleksema, izofonema, izoglassa, dialektal atlas, dialektal atlas tuzish tamoyillari, singlarmonizm, labial singlarmonizm, palatal singlarmonizm, dialektal tadqiqotlar o'tkazish metodikasi, dialektal tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi, transkripsiya, fonetik transkripsiya, fonologik transkripsiya, gibirdizatsiya hodisasi, metitsasiya hodisasi, transliteratsiya, xalqaro fonetik transkripsiya, rus-krill yozuviga asoslangan transkripsiya, yangi o'zbek yozuviga asoslangan transkripsiya, dialektal turlanish, dialektal tuslanish, dialektal so'z yasalishi, dialektal forma yasalishi, dialektal sintaksis, dialektal sintaksis masalalari, dialektal sintaksis masalalari tadqiqi metodologiyasi, dialektal so'z birikma, dialektal so'z birikmasi masalalari, dialektal gap, dialektal gap masalalari, dialektal sodda gap, dialektal qo'shma gap, dialektal matn, dialektal fonetika, dialektal morfologiya, dialektal morfologiya masalalari, dialektal morfofonologiya masalalari, dialektal morfologiya masalalari tadqiqi, dialektal morfologiya masalalari tadqiqi metodologiyasi, dialektal leksika, dialektal leksikaga xos xususiyatlar, dialektal birlik, dialektal ma'no, dialektal tarbiya, dialektal ta'lim, dialektal xulq, dialektal madaniyat, dialektal odob, dialektal qadriyat, dialektal an'ana, dialektal xato, dialektal muomala, dialektal muloqot, dialektal adabiyot, dialektal umumiylik, dialektal birlik, dialektal matn, dialektal ma'no, dialektal leksika, dialektal leksikografiya, dialektal so'z maqomi, o'zbek

dialektologiyasining metodologiyasi va metodikasi, o'zbek dialektologiyasining falsafasi, o'zbek dialektologiyasiga xos metodlar, o'zbek dialektologiyasiga xos metodlar tavsifi, o'zbek dialektologiyasining talqini, o'zbek dialektologiyasining tavsifi, o'zbek dialektologiyasining o'qitilishi, o'zbek dialektologiyasining o'qitilishi masalasi, o'zbek dialektologiyasining o'qitish metodikasi, o'zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari tadqiqi, o'zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari tadqiqi metodologiyasi, o'zbek dialektologiyasining o'qitish metodologiyasi, o'zbek dialektologiyasining o'qitilishi metodologiyasi masalasi, o'zbek dialektologiyasining tarixi masalasi, o'zbek dialektologiyasining tarixining tadqiqi masalasi, o'zbek dialektologiyasining tarixining tadqiqi metodologiyasi, o'zbek dialektologiyasining kelajagi, o'zbek dialektologiyasining kelajagi masalasi, o'zbek dialektologiyasining so'zlik fondi (yoki o'zbek dialektologiyasining leksik fondi), o'zbek dialektologiyasining buguni, o'zbek dialektologiyasini o'qitish metodikasi, o'zbek dialektal leksikografiyasi, o'zbek dialektal leksikografiyasi talab(tamoyil)lari, o'zbek dialektal leksikografiyasi muammolari, o'zbek dialektal leksikografiyasi muammolari talqini, o'zbek dialektal leksikografiyasi muammolari tahlili, o'qimishliligi Mahmud Koshg'ariy uslubida shakllantirilgan dialektal lug'atlar, dialektal mat(lar)ning tahlili, umumiy metod, xususiy metod, dialektal lekcikaning tahlili talabi, lug'at tuzishning talab va me'yorlari, lug'at tuzish tamoyillari va boshqalar. Lekin ularning sohaga doir ilmiy ishlarda qo'llanishi masalasi negadir tadqiqotchilarning e'tiboriga tushmayapti. Cababi, bu sohaning terminlari bo'yicha haligacha izohli lug'at tuzilmagan va, hatto, bu masalaga munosabat ham bildirilmagan.

1.4. DIALEKTAL SO'Z VA DIALEKTAL MATNLAR MASALASI

Dialektal so'z va dialektal matnlar masalasi ham bugungi kunda jiddiy e'tibor beriladigan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bular ham "O'zbek dialektologiyasi"ni o'qitish metodologiyasi va metodikasiga aloqador masalalardan biri hisoblanadi. Oldinlari faqat sheva so'zlarini yig'ishga e'tibor qaratilmagan. Shuning uchun ham XX asrning 40-70-yillarida sheva vakillari nutqidan yozib olinib, yig'ilgan dialektal matnlar tahlil va talqinsiz, ya'ni o'rganilmasdan kitoblarda va

qo‘lyozmalarda qolib ketgan. Shuningdek, sheva so‘zlarining asosiy qismlaridan biri bo‘lgan onomastik birliklar, ya’ni xalq tilida faol qo‘llanadigan atoqli otlar va joy nomlari oldin dialektal so‘z(lar) hisoblanmagan. Ayni vaqtda xalq vakillari qo‘llaydigan barcha so‘zlar, aniqrog‘i, dialektal so‘zmlarning o‘nta turi (ular quyiroqda berilgan) hamda mavjud barcha nomlar sheva so‘zligi ekanligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berildi.

Hozirgi vaqtda sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektologik matnlar asosida sheva materiallarini yig‘ish, jamlash, tavsiflashu tasniflash bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu masalaga taniqli olimlar qatori Sam DU professori M. Abdiyev ham munosabat bildirgan¹. Dialektologik matnlar va so‘zliklarda nafaqat sheva so‘zlari, shular bilan birga xalq ongiyu dili va tilidagi ma’naviyat, ma’rifat, madaniyatga tegishli bilim, malaka hamda tajribalar o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur sohada talabalar emas, balki dialektal so‘zlarning ma’no majmuini tahlqinu tahlil eta oladigan magistrlar, magistr darajasidagi mutaxassislar, yetakchi mutaxassislar, dotsent va professor hamda ilmiy ishlarini boshlagan tadqiqotchilar faoliyat olib borishlari o‘rinli. Shuning uchun ham bu sohada “Dialektologik ekspeditsiya” O‘zbek shevashunosligi markazi bilan kelishgan holda yilning istalgan davrida o‘rganilayotgan hududda olib borilishi o‘rinlidir.

Ayni vaqtda Til, adabiyot va folklor institutida dialektologiyadan tadqiqot olib boradigan olimlar faoliyat ko‘rsatayotgani yo‘q. Shu bilan birga talabalar tugul olimlarimiz ham negadir umumiste‘mol so‘zlari bilan dialektal so‘zlarni farqlamaydigan holga kelib qolgan. Shu kungacha dialektal so‘z masalasi har tomonlama mukammal ochib berilmagan. Bunga imkon ham yo‘q edi. 1971-yilda nashr etilgan “Ўзбек халқ шевалари луғати”dagi dialektizmlar sof dialektizmlar (professorlar Ayub G‘ulomov va Shonazar Shoabdurahmonov) nuqtai nazaridan saralab olingan.

Agar o‘zbek dialektologiyasining XX asrdagi taraxiy taraqqiyotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, 20-60-yillarida dialektologlar dialektal matnlarni yozib olishgan, 70-90-yillarida va XXI asrning 20-yillarigacha dialektal matnlar yozib olishga uncha ko‘p e’tibor berilmagan.

¹ Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -В. 55-59.

Shu o‘rinda quyidagi holatni alohida ta’kidlash kerakki, sheva vakillari nutqini dialektal holati va mazmunini saqlash uchun ularni transkripsiya vositasida dialektal matnlar sifatida yozib olish lozim bo‘ladi. Y. D. Polivanov va K. K. Yudaxinlar o‘zbek shevalarini o‘rganganda sheva materiallarini transkripsiyada yozib olishganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Hatto, K. K. Yudaxin XX asrning 20-yillarida dialektal matnlarni yaxsh yozib olgani uchun o‘sha vaqtdagi Faylar Akademiyasining akademikligiga qabul qilinganligi ham ma’lum.

Ulardan boshqa dialektologlar ham shunday matnlar yozishgan, ammo XX asrning 70-yillaridan keyin bu holatga e’tibor ham berishmay qo‘yilgan. Shuningdek, yozib olingan dialektal matnlar dialektal leksikaning tahlil talablari asosida tahlil etilib, ularning dialektal leksika birliklari ajratib olinmagan ham.

1.5. DIALEKAL SO‘ZLAR MUAMMOSINING TAVSIFI

Haligacha dialektal so‘z turlari qancha degan savolga aniq javob berilmagan. Shuning uchun biz o‘ttiz yil davomida “O‘zbek dialektologiyasi” bo‘yicha bir qancha nazariy va amaliy xarakterdagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, ularni ham tanqidiy, ham qiyosiy o‘rganib, shevalarda dialektal so‘z turilarning quyidagi turlari borligini aniqladik. Bular dialektolog olimlarning asarlarida u yoki bu darajada qayd etilganligini manbalar asosida kuzatib, quyidagi turlari borligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz¹:

- 1) sof leksik dialektal so‘zlar;
- 2) leksik-semantik dialektal so‘zlar;
- 3) leksik-fonetik dialektal so‘zlar;
- 4) morfologik-fonetik dialektal so‘zlar;
- 5) morfologik-leksik dialektal so‘zlar;
- 6) leksik-derivatsion dialektal so‘zlar;
- 7) frazeologik-dialektal iboralardan iborat dialektal so‘zlar;

¹ Birinchi tur dialektal so‘zlardan boshqalari o‘zbek dialektal leksikografiyaga birinchi marta olib kirilishi mo‘ljallanmoqda. Quyidagilarga qarang: Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. Абдуллаев Ф.А.Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39. А. Ишаев. Ўзбек шеваларининг dialektal лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –В. 4-12. Омонтуриев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё dialektal-этнографик мақолларининг изоҳли луғати (Унигилаётган мақол, матал ва айтимлар). 2-қисм. -Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2019. -96 bet. Nafasovning T. Qashqadaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 2010. To‘ychiboyev B., Yo‘ldoshyev Q. Zomin so‘zligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

8) atoqli ot (toponim) hamda joy nomlari shaklidagi dialektal soʻzlar;

9) etnografik dialektal soʻzlar;

10) baʼzi bir umumistemol soʻzlarining *dialektal maʼnoga* ega boʻlishidan shakllangan dialektizmlar.

Bular shevalarning benihoya katta lugʻaviy boyligini koʻrsatuvchi asos hamda dalillar majmuidir. Chunki sheva vakillari bormi, demak, nutqda bir qancha soʻzlar konnotativ maʼnoda, yaʼni dialektal maʼnoda qoʻllanadiki, bu holatga ham haligacha jiddiy eʼtibor berilgani yoʻq. 1971-yilda nashr etilgan “Ўзбек халқ шевалари луғати”dagi soʻzlardan koʻrinib turibdiki, hozirgacha sof leksik dialektal soʻzlar va qisman fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlar oʻrganilgan, xolos. Qolgan dialektal soʻzlar esa xalq shevalarida turganicha qolmoqda...

Shu yerda quyidagi holatlarga eʼtibor berish lozim: 1) dialektal soʻzlar termini sheva vakillari nutqida qoʻllanadigan sheva soʻzlariga nisbatan ishlatiladi; 2) dialektizmlar termini badiiy asarlarda ishlatiladigan sheva soʻzlariga nisbatan qoʻllanadi.

Ayni vaqtda bu sohada qilinmagan, biroq qilinishi lozim boʻlgan ilmiy ishlar mavzulari majmui jumlasiga dialektal lugʻat(DL)larni tuzish masalasi oid. Hozirgacha oʻzbek shevalari boʻyicha 1977-yilda bitta dialektal lugʻat tuzib, nashr etilgan, xolos. Shu bilan birga baʼzi bir shevalarning lugʻatlari ham mualliflarning tashabbusi bilan kam nushada nashr etilgan. Masalan, Saidmuso Rahimovning “Сурхондарё ўзбек шевалари луғати” (ikki mingga yaqin dialektal soʻz bor). Ancha oldin, yaʼni XX asrda himoya qilingan oʻzbek dialektologiyasiga oid ilmiy ishlarda ham sheva soʻzlari lugʻat koʻrinishida berilgan. Ammo ular oʻzbek xalq shevalarining ayni vaqtda ham oʻrganilmay qolayotgan soʻzligi (yaʼni dialektal leksikasi) oldida kam. Bizningcha, shevalarning dialektal lugʻatlarini quyidagi koʻrinishlardagi dialektal soʻz turlaridan tuzishni lozim deb bilamiz:

1. Odatda dialektal soʻzlar bir necha xil boʻlishini eʼtiborga olib, turli dialektal lugʻatlar tuzish uchun mukammal koʻrsatmali (dialektal leksikografik) qoʻllanmalar tayyorlashni amalga oshirish lozim.

2. *Sof leksik dialektal soʻzlar*. Sheva, dialektlarda qoʻllanadigan, faqat ularga xos leksikani ifodalaydi. Ularni adabiy til, xususan sheva va adabiy til uchun mushtarak leksikadan farqlash maqsadida sof leksik-dialektal soʻzlar deb atagan maʼqul. Ularning yigʻib oʻrganilmaganlarining miqdori anchagina. Bizningcha, tuzilishi lozim

bo'lgan bu lug'at hajman 1971 yilda nashr etilgan shunday lug'atdan bir necha barobar katta bo'lishi aniq.

3. *Leksik-semantik dialektal so'zlar*. Sheva, dialektlardagi so'zlar adabiy tildagi, shuningdek, boshqa biror sheva, dialektidagi xuddi o'sha xil so'zlardan ma'nosiga ko'ra farqlanadigan bo'lsa, ular leksik-semantik dialektal so'zlar guruhini tashkil etadi. Ushbu guruh so'zlari o'ichida alohida ikkita qismga bo'linadi. Ular quyidagilar: 1) bir so'zning sheva(lar)da boshqa, adabiy tilda boshqa ma'nolarda ifodalaydi; 2) faqat sheva(lar)da qo'llanadigan dialektal so'zlar majmuiyning leksik-semantik tasnifi. Masalan, adabiy til va shevalarda mavjud bo'lgan *aka* so'zi ayrim shevalarda: “*ota*” va hatto, “*pochcha*” ma'nolarida qo'llanadi.

Shuningdek, ayrim so'zlar sheva va adabiy tilda o'z ma'nolaridan boshqa ma'nolarni ham anglatishi mumkin. Masalan, birgina yomon so'zini olsak, u shevalarda ham, adabiy tilda ham ishlatiladi. Bu so'z adabiy tilda salbiy ma'noda ishlatilsa, shevalarimizda esa *yaxshi*, *juda yaxshi* ma'nolarini anglatib, ijobiy ma'noda qo'llanadi: *yomonam qiziq ish bo'ldi*, *yomonam zo'r*, *yomonam aqlli odam*. Bunday so'zlar shevalarda ko'p uchraydi.

Yoki adabiy tildagi va shevalardagi *dars* so'zi Xorazm va Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida “*mahalliy o'g'it, go'ng*” ma'nosida uchraydi. Ko'pchilik hollarda bu xildagi so'zlarning har ikkalasi ham sheva vakillari tomonidan qo'llanadi va ularning ma'nolari nutqda tushinarli bo'ladi.

Qoloq so'zi adabiy tilda ham, shevalarda ham bor. Biroq shevalarda bu so'zning yuqoridagi ma'nosidan tashqari: “*podadan qolib ketadigan mol*”; “*cho'milayotganda bir bolaning boshqa bolalarni quvib, birortasining boshiga qo'l tekizib, quvish navbatini unga berib ketadigan o'yin*”; “*qorig'ich; kurakcha; kichik o'qlog'; andava; katta eshak*” kabi ma'nolari bor.

O'zbek shevalarida qo'llanadigan turli xil sanash tizimlariga oid hisoblashlar ham leksik-semantik dialektal so'zlardir, chunki bu hisoblarda ishtirok qiladigan son bildiruvchi so'zlar adabiy tilda bor: *besh y'gme* (Namangan) – yuz; *omb'r yus* – bir ming bir yuz. Bunday so'zlarni yig'ib olish uchun sheva vakillari nutqidan bir qancha matnlarni yozib olish va tahlil qilish lozim bo'ladi. Shu sababli mazkur lug'atda sonning shevalarda qay tarzda aytilishi ko'rsatilgan holda ular gap tarkibida berilishi o'rindir. Bunday so'zlar, albatta, DLdan o'z

o‘rinlarini olishi shart. Faqat shevalarda qo‘llanadigan dialektal so‘zlar majmuining leksik-semantik tasnifi T. Enazarovning kitobida berilgan¹.

4. *Leksik-fonetik dialektal so‘zlar*. Ma‘lumki, o‘zbek shevalaridagi ko‘pchilik so‘zlar xilma-xil fonetik o‘zgarish-larga uchraydi. Masalan, so‘z boshida qo‘llanadigan adabiy tildagi y undoshi o‘rniga qipchoq lahjasiga oid dj-lashgan sheva vakillari, ko‘pincha, jd undoshini talaffuz etadilar: *djaman-yomon*, *djoq-yo‘q*; o‘sha shevalarda ayrim unlilar so‘z boshida diftonglashadi; *tari(q)*, *sari(q)* kabi so‘zlar oxiridagi q undoshi talaffuz etilmaydi; ayrim undoshlar tushurilib talaffuz etilgani tufayli ikkinchi darajali cho‘ziq unlilar vujudga keladi. Bu xildagi fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlar bo‘yicha yuzlab, minglab misollarni keltirish mumkin.

Shuning uchun ham F. A. Abdullayev “...fonetik o‘zgalik ma‘nodagi o‘zgalik bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday so‘zlar lug‘atga kiritilishi kerak”², - deydi. Shu o‘rinda quyidagi mulohaza ham o‘rinli: “Haqiqatan ham, «semantik, leksik dialektizmlar olinadi, fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar lug‘atga kiritilmaydi», deyish bilan cheklanishimiz mumkin, lekin o‘sha fonetik o‘zgaliklarning ayrimlarida shunday ma‘no farqlari uchraydiki, unday so‘zlarning e‘tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Masalaning boshqa tomonini olaylik: so‘z, shundoq qaraganda, fonetik jihatdan deyarli hech o‘zgarishga uchramagan, ma‘noda ham farq yo‘qdek. Lekin shu so‘z frazeologizm girdobiga tushdimi – shevalararo ba‘zan farq juda sezilarli bo‘ladi, yoki so‘zni yasash planida ko‘rilsa ham, adabiy til bilan shevalar orasida ayirma ozmi-ko‘pmi, albatta, topiladi. Biz yuqorida oyoq (ayaq) so‘zini frazeologiya planida ko‘rib chiqqan edik (ayaq achmaq, ayaq almaq, ayaq qa:sma:q, ayaq chalmaq, ayaq cha:kma:k va boshqalar), xuddi shu so‘zni yasash planida ko‘raylik. Masalan, *ayaqlashmoq* (*ayaq+la+sh+maq*): 1) oyoq uzatmoq, oyoqni cho‘zib yotmoq; 2) ikki kimsa bir-biriga oyoq uzatishib yotmoq; 3) bo‘lishmoq, taqsim qilmoq: bir malnı uch kishi ayaqlashtıyq (Xiv); *ayaqlamaq* (*ayaq+la+maq*): 1) tamomlamoq, oxiriga yetkazmoq; 2) ayaqlanmoq: 1)) ayaqqa turmoq, isyon ko‘tarmoq; 2)) o‘ng‘almoq, oyoqqa bosmoq, tuzalmoq: i:shim ayaqlanib getti (H-asp.)”³.

¹ Enazarov T. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Universitet, 2012. –B.40-49.

² Абдуллаев Ф.А. Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39.

³ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент, Фан, 1973. –В.98-99.

So‘zsiz, fonetik hodisalar sababli adabiy tildagi ba’zi so‘zlar shu qadar o‘zgarib ketadiki, hatto ularning qanday so‘z ekanligini izohsiz aniqlab bo‘lmaydi:

a) Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa shevalarda *jdav* so‘zi bor. Bu so‘z y->dj- hamda –g‘ >-v tovushlari o‘tishi tufayli sodir bo‘lgan adabiy tildagi yog‘ so‘zining aynan o‘zidir;

b) Oshobo shevasida *burgulte*, *olta* kabi so‘zlar mavjud¹. Aslida ular –tl- // -lt- metatezasi va so‘zlar oxiridagi –r undoshining tushishi natijasida sodir bo‘lgan, ma’noda farqlanmaydigan burgutlar, o‘tlar so‘zlaridir. Xo‘sh, *djav*, *olta* singari fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni DLga kirtimaslik kerakmi? Bu xil so‘zlar DLlarda berilmasa, qaysi xildagi lug‘atlarda beriladi?

Shevalardagi nutq tovushlarining almashishi, ortishi, tushishi, so‘z ma’nolarining torayishi, metateza kabi fonetik hodisalar tufayli shaklan o‘zgarishlarga uchragan quyidagi so‘zlarni DLga kiritish kerak:

1) fonetik o‘zgarishlar natijasida adabiy tilda va shevalarda mavjud bo‘lgan so‘zlarga o‘xshab qolgan dialektal so‘zlar:

hovuz (Qoramurt) – og‘iz suti, ilk sut, hayvon; (Qarnoq) – ayvon;

2) metateza hodisasi tufayli kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: *gindjelek* (Uychi) – jingalak; *yevere* (Andijon) – arava; *hayda* - hadya;

3) so‘zlarning torayishi (qisqarishi) sababli izoh berilmasa tushinish qiyin bo‘lgan so‘zlar: *kesh* (Namangan) – kalish; *ye:de* (Uychi) – ana u yerda; *kochche* – *katta acha* - buvi; *balı* – boyo‘g‘li (qush);

4) o‘g‘uz lahjasidagi birlamchi cho‘ziq unlilar va boshqa fonetik o‘zgarishlar natijasida adabiy tildagi hamda qorluq, qipchoq lahjalaridagi so‘zlardan farqlanadigan *bu:z* – muz; *di:v* – tup singari so‘zlar;

5) Namangan tip umlautli shevalarga xos, aloqador: *hozur* – hozir; *chogun* – chovgun; *set’sh* – sotish kabi so‘zlarni DLda berish kerak;

6) adabiy tilda va shevalarda qo‘llanayotdigan *savchı*//*sovch’* – sovchi etnografizmining shevalarda uchraydigan *djavchı*// *djovch’*// *djovch’*; *zavdj’*//*zevcho*//*yevch’* kabi fonetik variantlarini (bitta so‘z boshida s//dj//z//y undoshlari mosligidek muhim fonetik xususiyatga egaligini hisobga olib) DLga kiritsa bo‘ladi;

¹ Шералиев Э. Ошоба шеvasи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. 1-сон. –В. 69.

7) o‘zbek lahja va shevalari tasnifi uchun asos hisoblanadigan fonetik belgilarga ega bo‘lgan so‘zlar: *dag‘* (o‘g‘uz) ~ *tav* (qipchoq) – tog‘; *sollemek* (o‘g‘) ~ *soylemek* (qipch.) – so‘zlamog‘; *a:djы* (o‘g‘.) ~ *achchy* (qipch.) – achchiq.

Umuman shevalarimizdagi *kəryə* - qariya, *koyeg* - kuyov kabi fonetik qiyofasi o‘zgargan so‘zlar hamda *lapыda* – rapida, *zələl* – zarar singari dialektizmlar DLdan o‘rin olishi lozim.

5. *Morfologik-dialektal so‘zlar.* Adabiy til va shevalardagi so‘z o‘zaklariga forma yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so‘zlar turli xil bo‘lib, ular, shakl yasovchi qo‘shimchalarning birgalikda qo‘llanishi, turli xil fonetik o‘zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos shakl yasovchi qo‘shimchalarning qo‘shilishi bilan shevalarda (adabiy tilda uchramaydi): *əpəng‘lə* - opanglar; *otəluv’ //otəluy’* - otalari; *həmməl’ys’* - hammalari singari morfologik dialektal so‘zlar bor.

6. *Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar.* Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo‘lgan xilma-xil so‘z yasovchi qo‘shimchalar shevalardagi so‘zlarga yoki adabiy til va shevalar uchun mushtarak so‘zlarga qo‘shilishi natijasida sheva, dialektlarda adabiy tilda uchramaydigan dialektal so‘zlar vujudga keladi, ularni “leksik-derivatsion dialektal so‘zlar” desa bo‘ladi.

O‘zbek shevalarida leksik-derivatsion dialektal so‘zlarning asosan quyidagidek to‘rtta xili mavjud:

1) Adabiy tilda uchramaydigan shevalarga xos so‘zlarga adabiy tildagi affikslarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan dialektal so‘zlar:

djырчы < *djыр* – (*janjal*) + *-chy* (Xorazim) (o‘g‘.) – *janjalkash*; *g‘achchaq* < *g‘ach* – (*qo‘chqor*) + *-chaq* (QQASSR-o‘zb.) – *mard*, *botir*, *dovyurak*;

2) shevalarimizda ham, adabiy tilda ham, so‘z o‘zagi va yasovchi qo‘shimchalar mavjud bo‘lsa-da, shevalardagi so‘z yasalishining sababli adabiy tilda uchraydigan so‘zlar: *bergi* < *ber* + *-gi* – qarz; *chapqы* < *chap* + *-qы* – poygaga qatnashadigan ot;

3) adabiy tilda (shevalarda ham) mavjud so‘z o‘zagiga shevalar uchun xarakterli qo‘shimchalarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan dialektal so‘zlar: *yur* + *-mel* (QQASSR-o‘g‘.) – *yurmel* - tez yuradigan, yurag‘on; *quyash* + *-lama* – *quyashlama* - oftobro‘ya; *qanыр* + *-ыshma* – *qanырыshma* – ziyofat.

4) dialektal soʻz + dialektal qoʻshimcha: *chege+ -len - chegelen - qumoq*; *murt+ -las - murtlas* – moʻylovdor (chege, murt soʻzlari DLda alohida sof leksik–dialektal soʻzlar sifatida beriladi); *chushirindi < chushur + -indi < tushir* – (kelin) tushiri (moq)+ -indi (Fargʻona) - nikoh toʻyi.

7. *Frazeologik-dialektal iboralar*. Oʻzbek sheva, dialektlarida mavjud boʻlgan, adabiy tilda uchraymadigan yoki uchrasa ham maʼnosi bilan farqlanadigan frazeologik iboralar bir butun, yaxlit holda biror maʼnoni, odatda, qoʻshimcha koʻchma maʼnoni anglatadi.

Qoraqalpoq, boshqird, qozoq tillarining shevalarida frazeologizmlarning oʻzi bosh soʻz (reestr soʻz) sifatida berilgan. Tatar, yoqut shevalariga oid lugʻatlarda esa ular bir butun holda berilmay, odatda, undagi birinchi soʻz tariqasida berilgandan keyin frazeologik iboraning oʻzi qayd etilgan.

Ushbu lugʻatlarda koʻrsatilganidek, shevalardagi frazeologik dialektal iboralarni DLda ikki xil koʻrinishda berish mumkin: 1) yipsiz boylamoq - kutarib qoʻymoq ... 2) yip: yipsiz baylamoq ...

Ortiqcha qaytariqlar boʻlmasligi, tejamkorlik boʻlishini nazarda tutib, ularni bir butun, yaxlit holda DLga kirtigan maʼqul.

8. *Etnografik-dialektal soʻzlar*. Oʻzbek adabiy tilida ham, shevalarimizda ham xalqimizning asrlar davomidan shakllangan juda qadimgi turmush tarzi, urf-odatlar, moddiy va maʼnaviy madaniyati bilan aloqador soʻz, terminlar mavjud: *non tishladi, non sinni, javchi, pochchaburxon, joy yigʻdi, koʻcha, koʻcha oshi, koʻrmana, togʻora qaytti, surpa ochdi, surpa berdi, chilyosin, chiyratma, soʻqim, soʻxta, tavof, tumalaq qalin, toboq, kelinqochdi, toʻqqiztovoq* va boshqalar. Lekin bu xil soʻzlar, yaʼni:

1) adabiy tildagi etnografizmlar ham; 2) adabiy til va shevalar uchun mushtarak boʻlgan adabiy-dialektal etnografizmlar ham; 3) faqat sheva, dialektlarga xos etnografik soʻzlar ham ayni vaqtgacha birbirlaridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Bu soʻzlar lugʻatini tuzish bilan ular toʻgʻrisida ilmiy kuzatishlar olib borish mumkin.

9) atoqli ot hamda joy nomlari (toponim) shaklidagi dialektal soʻzlar: Borigul, Itolmas, Teshiktosh, oʻlaqargʻa, Sinabogʻ, Akulova;

10) baʼzi bir umumistemol soʻzlarining *dialektal maʼnoga* ega boʻlishidan shakllangan dialektizmlar (dars – 1) *mashgʻulot*; 2) *chiqindi*).

Quyidagilarni alohida ta'kidlash kerakki, *“O‘zbek xalq shevalari nihoyatda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ularning bir qismi fonetik va grammatik jihatdan o‘rganilgan. Lekin leksik jihatdan hali yaxshi o‘rganilmagan shevalar ham mavjud”*¹. *“Shu bois ham o‘zbek xalq shevalarini atroflicha o‘rganish, klassifikatsiya masalalarini aniqlashtirish, keng monografik hamda umumlashtiruvchi ilmiy tadqiqotlarni yaratish dialektologlarning birinchi vazifasi ekanligini taqozo etmoqda”*².

Shu o‘rinda qiyoslaydigan bo‘lsak, rus tilshunosligida rus tilining shevalarini o‘rganilishi va tadqiqiga bir e‘tibor qarataylik... Ular o‘z shevalarini tavsifiy, tasnifiy tahlilda va yana lingvogeografik metodda o‘rganishib, shevalarining dialektal atlaslarini tayyorlashni yakunlashib, ayni vaqtda esa yangi mavzular asosida shevalarini qaytadan tadqiqini amalga oshirishmoqda. Bizda esa hozirgi kunda asosli, lekin taxminiy hisob-kitioblarga ko‘ra, juda kamaytirib aytilganda ham shevalarda, sheva vakillari nutqida ikki-ikki yarim million dialektal so‘zlar yig‘ib olinmasdan, ilmiy-nazariy asoslarda o‘rganilmasdan yotibdi. Bu – eng kami yuz jilddan ortiq bo‘lgan dialektal lug‘at deganidir (ya‘ni sarflanadigan mablag‘ ma‘lum darajada qoplanadi) . Bu – Urxun-Enasoydagi tosh bitiklar darajasidan-да yuz baravar ortiq bo‘lgan oltin bitiklar demakdir. Bu – ona tilimizning sofligini saqlab qoladigan, ya‘ni o‘zga tillarning so‘zlari tilimizga singib qolishining oldini oladigan tabiiy imkoniyatdir. Ammo ularni ishonchli dialektal matnlar asosida yig‘ib olish va ilmiy tadqiq etish asosida lug‘at maqolalar yaratib, ulardan dialektal lug‘atlar tuzish uchun dialektologlarni ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash hamda moddiy imkoniyatlar lozim bo‘ladi. Ushbu holat bugungi kun uchun dolzarbligi bilan muhim bo‘lgan innovatsion jarayonlarning bir bo‘lagidir. Shu sababli innovatsiyalar bilan shug‘ullanadigan tashkilotlardan shevalarning leksikasini yig‘ish va ulardan dialektal lug‘atlar tuzish uchun moddiy hamda ma‘naviy yordam kutib qolamiz. *“Xullas, lahjalar va shevalar tilimizning bitmas-tuganmas boylikdir. Ularni mumkin qadar tezroq va to‘liqroq yozib olishga harakat qilish asosiy burchimizdir”*³.

¹ Ўзбек халқ шевалари луғати.-Тошкент: Фан, 1971. –В.3.

² Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиқлол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -Б. 58.

³ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –В.294.

Yuqoridagilardan ko‘rini turibdiki, o‘zbek xalq shevalaridagi dialektal so‘zlar o‘nta turga egadir. *“Demak, shevalarni va ularning xususiyatlarini mukammal ravishda o‘rganish tilimizning hozirgi ahvoli va tarixini o‘rganish sohasidagina emas, balki xalqimiz tarixini to‘laroq o‘rganish sohasida ham katta ahamiyat kasb etar ekan”*¹.

¹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент, Фан, 1979. –В.151.

2-BOB. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI”NING METODOLOGIYASI TARAQQIYOTIGA BIR NAZAR

Shu o‘rinda “Dialektologiya metodologiyasi” nomli bu monografiyaning mazkur bobida yoritilishi mo‘ljallangan masalalarga e‘tibor qaratsak, o‘rinli bo‘ladi. Metodologiya umumiy va xususiy holatlarda bo‘ladi. Umumiy metodologiyada barcha fanlarga oid xususiyat va qonuniyatlar o‘rganiladi. Xususiy metodologiya oid alohida fanga oid metodologiyadir. Bunga “O‘zbek dialektologiyasi” faniga oid dialektologiya metodologiyasi misol bo‘ladi. Chunki “...«metodologiya» yunoncha atama bo‘lib, ikki so‘z birikmasidan hosil bo‘lgan ilmiy-amaliy tushuncha. «Metod» — «usul» (yo‘l-yo‘riq), «logiya» esa «fan», «nazariya», «g‘oya», «bilim» va «ta‘limot» degan ma‘nolarni anglatadi. Demak, metodologiya — keng ma‘noda insoniy faoliyat, jamiyat va fanlar taraqqiyotiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ta‘limotlar, nazariya hamda g‘oyalar, usul va tamoyillar, mezon va konsepsiyalar, din va dinlar majmui. Shuningdek, metodologiya — insoniy ongli maishiy hayot va ilmiy faoliyatni aniq bir maqsad sari yo‘naltiruvchi va ularning samara bilan yakun topishini ta‘minlay oluvchi zaruriy ilmiy nazariya, g‘oya, mafkura, ta‘limot, qonuniyat, an‘ana, mezon, konsepsiya, usul va tamoyillarning oliy darajada o‘zaro uyg‘unlashgan bir butun majmui — tizimidan iborat fan”¹.

Albatta, metodologiya va fan inson ongida, uning mutaxassisligiga oid innovatsion faoliyatda yaratiladi: “«Fan osmondan tushgan emas, u tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning odam miyasidagi in‘ikosidir... Fanning o‘zini mana shunday murakkab bir «dunyo» deyilsa, yanada tushunarli bo‘ladi. Shunday ekan, bu soha (fan) haqida fan bormi? Bor. Uning nomi fan metodologiyasidir»”².

Inson(tadqiqotchilar)ning bilishga bo‘lgan intilishi, bilish usullari, shu jumladan, o‘zbek xalq shevalarini bilish va ularni fonetik, leksik hamda grammatik jihatlardan tadqiq etish, o‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi masalalariga jiddiyroq e‘tibor berib, xalq tilida o‘rganilmasdan qolib ketayotgan eng kami ikki-ikki yarim milliondan ortiq so‘z boyligimizni yig‘ish, umumlashtirish asosida dialektal lug‘at maqolalar tayyorlab, yuz jilddan ortiq dialektal lug‘atlarni shakllantirish jarayonlari majmui ham, bugungi kunda tanqidiy tahlil asosida qilingan ilmiy tadqiqot ishlariga beg‘araz tanqid bilan baho berish ham

¹ Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, О‘zbekiston, 2015. –В. 15.

² Файзуллаев О.Фалсафа ва фанлар методологияси. –Тошкент, Фалсафа ва ҳуқук, 2006. –В.20.

metodologiya jumlasiga kiradi. Zero, «*Metodologiya — nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish... tamoyillari, usullari tizimi, shuningdek mazkur tizim to'g'risidagi ta'limot*»dir, degan hamda «*Metodologiya — bilish faoliyati yo'llari haqidagi ta'limot*»¹. Bular shevalar tadqiqi tarixiga oid ilmiy maktab va ilmiy-amaliy metodologiyalar ham o'zbek shevalari yuzasidan bugungi ilm-fan talabalaridan kelib chiqqan holda tadqiqotlar olib borishga asosligi aslida dialektologiya metodologiyasining bir bo'lagi ekanligini tasdiqlaydi. Aslida metodologiya quyidagi to'rtta turga bo'linadi:

“1.Insonning ijtimoiy-maishiy hayot faoliyati, ya'ni yashash tarzining metodologiyasi.

2.Davlat va jamiyat boshqaruvining metodologiyasi.

3.Ta'lim-tarbiya va o'qitish tizimining metodologiyasi.

4.Fan va fanlar metodologiyasi”².

Мана шулардан, “Фан ва фанлар методологияси” бизнинг соҳага даҳлдор. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu bobda o'zbek shevalari tadqiqi tarixini o'rganish asosida dialektal metodologiyaning quyidagi jihatlari shu bobning qismlari sifatida birma-bit yoritildi: 1) O'zbek dialektologiya”si tarixida ilmiy maktablar; 2) o'zbek xalq shevalarini o'rganishning ilmiy metodologiyasi (yoki ilmiy nazariy konsepsiyalari) haqida; 3) o'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasi (yoki ilmiy nazariy konsepsiyasi).

2.1. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYA”SI TARIXIDA ILMIY MAKTABLAR

Har bir sohaning ilmiy maktablari bo'lgani kabi o'zbek dialektologiyasi sohasida ham ilmiy maktablar bo'lgan va bor. Oldinlari ilmiy maktab deganda uning asoschisining nomi aytilardi. Mana shu ilmiy maktablar sohaning ma'lum bir davrdagi rivojlanishini belgilab beradi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «*Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi*» mavzusidagi videoselektorda ham asoschisi bor, ham asoschisi yo'q, ammo shunday ilmiy maktablarning bo'lishiga ijtimoiy va ilmiy talab-ehtiyojning

¹ Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси.-Тошкент, 2005. –В. 213.

² Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва таракқиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, O'zbekiston, 2015. –В. 24.

borligiga asoslanib, ularni ikkiga bo‘lib, farqlagan edi: «Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida *hadisshunoslik*, Imom Moturidiy markazi qoshida *kalom ilmi*, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida *islom huquqi maktabi*, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida *tasavvuf*, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida *aqida ilmi maktabini* tashkil etsak, o‘ylaymanki, bu juda foydali bo‘ladi. Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib xizmat qiladi»¹.

Natijada, Samarqand viloyatidagi “*Hadis*” va “*Kalom*” ilmiy maktablari 2017-yil 8-noyabr kuni Qashqadaryo viloyatidagi “*Aqida*” ilmi maktabi, 10-noyabr kuni, Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi qoshida “*Islom huquqi maktabi*” 13-noyabr kuni rasman ish boshladi².

Demak, ilmiy maktablarning quyidagi turlari bor: 1) asoschisi e‘tirof etiladigan ilmiy maktablar; 2) ijtimoiy, ma‘rifiy, madaniy va ilmiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan ilmiy maktablar (ularning asoschisi bir kishi emas, bir necha olim yoki alohida bir ijodiy jamoa bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “Dialektologik kvalametriya” fani talablari asosida mamlakatimiz hududida dialektologiya sohasiga ilmiy kuzatishlardan boshlangan izlanishlar keyinchalik ilmiy maktab va ilmiy nazariy konsepsiyalar darajasida rivojlangan. Ular davriylik nuqtai nazaridan joylashtirilsa, biron-bir ilmiy maktabning vakillari o‘rinsiz xafa bo‘lishmaydi. Zero, ilmiy maktablarning faoliyatiga ham zamonaviy talablar va “Dialektologik kvalametriya” nuqtai nazaridan birinchi marta bo‘lsa hamki, baho berish mumkin. Hozirgacha o‘zbek shevalarini o‘rganib, ilmiy asoslarda tadqiq etadigan dialektologiya bo‘yicha quyidagi ilmiy maktablar shakllanib rivojlangan:

1. XI asrda Mahmud Koshg‘ariy asos solib, o‘zi boshchilik qilgan dialektologlarning ilmiy maktabi.

2. XII-XIY asrlardagi turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning ijodkorlar tomonidan amaliy qo‘llanishi ilmiy-ijodiy maktabi.

¹ [https://kun.uz/news/list?f=илмий мактаблар](https://kun.uz/news/list?f=илмий%20мактаблар).

² Yuqoridagi havolaga qarang.

3. XY-XYI asrlarda eski o'zbek adabiy tili amalda bo'lgan vaqtda turkiy-o'zbek shevalari(dialektologiyasi)ning amaliy qo'llanishi faollashtirgan ilmiy maktabi.

4.XYII asrdan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda ijodkor va lug'atshunoslar yaratgan dialektal talqin ilmiy maktabi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda faoliyat ko'rsatgan olimlarning dialektologik kuzatishlar ilmiy maktabi.

6. ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi. Uning faoliyati XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Bunda professorlar Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, A.Aliyev, K.Nazarov, dotsentlar T.Ibrohimov, Yo. G'ulomov, I.Shoinoyatova, L.Karimova, katta o'qituvchi A.Yo'ldoshyev, filologiya fanlari doktori T. Enazarov kabi olimlar faoliyat olib borishgan¹.

7. SamDU dialektologlarining ilmiy maktabi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Unda professorlar Ulug' Tursunov, Xudoyberdi Doniyorov, Nazar Rajavbov, V. Egamov, H. Berdiyev, M. Baliyev, M. Ahmedov, X. Jo'rayev, B. Jo'rayev, Mirsoatov, Y. Ibragimov, E. O'razov, T. Qudratov, H. G'ulomov, Suyun Karimov, Jo'liboy Eltazarov, Murodqosim Abdiyev va boshqa olimlar faoliyat ko'rsatishgan. Uning faoliyati ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi faoliyati bilan birga boshlangan bo'lishi mumkin. Unda professor va dialektolog olim Xudoyberdi Doniyorovning 100 yilligi 2017-yilda, Mahmud Koshg'ariy, Farobiy, Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy anjuman 2018-yil noyabrda o'tkazildi².

8. Xorazm dialektologlarining ilmiy maktabi. Uning faoliyati XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Professorlar Fattoh Abdullayev, Yusuf Jumanazarov va ularning shogirdlari bu ilmiy maktabda faoliyat ko'rsatishmoqda.

9. O'zR FA A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktabning faoliyati XX asrning 60-yillaridan boshlangan. Professor Fattoh Abdullayev, akademik Shonazar Shoabdurahmonov, yetakchi ilmiy xodimlar Qosim Muhammadjonov, Ahmad Ishayev, Shukur Nosirov, Tohir Sodiqov, katta ilmiy xodim Masharif Safarov, ilmiy xodim Klara Sharipova, ilmiy

¹ Bu ilmiy maktabda ham, boshqa ilmiy maktablarda ham biz tilga olmagan dialektologlar faoliyat ko'rsatishgan bo'lishi mumkin. Ammo ularning ilmiy ishlarini topo olmay, ko'rmaganimiz uchun ushbu maqolada tilga olmadik. Shuning uchun uzr so'raymiz.

² Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -Б. 55-59.

xodim Do‘stmurod Abdurahmonov, Nasiba Shoimova kabi dialektolog olimlar faoliyat olib borishgan.

10. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (keyinchalik shu nomdagi pedagogika universiteti) dialektologlarining ilmiy maktabi XX asrning 30-yillaridan o‘z tadqiqotlarini boshlagan. Mazkur ilmiy maktabda professor Said Usmonov, A‘zam Shermatov, Samixon Ashirboyev kabi olimlar faoliyat yuritishgan.

11. Farg‘ona (Farg‘ona, Namangan, Andijon DUlar) dialektologlarining ilmiy maktabi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 70-yillaridan Qo‘qon, Andijon, Farg‘ona shaharlaridagi institut va universitetlardagi dialektolog olimlarning faoliyatlarini birlashtirib, bugungi kunda ham amalda faoliyat ko‘rsatmoqda.

12. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dialektologlarining ilmiy maktabi. Mazkur ilmiy maktab XX asrning 80-yillaridan boshlanib, bugungi kungacha amalda faoliyat ko‘rsatmoqda. Unga filologiya fanlari doktori, professor Yo‘ldosh Ibragimov rahbarlik qilib kelmoqda.

13. Qarshi DU dialektologlarining ilmiy maktabi. Ushbu ilmiy maktab XX asrning 70-yillaridan boshlanib, bugungi kungacha amalda faoliyat ko‘rsatmoqda. Dotsent T. Qudratov, dotsent K. Usmonov, professorlar T. Nafasov va X. Jabborov va ularning shogirdlarining ishlari bu maktab faoliyati bilan bog‘liq.

14. Navoiy davlat pedagogika instituti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktabning shakllanishiga filologiya fanlari doktori, professor N. Murodova va uning shogirdlarining ilmiy tadqiqotlari zamin bo‘lgan.

15. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dialektologlarining ilmiy maktabi. Bu ilmiy maktab 2016-yildan boshlab rivojlanib kelmoqda. Bu yerda 2018-2019-o‘quv yilida 5A120105 - Folklorshunoslik va dialektologiya magistraturasining ochilishi ushbu ilmiy maktabning o‘ziga xos mahsulidir.

Bunday nomlangan magistraturaning ochilishi to‘g‘ri, chunki o‘zbek folklori materiallarining barchasi aslida dialektal matnlar ko‘rinishidagi dialektologik materiallarning bir qismi hisoblanishi ayni hayotiy haqiqatga mos keladi. Ushbu ilmiy maktabda f.f.d., professor Samixon Ashirboyev, f.f.d. Tolib Enazarov kabi dialektolog olimlar va talabalar ichidan chiqayotgan yosh dialektologlar faoliyat ko‘rsatishmoqda. Yosh dialektologlarning ilmiy anjumanlardagi faolligi

ancha kuchaygan va chet ellardagi ilmiy anjumanlarga ham o‘z maqolalarini jo‘natib, e‘lon qilib turishibdi.

“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYA”SIDAGI ILMIY MAKTABLAR

1. XI asrda Mahmud Koshg‘ariy asos solib, o‘zi boshchilik qilgan dialektologlarning ilmiy maktabi.
2. XII-XIY asrlardagi turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning ijodkorlar tomonidan amaliy qo‘llanishi ilmiy-ijodiy maktabi.
3. XY-XYI asrlarda eski o‘zbek adabiy tili amalda bo‘lgan vaqtda turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning amaliy qo‘llanishi faollashtirgan ilmiy maktabi.
4. XYII asrdan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrda ijodkor va lug‘atshunoslar yaratgan dialektal talqin ilmiy maktabi.
5. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda faoliyat ko‘rsatgan olimlarning dialektologik kuzatishlar ilmiy maktabi.
6. Turkiston unversiteti, keyinchalik ToshDU dialektologlarining ilmiy maktabi.
7. SamDU dialektologlarining ilmiy maktabi.
8. Xorazm dialektologlarining ilmiy maktabi.
9. O‘zR FA Til va adabiyot instituti dialektologlarining ilmiy maktabi.
10. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (keyinchalik shu nomdagi pedagogika universiteti) dialektologlarining ilmiy maktabi.
11. Farg‘ona (Farg‘ona, Namangan, Andijon DUlar) dialektologlarining ilmiy maktabi.
12. Nukus dialektologlarining ilmiy maktabi.
13. Qarshi DU dialektologlarining ilmiy maktabi.
14. Navoiy davlat pedagogika instituti dialektologlarining ilmiy maktabi.
15. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dialektologlarining ilmiy maktabi.

Bu ilmiy maktab 2018-yil 20-aprelda “O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari” nomli respublika anjumanini o‘tkazdi va jamoatchilik asosida tashkil etilgan “Sheva materiallarini yig‘ish qo‘mitasi” esa 2019-yilning mart oyida tashkil etildi. Bu qo‘mita 2020-yilda “O‘zbek shevashunosligi markazi” deb qayta nomlanib, rejadagi tadbirlarini o‘tkazishni boshladi. Natijada, ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tayyorlash ishlari boshlandi. Uni faqat dialektolog mutaxassislar va mablag‘ bilan ta‘minlash masalasini o‘ylab ko‘rish vaqti keldi.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, *“Metodologiya o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra, qanday yo‘nalish va maqsad(xususan, ilmiy maktablar va o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishning ilmiy metodologiyasi ham – ta’kid bizniki, T.Enazarov)ga qaratilganligidan qat’i nazar u keng jabhali katta kuch-qudrat manbaiga ega. Hamma gap bundan kim yoki kimlar qanday foydalana olishda. Metodologiya inson, davlat boshliqlari va olimlar faoliyatini uyushtirish, boshqarish tufayli fanda buyuk kashfiyotlar yuz beradi...”*¹

2.2. O‘ZBEK XALQ SHEVALARINI O‘RGANISHNING ILMIY METODOLOGIYASI (KONSEPSIYALARI) HAQIDA

Bilamizki, konsepsiya termini lotincha so‘z bo‘lib, *to‘plash, birlashtirish; tizim; ibora* ma‘nolarini anglatgan. Ushbu termin ayni vaqtda *qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli* degan ma‘nolarni ifodalaydi². Shuning uchun ham konsepsiya terminining o‘rniga uning ma‘nodoshi sifatida metodologiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Metodologiya (konsepsiya ilmiy tadqiqot nazariyasi biln bog‘liq. Shuning uchun har bir sohaning o‘z nazariyasi va nazariy asoslarining bo‘lishi tabiiy. Bu esa “O‘zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish nazariyasi” nomli metodologiya “O‘zbek dialektologiyasi” sohasi uchun nazariy asos bo‘lganligi tabiiy. Bu sohadagi ilmiy g‘oyalar majmui ilmiy konsepsiya yoki metodologiya terminlari ma‘nosida

¹ Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва тараққиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, O‘zbekiston, 2015. –В. 18.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2-том. –В.405.

oydinlashadi. Shunga muvofiq fandagi har bir davrning (nazariy) maqsadi bo‘lgani kabi metodologiyasi ham bo‘ladi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga baho berishning lozimligi. Hayotda hamma narsa hisobli bo‘lgani singari amalga oshirilgan har qanday narsa, xususan, ilmiy tadqiqot ishlariga ham odilona baho berilishi shartdir. Bu fikr ilm-fanga ham, iqtisodga ham birday tegishli. Shundagina kelajak uchun qilinayotgan ishlarga nisbatan xato va nuqsonli jarayonlar ro‘y bermaydi. Masalan, XX asrning 60-70-yillarida prof. A. G‘ulomov (shevashunoslik masalalarini faqat nazariy jihatdan biladigan olim)ning fikrlari asosida (ammo prof. M. Mirzayev¹, prof. F. Abdullayev² kabi sheva bilan unib ulg‘aygan dialektolog olimlarning fikrlari inobatga olinmagan) faqat leksik dialektal so‘zlarni to‘plash masalasi dialektologlarning asosiy maqsadi bo‘lib qolganki, shevalardagi dialektal so‘zlarning qolgan o‘nta turi o‘rganilmay, to‘planmasdan qolib ketganligi o‘sha davr uchun nuqsonli holat deb baho bera olsak, bugungi kundagi dialektologik va leksikografik tadqiqotlarimiz majmuida barcha dialektizmlarni jamlab, ulardan kerakli tadqiqotlarni amalga oshira olish mumkin bo‘ladi.

Metodologiya har bir sohaning ilm-fanda mavjudligini tasdiqlovchi qonun-qoidalar majmuidir. Shu o‘rinda falsafa fanini misol sifatida olishimiz lozim. Chunki u hayot va hayotdagi donolik haqidagi ta’rif, qoida va qonuniyatlarni o‘zida jamlab, bir necha ilmiy tarmoqqa bo‘linib ketadi. Xuddi shuningdek, nazariy fizika, nazariy grammatika, kazariy leksikografiya kabi bir necha yangi nazariy fanlar ham amalda shakllanib o‘qitilib kelinmoqda. Demak, nazariya qanchalik umumiy bo‘lsa, shunchalik xususiy hamdir. Sababi katta sohalarning albatta, nazariy ta’limotlari va ta’minotlari bo‘lgani singari kichik sohalarning ham nazariy qoidalari mavjudligini bugungni ilm-fan, texnika rivoji, taraqqiyoti asoslab turibdi. Shuning uchun ham ularning mazmunini aralashtirib yuborish hamda biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish yoki qo‘llash mumkin emas. U vaqt yoki davr o‘tishi bilan o‘zgarib, yangilanib turishi mumkin.

Albatta, o‘zgarib, yangilanib turish shu nazariy sohalarning yutuqlari, kashfiyotlari va amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining foydalilik koefitsenti ortishi bilan (yoki ularning rentabilligi ko‘payishi

¹ Мирзаев М. Дialektal сўзлар // Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент,1966. –Б.114-326.

² Абдуллаев Ф.А. Дialektal луғат тузиш принциплари // ЎТА. 1966.2-сони. –Б.35-41.

bilan) unda ma'lum bir o'zgarishlar bo'lishi aniq. Lekin uning amaliyoti bo'lmasa, u hayotda o'zining muhim muqim o'rniga ega bo'la olmaydi. Nazariya amaliyot bilan bog'lanmay qolsa, u hayot zarbalarida yemirilib tashlanadi. Xullas, nazariya amaliyotlar bilan bog'lanib turgandagina o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, balki doimo oshirib boradi.

Metodologiya esa fanga oid nazariyani yoki uning biror sohasini amaliy tadqiq etish va amaliy rivojlantirish usuli yoki yo'lidir. Yuqorida eslatilgan nazariyalar kabi *O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasi* ham mavjud bo'lgan, faqat nomlanmagan.

O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasi XX asrning 20-yillaridan to bugungi kungacha mukammallashib borgan. Albatta, bu nazariyani amaliyot bilan rivojlantirishda o'zbek dialektolog olimlarining hissaları katta bo'lgan. Bunga misol dialektal leksika masalasida olimlar ikki xil fikr bildirishgan:

1. A.G'ulomov va Sh.Shoabdurahmonov bilan hamkor olimlar ularning sof dialektizmlar bilan ishlash g'oyasiga yopishib olishgan. Natijada, dialektizmlarning sakkizta turi olimlarning e'tiboridan qolib ketganki, ularning hozirgacha o'rganilmay qolishga sabab bo'lmoqda.

2. Barcha dialektizmlarni jamlab, dialektal lug'atlar tuzish kerak degan olim(f.f.n., katta ilmiy xodim Ahmad Ishayev, ilmiy xodim Do'stmurod Abdurahmonov kabi)lar Mustaqim Mirzayev va Fattoh Abdullayev bilan hamkorlik qilishgan. Bu olimlar fikrlari o'sha vaqtda noto'g'ri deb aytilgan, amalda esa shu ikkinchi guruh olimlarining fikrlari to'g'ri bo'lib chiqdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bu fikrlar tirnoq ostidan kir qidirish yoki kimlarnidir tanqid qilish emas, balki amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilib, ularni beg'araz baholab, sohaning kelajakdagi ishlarida ushbu ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini diagnostikalashdir.

Dialektologiya, "O'zbek dialektologiyasi"ning nazariyasi va dialektologiya bo'yicha har bir davrning ilmiy nazariy konsepsiyasini dialektologik (diagnostika) kvalimetriya bilan oydinlashtirish lozim. Har bir davrning ilm-fanga hamda ishlab chiqarishga o'zining talablari, me'yorlari bo'lgani singari o'zbek dialektologiyasi sohasida ham qariyb (bir) ming yillik yoki o'n asrlik (1070-yildan to 2020-yilgacha bo'lgan) davrdagi dialektologiya bo'yicha "O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish nazariyasi" (u ikkinchi nom bilan ilmiy nazariy

konsepsiya ham deyiladi) bo‘lgan. Bu *o‘zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasining* mazmun-mundarijasini quyidagi kichik konsepsiyalar ko‘rinishlarida talqin va tadqiq etilishi maqsadga muvofiq:

1. Turkiy tilli xalqlar dialektologiyasining (o‘zbek dialektologiyasining ham) boshlang‘ich davri metodologiyasi XI asrda mashhur tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” nomli lug‘ati bilan boshlangan. Ushbu ilmiy nazariy konsepsiya Qoshg‘arda shakllangan.

2. XII-XIY asrlardagi turkiy-o‘zbek shevalari(dialektologiyasi)ning amaliy qo‘llash metodologiyasi.

3. XY- XYI asrda eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishiga asos bo‘lgan o‘zbek shevalarining ta’siri metodologiyasi g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning o‘zi shaxsan tuzgan lug‘ati va “Muhokamat-ul lug‘atayn”da hamda shoh va shoir Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ifodalangan. Bu ilmiy nazariy konsepsiya Hirot va Andijon shahrlaridagi ilmiy va ijtimoiy muhitda yuzga kelgan.

4. O‘zbek tilining faollashishiga asos bo‘lgan shevalarning o‘zaro munosabati natijasi metodologiya XVII asrdan XIX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan davrda amal qilgan. Mazkur ilmiy nazariy konsepsiyasi Qo‘qon, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi ilmiy maktablarda shakllanib, rivojlangan.

5. O‘zbek tilining boshqa tillar bilan munosabatga kirishishida shevalarning ta’siri metodologiyasi XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda amal qilgan.

6. Zamonaviy o‘zbek dialektologiyasini shakllanishiga imkoniyat va sharoit yaratib bergan metodologiya XX asrning 20-40-yillarda amal qilgan. Bunda professorlar I. I. Zarubin, K. K. Yudaxin, Y. D. Polivanov singari bir qancha rus turkologlarining hissasi katta. U Moskva hamda Toshkent shaharlaridagi ilmiy maktablarida kamol topgan. Natijada o‘zbek shevalarini ilmiy asoslarda o‘rganuvchi Toshkent shahri(ToshDU)da dialektologiya ilmiy maktabi shakllangan.

7.O‘zbek shevalarining materiallarini dialektal matnlar sifatida yig‘ib, o‘rganish metodologiyasi XX asrning 50-70-yillarida professor M.Mirzayev, professor F. Abdullayev, A. Shermatov¹ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijasida shakllangan va amal qilgan. Bu ilmiy

¹ Шерматов А. Ўзбек халқ шеваларидан текстлар. -Тошкент, 1975.

nazariy konsepsiyasi Buxoro, Toshkent va Xorazmdagi ilmiy maktablarda rivojlangan. Haqiqatan ham, dialektal matnlar bilan ishlash tayyorlangan ilmiy ishning va dialektologik lug‘atning saviyasi va ilmiyligini bemalol yuksak darajaga ko‘tara oladi.

8. Faqat sof leksik dialektal so‘zlar va ularning turlarilar bilan ishlash metodologiyasi XX asrning 70-80-yillarida prof. A. G‘ulomov¹ va akademik Sh. Shoabdurahmonovning fikrlari asosida (ammo prof. M. Mirzayev, prof. F. Abdullayev kabi sheva bilan unib ulg‘aygan dialektolog olimlarning fikrlari inobatga olinmagan) faqat sof leksik dialektal so‘zlar va ularning turlarilarni to‘plash masalasi A. S. Pushkin nomidagi Til va adabiyoti institutidagi dialektologlarning asosiy maqsadi bo‘lib qolgan. Shevalardagi dialektal so‘zlar va ularning qolgan turlari o‘rganilmay, to‘planmasdan qolib ketganligi bilan dalillanadi. Sababi, bu davrda sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar bilan ishlash jarayoni u yoki bu darajada kam, e‘tibordan chetda qolib ketgan dialektal so‘zlar va ularning turlarilarga munosabat esa umuman o‘zgarmagan. Natijada, haligacha shevalarimiz materiallari (sof dialektizmlar) asosida 1971 yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”dan boshqa lug‘at nashr etilmagan.

Bu dialektal so‘zlarni Sh.Rahmatullaev “dialektizm-so‘z” deb nomlagan². Mazkur ilmiy nazariy konsepsiya ToshDU va A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyoti institutidagi dialektologlarning asosiy maqsadi sifatida rivojlangan.

9. Shevaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari o‘rganish metodologiyasi XX asrning 60-yillaridan XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan davrda yaratilingan. Ushbu ilmiy nazariy konsepsiya Toshkent, Samarqand, Jizzax, Xorazm va Farg‘ona ilmiy maktablar faoliyatga asos bo‘lgan. Bu ilmiy maktablar faoliyatida professor Nazar Rajabov, professor Yusuf Jumanazarov, f. f. n. Masharif Safarov, dotsent Bosim To‘ychiboyev kabi dialektolog olimlar ilmiy ishlar olib borishgan.

10. Lingvogeografik tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasi ham XX asrning 80-yillaridan XXI asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrda maqola va monografiya tarzida yaratilgan bir necha ilmiy ishlarni o‘zida jamlaydi. Ushbu metodologiyani professor Azam Shermatov, dotsent Yoqub G‘ulomov, professor Abdug‘ani Aliyev,

¹Фуломов А.Ф. Дialektal lug‘at haqida // Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 4-сон. 14-бет.

² Qarang: Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Ташкент: Ўқитувчи, 1975. –Б. 49.

professor Samixon Ashirboyev, f. f. d., prof. Nigora Murodova kabi olimlar ilgari surishgan, o‘zlarining bir necha ilmiy ishlarni shu nazariy qarash asosida yaratishgan. Shu ilmiy nazariy konsepsiya (metodologiya) ga Toshkent ilmiy maktabini tashkil qilgan ToshDU, Nizomiy nomidagi PUda va Til va adabiyot institutida dialektologlarining faoliyatida asos solingan.

11. Sheva vakillaridan dialektal matnlarni yozib olib, ular asosida dialektal leksikografik tadqiqotlar uchun lug‘at maqolalari tayyorlash vositasida dialektal o‘quv lug‘ati hamda mukammal dialektal lug‘atlarni yaratish metodologiyasi XXI asrning 10-20-yillarigacha bo‘lgan davrdagi ilmiy ishlarni o‘zida jamlaydi. Ushbu ilmiy nazariy konsepsiyasini “O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari” nomli davomli ilmiy maqolalari bilan f. f. d. Tolib Enazarov ilgari surgan. Bu ilmiy nazariy konsepsiya (metodologiya) siga Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida 2017-2018-o‘quv yilida asos solingan. Mazkur nazariyaning mazmun-mohiyatini Samarqand ilmiy maktabi vakillari (professor Suyun Karimov, professor Jo‘liboy Eltazarov¹ va boshqalar) qo‘llab quvvatlashgan.

12. O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha bugungi kungacha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini odilona baholash hamda sohaning kelajagi uchun ularning kerakligini diagnostikalashda dialektologik kvalimetriya metodologiyasi yuzaga kelgan. Bu ilmiy nazariy konsepsiya oldingi ilmiy nazariy konsepsiyalar zaminida shakllangan. Ushbu metodologiyaga ham Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasida 2016-2018-yillardagi ilmiy bahslar davomida asos solingan. Mana shu bahslar natijasida 2018-yilning sentabrida “Folklorshunoslik va dialektologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura ochildi.

13. Shevalar leksikasini dialektal matnlar asosida tadqiq etish metodologiyasi “O‘zbek dialektologiyasi” sohasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlarga dialektologik kvalimetriya talablari asosida qaralsa, sohaning ko‘p masala va muammolari yakun topmaganligini ko‘rish mumkin. Masalan, tanqidiy tahlil asosida fikr yuritilsa, haligacha

¹ Элтазаров Ж. Ўзбек диалектологияси фанининг навбатдаги вазифалари ҳақида // Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017.-В.6-11.

shevalarimizning dialektal leksikasi va morfologiyasi to'liq o'rganilmagan. Shu sababli bu sohasidagi ilmiy kuzatishlar asosida shakllangan "Shevalar leksikasini dialektal matnlar asosida tadqiq etish" nomli yangi metodologiyani amalda qo'llash lozim.

Mazkur metodologiyada quyidagilar amalga oshiriladi: 1) "O'zbek dialektologiyasi" sohasining tadqiqi taraqqiyotiga tanqidiy va tahliliy munosabat bildirish; 2) shevaning darslik va qo'llanmalardagi ta'rifiga tanqidiy yondoshush; 3) dialektal so'z masalasi yoki dialektal so'z maqomi oydinlashtirib, dialektal so'z turlari masalasini ilmiy nazariy asoslab, yakunlash; 4) dialektal so'zlarni sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlardan ajratib olishning afzalligini ko'rsatish; 5) dialektal lug'at va *dialektologik atlaslar* tuzish masalasining dolzarbligini dalillash hamda ularni amalda bajarish.

Xullas, *O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish konsepsiyasi* metodologiyasining mazmun-mohiyatini har tomonlama yoritish uchun nisbiy holatda kichik konsepsiyalarga ajratib o'rganildi. Ammo bu masalani maxsus tadqiq etish lozim. Ayni vaqtda "*Dialektologik kvalimetriya*"ning me'yoriy vositalarida baholanishi hamda kelajakda soha rivoji uchun qo'llanish lozimligi shartmi yoki lozim emasligini diagnostikalash zaruriyati sezilmoqda. Ammo shu kungacha yuqorida eslatilgan dialektologik ilmiy nazariy konsepsiyalarning faqat birinchisigina dialektologik kvalimetriya bilan XX asrda har tomonlama mukammal o'rganilganligi nuqtai nazaridan baholanib, diagnostikalash amalga oshirilgan.

Aslida amalda bajarilgan dialektologik ilmiy tadqiqot ishlari ham xalqimizga tegishli ma'naviyat hamda ma'rifat sohasining bir bo'lagi sifatida e'tirof etilishi ularga "*Dialektologik kvalimetriya*" bo'yicha baholash hamda diagnostikalashga imkoniyat yaratib beradi. Buning uchun talabalar "*O'zbek dialektologiyasi*" fani va sohasi, shuningdek, kvalimetriya, dialektologik kvalimetriya haqida atroflicha bilim va tushunchaga ega bo'lishlari shart.

Oldinlari faqat dialektal so'zlardan sof dialektal so'zlarini savol-javob mazmunidagi anketalashtirish usuli bilan yig'ishga e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham XX asrning 40-70-yillarida sheva vakillari nutqidan yozib olinib, yig'ilgan dialektal matnlar tahlil va talqinsiz, ya'ni o'rganilmasdan kitoblarda va qo'lyozmalarda qolib ketgan. Shuningdek, dialektal so'zlarning asosiy qismlaridan biri bo'lgan onomastik birliklar, ya'ni xalq tilida faol qo'llanadigan atoqli

otlar va joy nomlari oldin dialektal soʻzlar hisoblanmagan. Ayni vaqtda xalq vakillari qoʻllaydigan barcha soʻzlar, aniqrogʻi, dialektal soʻzlarning oʻnta turi (ular quyiroqda berilgan) hamda mavjud barcha nomlar dialektal soʻzlar ekanligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab bergan.

Hozirgi vaqtda sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektologik matnlar asosida sheva materiallarini yigʻish, jamlash, tavsiflashu tasniflash boʻlishi maqsadga muvofiq. Dialektal matnlar va soʻzliklarda nafaqat sheva soʻzlari, shular bilan birga xalq ongiyu dili va tilidagi maʼnaviyat, maʼrifat, madaniyatga tegishli bilim, malaka hamda tajribalar oʻz ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur sohada talabalar emas, balki dialektal soʻzlarning maʼno majmuini tahlqinu tahlil eta oladigan magistrLAR, magistr darajasidagi mutaxassislar, yetakchi mutaxassislar, dotsent va professor hamda endigina ilmiy ishini boshlagan tadqiqotchilar faoliyat olib borishlari oʻrinli. Shuning uchun ham bu sohada “Dialektologik ekspeditsiya” dialektologik tadqiqotlar markazi bilan kelishgan holda yilning istalgan davrida oʻrganilayotgan hududda olib borilishi oʻrinlidir.

Ayni vaqtda Til, adabiyot va folklor institutida dialektologiyadan tadqiqot olib boradigan olimlar faoliyat koʻrsatayotgani yoʻq. Shu kungacha dialektal soʻz masalasi har tomonlama mukammal ochib berilmagan. 1971-yilda nashr etilgan “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”dagi *dialektal soʻzlar* sof dialektal soʻzlar (professorlar Ayub Gʻulomov va Shonazar Shoabdurahmonov) nuqtai nazaridan saralab olingan.

Albatta, sheva vakillari bormi, demak, nutqda bir qancha soʻzlar dialektal maʼnoda ham qoʻllanadi. Hozirgacha sof leksik dialektal soʻzlar oʻrganilgan, xolos. Qolgan dialektal soʻzlar esa xalq shevalarida turganicha qolmoqda...

2.3.OʻZBEK XALQ SHEVALARINI ILMIY VA AMALIY TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI (KONSEPSIYASI)

Men shevalarimizni oʻrganish boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni tanqidiy oʻrganib, “Oʻzbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq yetish konsepsiyasi (metodologiya)”ni tayyorladim. Unda shevalarimizni ilmiy va amaliy oʻrganishning asosiy masalasi endi faqat sof leksik dialektal soʻzlargagina yopishib qolmasdan, balki avval dialektal matnlarni yozib olish zarurligini asoslashga harakat qildim. Bu matnlarni transkripsiya qilib, bir butun holda nashrga tayyorlagandan

so'ng undagi dialektal so'zlarni qidirib, topib, ularga lug'at maqolalar yozish kerak. Talabalarning har tomonlama mukammal bilimga ega bo'lishlari uchun yangi fikr sifatida shu konsepsiya masalasini ilgari surdim. Chunki prezidentimiz Sh. Mirziyoyev *“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”*, deb bekorga gapirmagan.

O'zbek shevashunosligi masalalari ilgari surilgan bir paytda, ya'ni XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo'lgan davrdagi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar qattiy bir tartibda olib borilmagan, to'g'rirog'i, tadqiqotchilarning tashabbuslari asosidagi tadqiqot faoliyati vositasida, stixiyali tarzda olib borilgan. Bu haqidagi fikr-mulohazalar hozir birinchi marta aytilayotgani yo'q, balki bundan o'ttiz besh yil oldin ham o'zbek dialektologlaridan biri Do'stmurod Abdurahmonov tomonidan aytilib, maxsus ilmiy ishda ta'kidlangan¹. Hozirgacha lahjalarimiz hamda ko'p shevalarimiz o'rganildi, ammo bir qancha shevalarimiz o'rganilgani yo'q. Shuningdek, o'rganilgan shevalarning yozib olinayotgan dialektal materiallarida ham keyingi yillarda taraqqiyot tufayli ma'lum bir fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ro'y bergan bo'lishi tabiiy hol, ya'ni mavjud shevalarni yana bir boshdan o'rganish masalasi kun tartibida turib qoldi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

XX asrning 50-yillaridan bugungi kungacha o'tgan vaqt sal kam yetmish yilni tashkil yetmoqda. “O'zbek shevashunosligi” sohasida faoliyat ko'rsatgan olimlardan E. D. Polivanov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, F. Abdullayev, A. Aliyev, A. Shermatov, B. Jo'rayev, X. Jo'rayev, T. Almamatov, S. Atamirzayeva, Sh. Afzalov, A. V. Baskakov, N. Rajabov, M. Mirzayev, Yu. Bobojonov, M. Bo'ronov, M. Valiyev, Shonazar Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, Yu. Jumanazarov, Ahmad Ishayev, Tohir Sodiqov, Shukur Nosirov, Do'stmurod Abdurahmonov, Yoqub G'ulomov, Karim Nazarov, Vahob Egamov, Mashkura Turopova, Lola Karimova, Qosimjon Muhammadjonov, Nigora Murodova, Abdumurod Mamatov, Aziz Jo'rayev, M. Begaliyev, X. Jo'rayev, B. To'ychiboyev kabi dialektolog olimlarning

¹Bu haqida maxsus maqola yozilgan, qarang: Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент: Фан, 1985. –В. 248-271.

shevalarimizni o‘rganish bo‘yicha o‘zlarining ilmiy tadqiqotlariga mos holda tuzilgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlangan maxsus so‘roqliklari bo‘lgan. Ammo ularning so‘roqliklarini bugungi kunda bir butun holda ishlatib bo‘lmasligi ham tabiiy holligini inobatga olib, biz “Dialektologik amaliyot so‘roqligi”ga ham qisman bo‘lsa ham “O‘zR hududidagi o‘zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq yetish konsepsiyasi” nomli konsepsiyamni singdirdim.

O‘ylab ko‘ring, turkiy xalqlar ichida o‘zbeklar eng ko‘p shevaga va yeng salmoq miqdorga ega bo‘lsa-da, ammo “Ўзбек халқ шевалари луғати” 1971-yilda nashr etilganicha qolmoqda. Uning yarmi Ahmad Ishayevning “Qarindosh-urug‘ nomlari” lug‘atidan iboratki, shevalarimizning bu lug‘ati qanchalik qashshoqligini tasavvur etavering¹. Chunki dialektal matsiz dialektal so‘z turlar to‘g‘risida ish olib borilgan. Bizningcha, dialektologik tadqiqotlar quyidagicha tarzda olib borilishi shart: *dialektal amaliyotlarga qatnashish + ustoz rahbarligida dialektal matn va dialektizmlarni yig‘ish + dialektal matn + dialektalizmlar + dialektal lug‘at maqolalar tuzish + dialektal lug‘at maqolalarni nazorat qilish, tekshirish + lug‘at maqolalarni yakunlash + ularni nashrga topshirish* tarzida olib borish kerakdir

Tasavvur qiling, ayni vaqtda talabalar tugul olimlar ham negadir umumiste‘mol so‘zlari bilan dialektal so‘zlarni farqlashmaydigan holga kelib qolishgan. Dialektal so‘zlarni farqlaydigan tamoyillarni ishlab chiqish uchun ham shevalar va lahjalarimiz to‘liq o‘rganilgan holda bunday so‘zlarning anchagina jamlanmasi bo‘lishi kerakligi ushbu qollanmaning yaratilishiga ilk turtki bo‘ldi. Keyingi turtki yesa bo‘lajak filologlarni “Dialektologik amaliyot”ga tayyorlash mas’uliyatidir.

Odatda, dialektal so‘zlar bir necha xil bo‘lishini e‘tiborga olib, turli dialektal lug‘atlar tuzish uchun mukammal ko‘rsatmali (dialektal leksikografik) qo‘llanmalar tayyorlashni amalga oshirish lozim². Ular uchun mukammal ko‘rsatmali qo‘llanmalar tayyorlansa, bunday dialektal lug‘atlarni turli mavzularda yaratish ham mumkin.

Har bir davrning me‘yor va tamoyillari, ya‘ni o‘z talablari ham bo‘lgani singari shevalarimizni o‘rganish jarayonida ham o‘ziga xos me‘yor va tamoyillar mavjudligini hisobga olish lozim bo‘ladi. Shunday

¹ Bu holatlarni bilishimning sababi shuki, Til va adabiyot institutining “Dialektologiya” bo‘limida bir muddat ishlab, u yerdagi ilmiy hamda noilmiy bahsu munozaralarning ma‘lum qismini ko‘rib, eshitganman.

² Bu haqida qarang: Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси.-Тошкент: Фан, 1990.

talablardan biri shevalarimizni tadqiq yetuvchi tajribali va bilimli filolog mutaxassislarni tayyorlab yetishtirish bo'lsa, ikkinchisi esa sheva materiallarini yozishga oid bo'lgan transkripsiyani talaba, magistrant va tadqiqotchilarga singdirish hisoblanadi. Quyida shevalarimizning dialektal jihatdan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan leksik, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlar saqlangan sheva materiallarini yig'ish so'roqligini bayon qilamiz.

Mana shu maqsaddan kelib chiqqan holda “*Dialektologik amaliyot*”ning quyidagi vazifalari bor¹:

1. Talabalarga o'rganilayotgan sheva vakillari bilan shevani o'rganish uchun maxsus tuzilgan savollar majmui asosida suhbatlashishning malaka va ko'nikmasini berish hamda talabalar sheva vakillarining nutqini yozib olib, transkripsiyada qayta yozish malakasini shakllantirish va kuchaytirish.

2. O'rganilayotgan (har bir) shevaning alohida xususiyatlari borligini amalda tushuntirish, singdirish va tadqiq etilayotgan (har bir) shevaning fonetik xususiyatlarini sheva materiallari asosida asoslash.

3. O'rganilayotgan (har bir) shevaning leksik-semantik xususiyatlarini sheva materiallari asosida ko'rsatish bilan shu shevaning leksik xususiyatlariga tegishli misollar vositasida kichik hajmli dialektal lug'atlarga materiallar yig'ish.

4. Tadqiq yetilayotgan (har bir) shevaning so'z yasalishiga xos xususiyatlarini sheva materiallari asosida dalillash uchun shu shevaning so'z yasalishiga tegishli dialektal misollarni to'plash hamda tadqiq yetilayotgan (har bir) shevaning morfologik xususiyatlarini sheva materiallari asosida bayon yetish vositasida uning sintaktik xususiyatlarini dialektal matn va materiallar asosida dalillab ko'rsatish.

5. Sheva vakillari nutqida qo'llangan ko'p so'zlarning adabiy tilda qo'llanmasligini sheva so'zliklari (dialektal so'zlar) asosida asoslash va bir shevani ikkinchi bir sheva bilan qiyoslab o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish.

6. O'rganilayotgan shevada oldin bo'lmagan, ammo ayni vaqtda (agar bo'lsa) xos bo'lgan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni talqin etish uchun dialektal materiallarni to'plash.

¹ Эназаров Т.Ж., Абдуллаев Х.Т. Дialeктологик амалиёт сўроқлиги. –Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2018. –Б.3-20.

7. Shevalar milliy tilimizning asosi yekanligini talabalar tushunishi hamda ular ko'nglida shevalarga nisbatan hurmat hisini kuchaytirish.

“*Dialektologik amaliyot*”da yozilgan materiallar har bir talabaning “*Dialektologik amaliyot daftari*” (“*Dialektologik amaliyotning dala daftari*”)da transkripsiya bilan qayd etilib, sharhlanishi va “*Dialektologik fond*”ga topshirishlari shart.

Talabalar o'z shevasi materiallarini o'rganish maqsadida shu sheva vakillarini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzularda so'z ochish uchun aytilgan gaplarni transkripsiya va oddiy konspekt yozuvida yozib olishni o'rganish o'rinli bo'ladi. Buning uchun oldin o'z kursdoshlarining nutqini yozib olishni mashq qilib ko'rish shart. Sheva vakillari nutqini yozish olish mashqlari yaxshi o'tsa, keyin quyidagi mavzularda suhbatlashish jarayonini tashkil yetish kerak. Buning uchun ikki talaba sheva vakilini mavzuga oid fikrlashib, so'zlashga da'vat yetadi, ikki yoki uchta talaba sheva vakillarining nutqini yozishni boshlashadi. Bunda birinchi talaba shevada gapirayotgan odamning uchta gapini yozib olsa, keyingi talaba 4-,5-,6-gaplarni yozib oladi. 7-, 8-, 9-gaplarni esa birinchi talaba yozadi. Va shu tarzda sheva vakillarining aytilayotgan fikrlari birma-bir yozib olinadi. Sheva vakillari bilan o'tkazilgan suhbat quyidagi mavzularda uyushtirish mumkin:

1. O'rganilayotgan qishloq shevasi vakillarining qaysi o'zbek lahjasining guruhiga mansubligi va ushbu hudud tarixi to'g'risida ma'lumotlarni so'rash.

2. Sheva vakillarining o'ziga xos urf-odatlarini birma-bir yozib olib, qishloq vakillarining o'ziga xos milliy va madaniy qadriyatlarini matnlar sifatida yozib olib, izohlash.

3. O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko'rsatish. Sheva vakillarining o'yinlarining, shu jumladan, o'g'il va qiz bolalarning o'yinlarining nomini yozish.

4. Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarining nomlarini yozib, xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd yetish hamda aholi nutqida uchraydigan xalq qo'shiq, terma va ertaklardan namunalarni, tabiatdagi turli hodisalarni izohi berilgan dialektal matnlarni yozish.

5. Dehqonchilik va chorvachilik muammolarini sheva vakillari nutqidan matnlari sifatida yozib olish.

6. Qishloq vakillari shug'ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar yig'ib, hududdagi to'y-tomoshalar va ularni sheva vakillari qanday o'tkazilishini dialektal nutq namunasi asosida izohlash.

7. Shu kunning muhim voqealariga sheva vakillarining munosabati bilib, ularning tarjimai holi so'rash hamda kasbini so'rash.

Sheva vakillaridan dialektal so'zlar haqida ma'lumot olingandan so'ng yoki undan oldin axborotchilar haqida ma'lumotlarni yozib olish kerak bo'ladi. Aks holda sheva vakillari beriladigan savollarga to'liq javob bermasligi mumkin. Sheva vakillari to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shartli ravishda pasport yoki ma'lumotnoma deyish mumkin. Shunda sheva haqida ma'lumot beruvchining nomi ham to'plangan sheva materiallari kabi sanasi ko'rsatilgan holda saqlanadi, kitob va lug'atlarda ham berilishi mumkin bo'ladi. Bu yesa sheva materiallaridan ma'lumot beruvchilarga hurmat ko'rsatish shartligini ta'kidlab turadi. Masalan, sheva vakili haqidagi ma'lumotnomaning tartib raqami, masalan, 1-ma'lumotnoma deb olinsa, unda quyidagilarning bo'lishi lozim:

1. Sheva vakili yashayotgan viloyat nomini yozish, uni izohlashga intilish.

2. Sheva vakili yashayotgan tuman nomini qayd yetish va bu nomning ma'nosini izohlash. U yashayotgan qishloq kengashi nomi va u(lar) to'g'risida ma'lumotni yozib olish.

3. Sheva vakili yashayotgan qishloq, shahar yoxud posyolkasining nomini ham yozib ko'rsatib, sheva vakilining ismi-sharifi, agar bilsa, qaysi urug' va qabilaga mansubligini ham ko'rsatish o'rinli.

4. Sheva vakillarining tug'ilgan yillari aniq yoziladi. Ularning ma'lumoti, qaerlarda o'qigani, ishlagani haqida ma'lumotlar keltirilishi uchun shu mavzuda matnlarni yozish shart.

5. Sheva vakilining qaysi yozuvlarni bilishini uning nutqidagi fikr-mulohazalari bilan talqin qilib, sheva vakili ishlamagan bo'lsa ham, ularning hunari, kasbi-korini bilish uchun savollar berib, sheva vakilining kasbi hamda ish joyini yozib olish.

6. Shevaga oid materiallarni yig'ib olgan shaxsning, ya'ni talabaning ismi-sharifi qayd etib, sheva materiallari sheva vakillarining nutqidan talabalar tomonidan yozib olingan kun, oy va yil ham aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq.

Bitta sheva vakilidan bir necha marta dialektal materiallarni so'rab olish mumkin. Shuning uchun undan olingan materiallarni talqinini

asoslash uchun bitta pasport to'ldirilsa bo'ladi. Boshqa sheva vakillaridan material yozib olinganda esa, albatta, yangi tartib raqamli ma'lumotnomani to'ldirilishi shart. Bunday pasport ma'lumot beruvchi sheva vakillari haqida alohida-alohida holda tayyorlanadi va undan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

Dialektal so'z, leksik-semantik dialektal so'zlar, dialektal ma'no, dialektal etnografizm, dialektal frazeologizm, dialektal sinonimlar kabi qanchadan qancha ushbu sohaga oid tushuncha va terminlar haligacha o'rganilmasdan yotibdi. *Ena, momo, innakayin, shuytib, buytib, bub, bo'b, bo'la* kabi leksik, leksik-fonetik, leksik-morfologik dialektal so'zlar haligacha lug'atlarga kiritilmaganligi salbiy holat.

Dialektal matnlar asosidagi dialektal so'zlar quyidagi mavzular vositasida yig'ib olinadi: Shevalar fonetikasi, morfologiyasi, leksikaci va sintaksisi bo'yicha dialektal materiallar to'plash; shevalardan nomlarni yig'ish .

Bular asosida dialektal matnlarni yig'ish asosidagina dialektal lug'atlarni nashrga tayyorlash mumkin. Bu fikr men ilgari surayotgan "O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish konsepsiyasi"ning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Albatta, bu ishlar bitta odamning yoki bitta kafedra a'zolarining qo'lidan kelmaydi. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida ishlayotgan folklorshunos va dialektologlarning doimiy hamkorligi kerak bo'ladi. Sheva materiallarini saqlab qolish degani bu folklor materiallarini ham saqlab qolish demakdir.

"O'zbek dialektologiyasi" sohasida qilinmagan, ammo qilinishi lozim bo'lgan keng miqyosli tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati va imkoniyati yuzaga keldi. Sababi, hozirgacha bu fan va soha bo'yicha tanqidiy tahlil asosida o'rganilganda quyidagi ishlar qilingan (ammo ular bugungi ilm-fan talablari nuqtai nazaridan juda kam):

Albatta, adabiy tilning ichki boyish manbai bo'lgan "O'zbek dialektologiyasi" fanining buguni, ertasi va kelajagi to'g'risida ba'zi bir qaydlarning bayonini "O'zbek xalq shevalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish metodologiyasi" ko'rinishiga keltirish ancha murakkab jarayon...

O'zbek adabiy tili o'zbek xalq shevalaridan-da o'ziga kuch oladi, chunki sheva va lahjalar bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til o'lik til hisoblanadi. Shuning uchun sheva va lahjalar har

qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevori. U(lar) ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva, shevalar yig'indisi lahja terminlari bilan ataladi. Biz u(lar)ni sheva deb atashni o'rinli hisoblaymiz.

Ilm-fan sohasida eslanadigan quyidagi ibratomuz voqeaga e'tibor bersak. XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida ilmparvar va bag'ri keng alloma olim akademik To'rabek Dolimov universitetning moddiy mablag'i hisobidan ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun grantlar tashkil qilib, ilmiy sohalardagi sermahsul hamda ijodkor olimlarni rag'batlantirish yo'lidan borgandi. Masalan, O'zMU hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlangani uchun professor Sh. Rahmatullaev va boshqalar ishtirokidagi "O'zbek tilining qisqacha etimologik lug'ati" (1993-1997-yillar) va "O'zbek tilining etimologik lug'ati" tuzilgani yuqoridagi fikrimizga asos. Mana shunday homiylar bu sohaga ham kerak.

Ayni vaqtda To'ra Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek shevalari lug'ati" va Bosim To'ychiboyev, Qozoqboy Yo'ldoshyevning "Zomin so'zligi" nomli lug'at shaklidagi kitoblari¹ *o'zbek dialektal leksikografiyasi talablariga umumiy ma'noda amal qilingan bo'lsa-da, ularning* nashr yetilgani mazkur sohaning bugungi kundagi ye'tirof yetiladigan yutuqlari jumlasiga kiradi. Shu bilan birga ularda ham ba'zi bir o'rinlarda umumiylik va ko'p dialektal misollarda transkripsiyaga bo'ysunmaslik holati ko'zga tashlanib turadi.

Ayni vaqtda shevashunoslik bo'yicha shevalarning bebaho bo'lgan lug'aviy boyligini xalq vakillari nutqidan bittalab yozib olib, saqlab qolish uchun shevalardan yozib olingan bir qancha matnlarga asoslaniladigan yangi ilmiy tadqiqot va monografik ishlarni olib borish zaruriyati sezilmoqda. Chunki oldin, ya'ni XX asrni 20-80-yillarida o'rganilganda shevalarimiz hududiy jihatdan atroflicha holda to'liq tadqiq yetilmagani kabi olib borilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlarning to'g'riligini asoslab turuvchi matniy manbalar tadqiqotchilar tomonidan yaratilmagan, bunday matniy manbalar tadqiqotchilardan asosiy hujjat sifatida talab yetilmagan ham. Turli sharoit va sabablar tufayli o'sha vaqtlarda shevalarimiz tizimidan bir qancha shevalar ilmiy va amaliy jihatlardan o'rganilmasdan qolib ketgan!

XX asrning 20-yillaridan o'zbek shevalarini ilm-fanning zamonaviy talablari asosida o'rganish, tadqiq etish boshlangan va 80-

¹ Bu kitoblar yuqorroqda qayd etilgan.

yillarda bu ish ma'lum ma'noda yakunlangan. Ammo qariyb oltmish yil ichida, sho'ro davrida qilingan ilmiy tadqiqotlarni bir umumiy planda ko'zdan kechirsak, boshdan do'ppini olib o'ylab ko'rsak, quyidagilar ayon bo'ladi:

1) shahar tip, markaziy tumanlar, viloyat markazlariga tegishli shevalar ma'lum bir davrda artoflicha o'rganilgan, lekin keyinchalik ular e'tibordan chetda qolgan;

2) mamlakatimizning tog'li hududlariga oid bo'lgan shevalar o'rganilmagan. Bu fikrga isbot sifatida mamlakatimizning istalgan tog'li hududi aholisining shevasini olib kuzatsak, to'g'ri bo'ladi. Ularda alohida shevaviy holatni ham, oraliq shevaviy jarayonlarni ham, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarining o'zbek xalq shevalariga ta'sirlarini aniq kuzatib, bilish mumkin;

3) shahar va tuman markazidan uzoqda bo'lgan aholi punktlari shevalari esa ayni vaqtda ham umuman tadqiq etilmagan. Bizningcha, bu beg'araz tanqidiy fikrni aytish xato emas, balki ko'rsatilgan shevalarni hozirgacha tadqiq etilmaganligi xato sanaladi;

4) XX asrning 90-yillaridan boshlab bu sohada olimlarning va rahbariyatning e'tiborsizligi tufayli juda ham kam ilmiy ishlar amalga oshirilgan, xolos. Shuning uchun ham shevalarimizning bir necha tomli mukammal lug'atlari yaratilmasdan qolib ketgan, balki bittagina lug'at bilan kifoyalanib turibmiz, xolos. Sababi, mamlakatimiz hududidagi shevalar to'liq o'rganilmagani kabi dialektal lug'atlar tuzish talablari mukammal holatda tayyorlanmaganidir. Ya'ni shevalar stixiyali ravishda va "O'rganildimi? O'rganildi!" holatida tadqiq yetilgani kabi markaziy shaharlardan chetdagi hududlarning shevalari o'rganilmagan.

Dialektologik materiallarni yig'ish masalasi. Bu yerda uchta bahsli va dolzarb masalani ba'zilar o'zaro chalkashtirib tashlashgan va natijada dialektologik ekspeditseya masalasi kun tartibidan tushib qolmoqda. Bularni farqlash uchun ularning maqsad va vazifalariga qarash lozim: 1) dialektologik amaliyot masalasi; 2) dialektologik ekspeditseya masalasi; 3) dialektologik fond masalasi.

Dialektologik ekspeditseya masalasini quyidagi ko'rinishda hal qilish o'rinliroq:

a) dialektolog olimlarning nazorati va kuzatishlari asosida ilmiy ish olib boruvchilar va Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi magistratura yo'nalishi magistrilarigina o'rganilayotgan hududi Dialektologik koordinatsion kengashning "O'rganilayotgan sheva

hududlari” rejasiga kiritilgach, qat’iy tartibda va “Dialektal yekspeditsiya materiallarini yig’ish uchun tuzilgan so‘roqlik” asosida to‘planayotgani materiallarning ilmiyligini saqlagan holda jamlash yo‘lidan borilishi o‘rinli hol. Bunda sheva vakillari nutqidan yozib olingan matnlar transkripsiya qilinadi, matndagi gaplar tarkibida uchraydigan ma’nosi tushunarsiz bo‘lgan dialektizmlarga izoh berish yo‘lidan boriladi. Sheva vakillari nutqidan yozib olinadigan dialektal matnlarga mavzu va qo‘yiladigan talablar:

1) sheva vakillari (yeraklar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo‘lishi ma’qulroq: *“Ajodlarimiz”, “Adolat”, “Avlodlarimiz”, “Ajralish(lar)”, “Ayyorlik”, “Bog‘dorchilik”, “Baliqchilik”, “Baliq ovi”, “Bolalarimiz”, “Bo‘g‘doypoya”, “Baliqli taomlar”, “Bolalik”, “Bog‘lar”, “Bozor”, “Bozorlik”, “Behurmatlilik”, “Vaqt”, “Vaqt qadri”, “Vatanparvarlik”, “Vatanim - faxrim”, “Hunar”, “Kiyim”, “Kurash”, “Ko‘pkari”, “Keksalik foydasi”, “Kasbim”, “Kiyinish odobi”, “Kino”, “Yaxshi insonlar”, “Yaxshi insonlar”, “Yaxshilik va yomonlik”, “Gurung”, “Go‘zallik”, “Gulzor”, “Dasturxon”, “Yigitlar ko‘rki”, “Yigitlik odobi”, “Odob”, “Ona”, “Onalar”, “Omonlik”, “Odat”, “Odatlarim”, “Oila”, “Oilalar saodati”, “Oila tashvishi”, “Uy qurilishi”, “Uyimiz”, “Ustozlar”, “Umr”, “Umr daqiqalari”, “Uylanish”, “Zamondosh”, “Zamonaviylik”, “Zamonning qadri”, “Qishloq hangomalari”, “Qarilik”, “Qishloq odamlari”, “Qizlar odobi”, “Qadriyatlar”, “Qishloq kengliklari”, “Nevara”, “Non qadri”, “Dam olish”, “Dam olish oqshomi”, “Jo‘ralar”, “Do‘stlar”, “Do‘stlik”, “Suhbat”, “Sen va siz”, “Sadoqat”, “Sinfdozlar”, “Xotira kuni”, “Xotiralarim”, “Xasislik”, “Hurmat”, “Hurmat qilish”, “Chorvachilik”, “To‘y-tantana”, “Tarix”, “Tegirmon”, “Taomlar”, “Tog‘”, “Ta‘lim”, “Radio”, “Razolat”, “Rahmdillik”, “Rahmat”, “Mehr”, “Mevalar”, “Mehribonlik”, “Mehribonlik uyi”, “Matbuot”, “Motam”, “Motam marosimi”, “Muruvvat”, “Mustaqillik”, “O‘zbekiston ulug‘ diyor”, “O‘zbekona ruh”, “O‘lkam”, “O‘qish mashaqqati” va boshqalar;*

2) sheva vakillari (onaxonlar) nutqidan yozib olingan dialektal matnlar quyidagi mavzularda bo‘lishi ma’qulroq: *“Ayollar go‘zalligi”, “Ayollari gapi”, “Ayollar odobi”, “Ayol baxti”, “Ayollar qarg‘ishi”, “Ayollar shijoati”, “Ayollar qalbi”, “Ayollar go‘zalligi”, “Onalar go‘zalligi”, “Onalar didi”, “Onalar tili”, “Onalar e’tibori”, “Onalar so‘zi”, “Onalar g‘ami”, “Onalar yuragi”, “Onalar*

allasi”, “*Onalar ugiti*”, “*Onalar dardi*”, “*Onalar gapi*”, “*Onalar ibrati*”, “*Onalar tilagi*”, “*Onalar duosi*”, “*Ovqat pishirish usullari*”, “*Ovqat turlari*”, “*Onalar hurmati*”, “*Onalar mehnati*”, “*Onalar mehri*”, “*Onalik mehri*”, “*Ona(lar) matonati*”, “*Ona saodati*”, “*Onalar imkoniyati*”, “*Onalar sog‘inchi*”, “*Onasi bor qiz*”, “*Onasi bor yigit*”, “*Onasi bor kelin*”, “*Oila tashvishi*”, “*Go‘zallik ayollar nigohida*”, “*Mahmadona ayol*”, “*Sodda qiz*”, “*Soliha qiz*”, “*To‘y tashvishi*”, “*Kiyim g‘ami*”, “*Onalar suhbat ibrat maktabi*”, “*Uy tozaligi*”, “*Uy bezagi*”, “*Xonadon charog‘boni*”, “*Mehr ko‘zda*”, “*Bolalarga talpinish*”, “*Bolalar tashvishi*”, “*Keksalik ibrati*”, “*Kundosh*”, “*Kundoshli uy*”, “*Mehrli kelin*”, “*Mohir kelin*”, “*Mahmadona kelin*”, “*Mahoratli kelin*”, “*Iymonli kelin*”, “*Himmatli kelin*”, “*Himmatli ona*”, “*Himmatli ayol*”, “*Yerta turish hikmati*”, “*Yer bermoq - jon bermoq*”, “*Qarisi borning parisi bor*”, “*Qizi borning nozi bor*”, “*Qizlar odobi*”, “*Qizlar go‘zalligi*”, “*Qaynonali kelin*”, “*Qattiq qo‘l ayol*”) va boshqalar;

3) sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarning umumiy hajmi kompyuter yozuvida 180-200 sahifa va undan ortiq bo‘lishi mumkin;

4) sheva materiallari kimlarning nutqidan yozib olinganligi, ya’ni axborotchilarning ismi, familiyasi, tug‘ilgan yili, kasbi, ma’lumoti kabilar aniq ko‘rsatilib, sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar avval qoralamada yoziladi, so‘ngra transkripsion va adabiy shakllari kompyuter yozuvda berishi;

5) agar sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar she’riy (yor-yor, kelin salom, kuyov salom, hazil qo‘shiqlar, xalq qo‘shiqlari) holatda bo‘lsa, avval qoralamada yoziladi, so‘ngra transkripsion va adabiy shakllari kompyuter yozuvida bir qatordagi so‘zlar 3-4tadan oshmasa, bir sahifada ikki ustun qilib berilishi lozim yoki agar sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar she’riy holatda bo‘lsa, avval qoralamada yoziladi, so‘ngra transkripsion va adabiy shakllari kompyuter yozuvida bir qatordagi so‘zlar 5-6tadan oshsa, bir sahifada bir ustun qilib berilishi ma’qul;

6) sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarda uchraydigan sheva so‘zlarining yoniga havola belgilari qo‘yilib, varaqning pastida har bir so‘z adabiy shaklda izohlanishi kerak; sheva materiallari yozib olingan sheva qaysi viloyat hamda tumanning qaysi

hududidaligi ko‘rsatilib, shu shevaning nomi (agar bo‘lsa, uning oldingi nomi ham) yozilib, qaysi qishloq va mahallalarga kirishi qayd yetiladi;

7) sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar transkripsiyali va adabiy shakllari kompyuter yozuvda prenterdan chiqarilib, kafedra majlisida muhokama qilinadi. Agar sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar transkripsiyali va adabiy shakllari kompyuter yozuvda prenterdan chiqarilib, kafedra majlisida muhokamasidan ijobiy tarzda o‘tkazilgach, uning ikki nus‘hasi qattiq muqova qilingan holda kafedra mudiriga topshirilib, ishning topshirilganligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma olinadi;

8) kafedraning mas‘ul vakili sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarning transkripsiyali va adabiy shakllari kompyuter yozuvda (prenterdan chiqarilib), kafedra majlisida muhokamasidan ijobiy tarzda o‘tkazilganda uning ikki nus‘hasi qattiq muqova qilingan holdagi ko‘rinishini *dialektologik fond*ning maxsus materiallari sifatida ma‘lum bir hujjatlarda rasmiylashtiradi;

9) o‘zbek shevalarining dialektologik atlaslari haligacha tuzilmagan. Endigi vazifa o‘zbek shevalarining dialektologik atlaslarini rus va nemis dialektologlari tayyorlagan dialektologik atlaslarday tayyorlashimiz shart. Shevalarning dialektologik atlaslari sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar vositasida yaratiladi. Yuqorida tilga olingan ikki masala “*Dialektologik fond*”ni yaratish, shakllantirish lozimligini ko‘rsatib turibdi.

10) tadqiqotchilarning bu sohada tadqiqot olib borishlari esa “*Dialektologik ekspeditsiya so‘roqligi*” asosida o‘tgach, yig‘ib olingan dialektal materiallarning “Dala daftari”da berilishi yesa ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi. Ya‘ni bajarilayotgan ilmiy tadqiqotchilar to‘g‘ri va o‘rinli ravishda boshqarilsa, ma‘lum muddatda o‘zbek xalq shevalari qishloq, mahalla, guzar, tuman, viloyat doiralarida, va yana o‘rganilishi amalga oshib, oldingi ilmiy ishlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi hamda shevalarimizning turli nomdagi tomtom lug‘atlarini nashr yetish va xalq ommasiga yetkazish asosida adabiy tilimizni sheva so‘zliklari bilan boyitib borish an‘anasi yana ham kuchayardi;

Shu o‘rinda “*Shevalarimiz bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borish uchun tavsiya etiladigan ilmiy tadqiqot ishlarning mavzulari mavjudmi?*”-degan savol chiqadi. Albatta, bu masala ham ustozlar bilan birga o‘ylab ko‘rilgan.

Shu o‘rinda taklifimiz bor: Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “*Dialektologiya laboratoriyasi*” yoki “*Dialektologiya bo‘limi*” va yana “*Dialektologik fond*”ni ochish kerak. Yana o‘ylab ko‘rish lozim.

O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha mukammal dialektal lug‘atlarni tayyorlashga kerak bo‘ladigan vositalar haqida takliflar:

1. “*O‘zbek shevalarining lingvogeografik tadqiqi*” nomli ilmiy laboratoriyani zarur texnik vositalar va mutaxassis xodimlar bilan ta‘minlash lozim. Chunki shevalarni o‘rganish bo‘yicha biron bir laboratoriya hozirgacha to‘liq ishlamaganligini qayd etish lozim. Ammo Rossiyaning *Tambov universitetida tashkil yetilgan dialektologik laboratoriya faoliyati malakali mutaxassislar bilan shunchalik yaxshi tashkil yetilganki, uning amalga oshirgan ilmiy ishlanmalari ikki marta Davlat mukofotiga loyiq ko‘rilgan*¹. Shu bilan birga bu laboratoriya xodimlari ikki marta prezident GRANTiga sazavor bo‘lishgan yekan. Bizda ham shunday fidoyi dialektologlar borki, laboratoriyaning rejalashtirilgan ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun tinimsiz ishlashga ham ixtiyoriy holatda rozi. Chunki ular shu sohaning mutaxassisidir.

2. Bugungi kunda ko‘p tomli “*O‘zbek xalq shevalari lug‘ati*”ni tayyorlash uchun eng avvalo ularni tuzishda zarur bo‘ladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy talablar majmuini ishlab chiqish zarurdir. Mana shu jarayonning bajarilishi bilangina *bugungi kunda ko‘p tomli va bir necha nomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tayyorlashga kirishish* mumkin.

3. Bu sohasi muammolari tadqiqi bo‘yicha har ikki yilda tashkil etiladigan “*O‘zbek shevashunosligining dolzarb masalalarining ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman*”ni tashkil yetish zarur. Unda sohaga oid muammolar muhokama yetilib, ma‘lum bir qarorga kelinadiki, u dialektologiyaning dolzarb masalalarini tadqiq etishga, shu jumladan, dialektal lug‘atlarni tuzish masalasini oydinlashtirishga ham vosita bo‘lishi tabiiydir. Shu o‘rinda, dialektal lug‘atlarning 70 ga yaqin turini yaratish mumkin.

Shuningdek, achchiq haqiqat bo‘lsa hamki, aytish kerak: O‘zbek dialektologiyasi sohasi bo‘yicha ilmiy ishlarni rejalashtiradigan:

¹ filfak.kubsu.ru/index.php/fakultet/2012-12-26-13-57-09/uchebno-nauchnaya-laboratoriya-po-fonetike-dialektologii-i-rechevoj-kommunikatsii.

- na dialektologik koordinatsion kengash tashkil yetilgan;
- na dialektal fond tashkil yetilgan;
- na dialektal arxiv tashkil yetilgan.

Shevalarning bugungi dialektal boyligiyu betakror nufuzini monografiya, risola, darslik, o‘quv qo‘llanmalari va dialektal lug‘atlar kabi ilmiy hamda amaliy manbalarda saqlab qolishdan ojiz bo‘lib qolamiz. Buni tilimizga hurmatiyu muhabbati bo‘lgan har bir kishi umuman xohlamasa kerak. Chunki qadim tarix va abadiy qadriyatlariga ega bo‘lgan xalqimizda “*Sulton suyagini xo‘rlamas*” degan maqol bekorga aytilmagan. Sababi, bizning xalqimiz ham - tarixi zafarli, kelajagi ulug‘ va porloq xalqlardan sanaladi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa chiqargan holda bu fan va sohaning bugungacha bo‘lgan yutuq hamda kamchiliklarini tanqidiy planda o‘rganib chiqib, o‘zbek dialektologiyasining bugungi muammo hamda masalalarini tushungan hamkasblar daldasi bilan sohamizning dolzarb muammo va masalalarini o‘zida jamlagan ushbu innovatsion takliflarni yozishga kirishdik. Ular quyidagilardan iborat:

Respublikamiz doirasida dialektologik tadqiqotlar markazini tashkil etish kerak. Ehtimol, u yangidan tashkil etiladigan ilmiy tadqiqot instituti darajasida bo‘lishi mumkin va u Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Sababi, dialektologik ekspeditsiyalarni amalga oshirish bilan birga dialektolog mutaxassislarni ham tayyorlash lozim.

Tashkil qilingan dialektologik tadqiqotlar markazi ham ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘naltirishni va ilmiy ishlanmalarni markazlashtirilgan holda qabul qilishni boshqarish, ham ilmiy loyihalarning ta‘minotini o‘rganib, sheva vakillaridan yozib olingan va tahlil etilgan dialektal matnlarni nashr yettirish shart. Ushbu markaz 6(olti)ta ish o‘rniga ega bo‘lishi kerak.

2. Dialektologik tadqiqotlar markazida dialektal amaliyot va dialektal yekspeditsiyaning to‘plangan dialektal matnlarini qabul qilib oladigan dialektal fondni va bu fondning ko‘p yillik materiallarini saqlaydigan dialektal arxivni tashkil yetish kerak.

3. Lingvogeografik hududlardagi shevalarning dialektal matnlarini yozib, tahlil qilib, dialektal fondga topshiradigan ilmiy guruhni tashkil etish kerak. Mazkur ilmiy guruh dialektolog mutaxassislardan shakllantirilib, soha bo‘yicha qilgan ilmiy ishlari matni qabul qilingandan keyin markaz tomonidan har oyda moddiy mablag‘ berishni

yo'lga qo'yilish o'rinli. Bu ilmiy guruh a'zolari kamida 30-40 (o'ttiz-qirq) nafar bo'lishi rejalashtirilayotgan maqsadning bajarilishiga imkon beradi

4. Dialektal matnlarning to'g'riligini nazorat qilib, ularni dialektal fondga topshiradigan ilmiy guruhni ham shakllantirish uchun 6(olti) nafar mutaxassis faoliyat olib borishi shart.

5. O'zbek xalq shevalari vakillaridan yozib olinib, ilmiy tahlil etilgan dialektal matnlarning materiallari asosida dialektal lug'atlarning materiallarini tayyorlaydigan ilmiy guruhni shakllantirish shart. Bu ilmiy guruh vakillariga ham qilgan ishlarining sifatiga qarab soha bo'yicha tayyorlagan ilmiy ishlari matnlari qabul qilingandan keyin markaz tomonidan har oyda moddiy mablag' berishni yo'lga qo'yilish lozim. Mazkur guruh a'zolari ham 20 (yigirma) nafar dan kam bo'lishi mumkin emas.

6. Ko'p jildli "*O'zbek xalq shevalari lug'ati*" va boshqa dialektal lug'atlarni tuzish masalasi ham dolzarb masaladir. Bu masalani hal qilish uchun ham 10 (o'n) nafardan kam bo'lmagan a'zosi bor ilmiy guruhni shakllantirish lozim. Chunki haligacha "*O'zbek xalq shevalari lug'ati*" nomidagi bitta lug'at bilan qanoatlanib o'tiribmiz.

7. O'zbek shevalarining elektron dasturiy lug'atini yaratish: dasturiy ta'minot, dialektal baza, dialektal so'zlikning tahlilini yakunlash ((Yangiariq shevasi materiallari, Yangiariq shevasida joy nomlari))– bu ham murakkab jarayon, kamida 4(to'rt) nafar mutaxassis ishlashi lozim.

8. O'zbek filologiyasi yunalishi kabi "O'zbek dialektologiyasi" yo'nalishini tashkil etib, sohaga oid fanlarni (Masalan, "*O'zbek dialektologiyasi*" nomli bitta fanning o'rniga "*O'zbek dialektologiyasiga kirish*", "*Tarixiy dialektologiya*", "*Tavsifiy dialektologiya*", "*O'zbek dialektal leksikologiyasi*", "*O'zbek xalq shevalari leksikasi va leksikologiyasi*", "*Dialektal leksikografiya*", "*Qiyosiy dialektologiya*") o'quv redaga kiritish va o'qitish lozim. Mana shunga muvofiq holda, ammo ularni takrorlamay shu sohaning magistratura mutaxassisligiga "O'zbek dialektologiyasi"ning xususiyatlarini ochib beruvchi yangi fanlarni qo'yish maqsadga muvofiq.

9. "O'zbek dialektologiyasi" sohasi va fanini yanada rivojlantirish uchun mazkur sohada tayyorlangan ilmiy ishlarni himoya qilishga imkon beradigan ilmiy kengashni O'zR OAK roziligi bilan Alisher

Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida ochish shart. Albatta, soha bo‘yicha ilmiy ishlarni himoya qilish kengashi ochilsa, tadqiqotchilar harakatga tushishadi. To‘g‘ri, ko‘p tilshunos hamkasblarimiz o‘zlarini tug‘ma dialektolog deb, bilishadi. Lekin sheva va lahja terminlarining nima ifodalashidan nariga o‘tisha olishmaganiday adabiy til so‘zlari bilan sheva so‘zlarini farqlashmaydi ham. Chunki “*O‘zbek dialektologiyasi*” fani “*Hozirgi o‘zbek adabiy tili*”dan farq qilgani singari til ilmiga oid boshqa fanlar bilan dialektologiya ilmining maqsad va vazifalari jihatdan boshqa-boshqa sohalar ekanligi tabiiy hol. Shunda “*Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin*” degan sermazmunu serma’noli maqol esga tushaveradi.

Albatta, “*Nazariyasiz amaliyot bilan shug‘ullanayotgan kishi rulsiz yoki kompassiz kema haydovchisiga o‘xshaydi. Qayoqqa suzayotganini, ketayotganini bilmaydi*”¹. Shuning uchun “*O‘zbek dialektologiyasi*” sohasida haligacha amalga oshirilmagan ishlarni bajarish uchun dialektologiya metodologiyasiga tayanib jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham bu sohada shevalarning leksik boyligini saqlab qolish maqsadida yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni birlashtirgan holda keng miqyosli ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradiganlarni moddiy ta‘minot hamda moddiy texnik baza bilan ta‘minlash maqsadga muvofiq.

2.4. DIALEKTAL LUG‘ATLARNI TUZISH VA TAYYORLASH MASALASI

Dialektal lug‘atlarni tuzish adabiy tildagi so‘zlarni lug‘at qilib tuzishdan ancha murakkab jarayon. Ularning o‘ziga xos dialektal leksikografik talabi, me‘yori va qonuniyatlari bor. “*Ўзбек тили лексикологияси*” nomli kitobning “*Leksikografiya*” bo‘limining 293-299-betlarida “O‘zbek lug‘atchiligi tarixi” nomli sarlavha ostidagi matnda tarixda yaratilgan bir qator lug‘atlar sanab o‘tilgan². Ular o‘sha davrda yashagan turli sheva vakullari tomonidan yaratilgan. Mana shu lug‘atlarni biz dialektal lug‘atlar deyishga bir qancha dalillar bor. Sababi, 1956-yilgacha o‘zbek adabiy til me‘yorlari haqida gapirilmagan.

¹ Мамашокиров С. Экологик таълим-тарбиянинг методологик масалалари. –Тошкент: Нур, 1993. –В.5.

² Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –В. 293-312.

Demak, ular to‘g‘ridan – to‘g‘ri dialektal lug‘atlar ekanligi aniq. “Eski o‘zbek adabiy tili” istilohi esa Alisher Navoiy ijodiga nisbatan aytigan.

“Ўзбек тили лексикологияси”ning 309-betida dialektal lug‘atga quyidagicha tarif berilgan: “Dialektal lug‘at adabiy til boyligini o‘z resurslari hisobiga taraqqiy ettirish uchun material beruvchi manba sifatida dunyoga keltiriladi. Bunday lug‘at so‘zligida farq qiluvchi, shuningdek, adabiy tilda bo‘lmagan so‘zlar beriladi. Ular esa transkripsiyada qayd etiladi. So‘zlikdagi so‘z ketidan adabiy tildagi varianti beriladi. Masalan: Yazg‘y (Janubiy Xorazm) taqdir, qismat, qiladan, quma baxtim, yaazg‘yтым – qara baxтым (Maqol).

Ya:гы (Urganch, Xiva, Xonqa) yarim. Yaxshы niyat yары dolat (Maqol).

Bunday lug‘atlar ba‘zi bir ilmiy ishlar ketidan ilova sifatida beriladi. Unga biz F. A. Abdullanevning 1961-yil Toshkentda nashr etilgan “Хоразм шевалари” kitobidagi ilovani, S. I. Ibrohimovning “Фарғона шеваларида касб-хунар лексикаси” nomli lug‘atni ko‘rsatishimiz mumkin.

Umumiy dialektologik lug‘at esa kollektiv tomonidan faqat 1971-yilga kelibgina yaratildi va “Ўзбек халқ шевалари луғати” номи билан “Фан” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Mazkur lug‘at so‘zligi 12 mingga yaqin so‘zdan iborat. Uning old qismida so‘z boshi, lug‘atning tuzilishi prinsipi (qoidalari), ilmiy adabiyotlar ro‘yxati uchun 8 bet ajratilgan. Oxiridagi 21 beti esa Sh. Shoabdurahmonovning o‘zbek shevalarini o‘rganishga bag‘ishlangan maqolasidan iborat.

Odatda, dialektal so‘zlar bir necha xil bo‘lishini e‘tiborga olib, turli dialektal lug‘atlar tuzish uchun mukammal ko‘rsatmali ko‘rinishidagi dialektal leksikografik qo‘llanmalar tayyorlashni amalga oshirish lozim. Chunki dialektal lug‘at(lar) tuzishda o‘zbek xalq shevalarining leksik xususiyatlarini ma‘lum darajada qamrab olish vazifasi qo‘yiladi.

*“Mohiyatan, metodologiya uzoqni yaqin, qiyinni oson, mavhumni aniq qiladi, harakatni to‘g‘ri yo‘lga soladi. Shuningdek, u maqsadni almashtirib, to‘g‘ri belgilaydi va uning samara topishiga yordam beradi. Qancha fanlar va qancha insoniy aqliy faoliyat turlari bo‘lsa, shuncha xususiy va umumiy metodologiyalar ham bor”*¹. Mana shu ma’noda faqat Ahmad Ishayevning “Ўзбек диалектал

¹ Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва таракқиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, O‘zbekiston, 2015. –В. 18.

лексикографияси” nomli monografiyasi bor¹. Chunki dialektal lug‘atlar tuzish uchun mukammal dialektal lug‘an tuzishning talab va me‘yorlaridan iborat bo‘lgan ko‘rsatmali qo‘llanmasiz tayyorlangan lug‘atlar qo‘lyozma darajasida bo‘ladi. Agar shevalar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlariga e‘tibor berilsa, “1988-yilgacha o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha himoya qilingan 56 ta kandidatlik dissertatsiyalaridan faqat to‘rttasigina leksikaga bag‘ishlangan”².

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlarning tahliliga tayanilgan holda tuziladigan dialektal lug‘at(lar) ikki xil holatda bo‘lishi mumkin. Biri umumiy dialektal lug‘at, ikkinchisi esa shu dialektal lug‘atning o‘quv lug‘ati, masalan: 1) leksik-fonetik dialektal lug‘at; 2) leksik-fonetik dialektal o‘quv lug‘ati. Albatta, oldin o‘quv lug‘ati tayyorlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “O‘zbekiston toponimlarining etimologik lug‘ati” nomli o‘quv lug‘ati yakunlanib, nashr qilindi. “O‘zbek shevalari frazeologizmlarining o‘quv lug‘ati”ga dialektal materiallar to‘planmoqda.

To‘plangan dialektal matnlardan dialektal so‘zlarni ajratib, tavsif va tahlil etilgan dialektal matnlarning lingvoma’naviy va lingvomadaniy tahlilida ajratilgan dialektal so‘zlar dialektal lug‘atlarning quyidagi turlarini yaratish mumkin. Ular quyidagilar³:

- 1.Sof dialektal lug‘at (bu ko‘p tomli lug‘at bo‘ladi)
- 2.Morfologik dialektal lug‘at.
- 3.Morfologik dialektal o‘quv lug‘ati.
- 4.Leksik-derivatsion dialektalizmlar lug‘ati.
- 5.Leksik-derivatsion dialektalizmlarning o‘quv lug‘ati.
- 6.Leksik-fonetik dialektal lug‘at.
- 7.Leksik-fonetik dialektal o‘quv lug‘ati.
- 8.Dialektal frazeologik lug‘at.
- 9.Dialektal frazeologizmlarning o‘quv lug‘ati.
- 10.Leksik-semantik dialektal lug‘at.
- 11.Leksik-semantik dialektal o‘quv lug‘ati.
- 12.Etnografik dialektal lug‘at.
- 13.Etnografik dialektal o‘quv lug‘ati.

¹ Bu haqida qarang: Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси.-Тошкент: Фан, 1990.

² Ишаев А. Сўзбоши // Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1991.-В.3-4.

³ Berilgan lug‘atlarning ko‘p qismini mavjud dialektal materiallar bilan tuzsa bo‘ladi, ba’zilarini esa o‘zbek xalq shevalari to‘liq o‘rganilgandan keyingina tuzish mumkin. Shuning uchun bu yerda lug‘atlarning to‘liq miqdorini keltirdik. Ehtimol, ularning miqdori yana ham ortishi mumkin.

- 14.Chappa dialektal lug‘at.
- 15.Chappa dialektal o‘quv lug‘ati.
- 16.Dialektal sinonimlar lug‘ati.
- 17.Dialektal sinonimlarning o‘quv lug‘ati.
- 18.Dialektal omonimlar lug‘ati.
- 19.Dialektal omonimlarning o‘quv lug‘ati.
- 20.Dialektal antonimlar lug‘ati.
- 21.Dialektal antonimlarning o‘quv lug‘ati.
- 22.Dialektal paronimlar lug‘ati.
- 23.Dialektal paronimlarning o‘quv lug‘ati.
- 24.Dialektal laqablar lug‘ati.
- 25.Dialektal laqablarning o‘quv lug‘ati.
- 26.Badiiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
- 27.Badiiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 28.Tarixiy mavzudagi badiiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
- 29.Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 30.Tarixiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
- 31.Tarixiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 32.Dramatik asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 33.She‘riy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 34.Nasriy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
- 35.Fol‘klor asarlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
- 36.Maxsus dialektizmlarning (toponimik) o‘quv lug‘ati¹.
- 37.Maxsus dialektal (toponimik) lug‘at.
- 38.Maxsus dialektal (antroponimik) lug‘at.
- 39.Maxsus dialektizmlarning (antroponimik) o‘quv lug‘ati.
40. Dialektal maqollarning o‘quv lug‘ati.
41. Dialektal maqollar lug‘ati.
- 42.Dialektal qarg‘ishlar lug‘ati.
- 43.Dialektal tez aytishlarning o‘quv lug‘ati.
- 44.Dialektal tez aytishlar lug‘ati.
- 45.Zoonimlarning o‘quv dialektal lug‘ati.

¹Dialektologik lug‘atlar sirasiga onomastikaga bag‘ishlangan lug‘atlar ham kiradi, chunki nomlarni xalq vakillari ishlatadi. Bu esa nomshunoslikka oid materiallarning ham dialektologik materiallar jumlasiga kiritish to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi: Qarang: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. -Наманган, 2006. 103 б. Бегматов Э.Ўзбек исмлари. 14600 исмлар изоҳи.-Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. 606 б.

46. Zoonimlarning dialektal lug‘ati.
47. Ortotonim(qush nom)larning o‘quv dialektal lug‘ati.
48. Ortotonim(qush nom)larning dialektal lug‘ati.
49. Fitonimlarning dialektal o‘quv lug‘ati.
50. Fitonimlarning dialektal lug‘ati.
51. Dialektal qo‘shimchalarning o‘quv lug‘ati.
52. Dialektal qo‘shimchalarning lug‘ati.
53. Dialektizmlarning etimologik lug‘ati.
54. Dialektizmlarning etimologik o‘quv lug‘ati.
55. Xalq dostonlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
56. Xalq dostonlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
57. Xalq maqollaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
58. Xalq allalaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
59. Xalq allalaridagi dialektizmlar lug‘ati.
60. Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
61. Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
62. Xalq ertaklaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
63. Xalq ertaklaridagi dialektizmlar lug‘ati.
64. Xalq lirik qo‘shiqlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
65. Xalq lirik qo‘shiqlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
66. Askiyalardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
67. Askiyalardagi dialektizmlar lug‘ati.
68. Loflardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
69. Loflardagi dialektizmlar lug‘ati.
70. Konchilik terminlarining dialektal o‘quv lug‘ati.
71. Konchilik terminlarining dialektal lug‘ati.
72. O‘zbek dialektologiyasi terminlarining o‘quv izohli lug‘ati.
73. O‘zbek dialektologiyasi terminlarining izohli lug‘ati.
74. O‘zbek shevalarining o‘quv elektron dasturiy lug‘ati.
75. O‘zbek shevalarining elektron dasturiy lug‘ati.

Bunday lug‘atlarning har biri bitta ilmiy loyihaga asos bo‘lishi mumkin. Ammo sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar majmuisiz bunday miqyosi keng va katta ishlarni, xususan, dialektal lug‘atlarni tayyorlab bo‘lmaydi.

Endi “O‘zbek dialektologiyasi” tarixi yangi sahifasini ochishi kerak, ya’ni bu sohada tayyorlab, amalga oshiriladigan ilmiy loyihalar, albatta, dialektal matnlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Va yana quyidagi “O‘zbek xalq shevalarining dialektologik atlaslari”ni yaratish ham sheva

vakillaridan yozib olingan dialektal matnlarsiz hamda ularning mukammal tahlillariz amalga oshirib bo'lmaydi: 1) O'zbek shevalarining o'quv dialektologik atlaslari; 2) o'zbek shevalarining dialektologik atlaslari; 3) o'zbek shevalarining mukammal dialektologik atlaslari. Buning uchun sheva materiallarini dialektal matnlar sifatida yozib olishga mo'ljallangan transkripsiya masalasiga e'tibor qaratish shart bo'ladi: *“Применение единообразной транскрипции позволит улучшить постановку диалектологической работы в Узбекистане, дальнейшей развитие которой должно быть подчинено основной задаче – созданию Диалектологического атласа народных узбекских говоров. Большой опыт, накопленный в этой области русскими диалектологами братских республик, в первую очередь тюркоязычных позволяет вести лингвогеографические исследования на должном научном уровне”*¹. Ushbu fikr XX asrning 50-yillarida yozilgan. Bizningcha, transkripsiya masalasida bitta transkripsiyaga qotib qolmaslik kerak. Shevalarning dialektal leksikasi materiallarini to'liq yig'ib olish uchun rus-krill alifbosi va lotin alifbosiga asoslangan transkripsiyalardan tadqiqotchilarning tushinib, yozish imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda foydalanish o'rinlidir.

Yangidan tuziladigan ko'p tomli “O'zbek xalq shevalari lug'ati” unda mavjud dialektal lug'atdagi so'zlar, olimlar e'lon qilgan maqola, kitob, tadqiqotlardagi so'zlar va o'tkazilgan dialektologik amaliyotlar davrida to'plangan dialektal so'zlar kiritiladi. Albatta, bunda A.Ishayevning “O'zbek dialektal leksikografiyasi” nomli kitobidagi fikrlar rivojlantiriladi².

So'zsiz, DL (dialektal lug'at) tuzish uchun maxsus so'roqlik yoki savolnoma asosida barcha o'zbek shevalari leksikadan mukammal holda yig'ilgan dialektal materiallar kerak. Bugungacha shevalarni o'rganish metodikasi hamda metodlari; shevalarimizni tadqiq etish metodikasi; lahja va shevalarimizni ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslardagi tadqiqining metodologiyasi kabi dolzarb masalalariga e'tibor kam bo'lgan.

Dialektologik lug'at(lar)ni tayyorlash oddiy ish (narsa) emas, bu bilan o'zbek xalqining qadriyati, an'analarini o'zida ifodalaydigan

¹ Решетов В.В. Изучение узбекских народных говоров // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. –Тошкент: Фан, 1957. –В. 3-86.

² Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1989.

bebaho qimmatga ega bo'lgan shevalar so'zligini tarixga muhrlash haqida gap ketmoqda.

Bugungi kunda ko'p tomli "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ni tayyorlash uchun eng avvalo ularni tuzishda zarur bo'ladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy talablar majmuini ishlab chiqish zarur. Mana shu jarayonning bajarilishi bilangina *bugungi kunda ko'p tomli "O'zbek xalq shevalari lug'ati"ni tayyorlashga* kirishish mumkin.

Bu soha muammolarining tadqiqi bo'yicha har ikki yilda tashkil etiladigan "O'zbek shevashunosligining dolzarb masalalarining ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy anjuman"ni tashkil etish zarur. Unda sohaga oid muammolar muhokama etilib, ma'lum bir qarorga kelinadiki, u dialektologiyaning dolzarb masalalarini tadqiq etishga, shu jumladan, dialektal lug'atlarni tuzish masalasini oydinlashtirishga ham vosita bo'ladi.

"O'zbek xalq shevalari lug'ati" ustida ishlaydigan jamoani shakllantirish kerak. Bu jamoaga ishlaydigan bino, xonalar va zamonaviy texnik vositalarni ajratish kerak. "Dialektal fond" "Dialektal laboratoriya" va "Dialektal arxiv"ni tashkil etish vaqti keldi.

Mazkur soha bo'yicha o'tkazilgan ilmiy anjumanlarning materiallarini jamlab, "O'zbek dialektologiyasi" fani bo'yicha nashr etilgan metodik va o'quv qo'llanmalar, darslik va risolalarni yig'ish lozim.

Bu soha bo'yicha o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan maqolalarni to'plash kerak. Ushbu soha bo'yicha e'lon qilingan kichik hajmdagi lug'atlarni jamlab, "O'zbek dialektologiyasi" bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarning avtoreferati va dissertatsiyalarining nus'halarini jamlash shart.

Ushbu soha bilan shug'ullangan olimlarning farzandlari ixtiyorida saqlangan dialektologiyaga oid bo'lgan ilmiy ishlarini ham olish lozim. Mavjud kutubxonalaridagi va yana arxivlardagi mazkur sohaga oid kitob, gazeta, jurnal, olimlarning qo'lyozmalari kabi materiallarning nus'hasini jamlash kerak.

Dialektal materiallarni transkripsiya qilishda foydalaniladigan transkripsion belgilar tizimini qayta ko'rish kerak va boshlangan xayrli ishni tezroq yakunlashga yordam beradigan transkripsion belgilar tizimini qaytq ko'rish maqsadga muvofiq.

O'zbek dialektologiyasi bo'yicha jamlab, ilmiy o'rganilgan ba'zi bir ishlarni, soha bo'yicha yangi yozilgan maqola hamda ma'lum bir

shevalardan yangidan yig‘ilgan dialektal xarakterdagi materiallarni ham nashr qiladigan maxsus ilmiy jurnal yoki ilmiy to‘plamni tashkil etib, muntazam ravishda nashr etish lozim.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani bo‘yicha muammolarning tavsifi, talqini, talqini va yechimini o‘ylaganda, yana bir taklifni aytgung kelaveradi: Mazkur sohani yuqorida bittalab sanab o‘tilgan muammolarini hal qilish, yangi-yangi ishlarni yana ham rivojlantirish uchun *“O‘zbek dialektologlarining ilmiy jamiyati”ning zarurligini asoslab, tashkil etish maqsadga muvofiq.* Mana shunda sohaga oid ishlarni kordinatsiya qilib, ularni rejali ravishda amalga oshirish imkoniyati yana ham oshardi.

Xullas, *“...badiiy adabiyot va vaqtli matbuot tilidagi dialektizmlar o‘zbek shevalarining lug‘at boyligi to‘la yig‘ib, olinmaguncha, ayniqsa, o‘zbek shevalari lug‘at sostavidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o‘zaro miqdoriy nisbatlari va bir-biriga munosabatlari aniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas”*¹.

Ushbu fani bo‘yicha mana shu hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarni o‘ylaganda, *“Bola yig‘lamasa, ona qaramas”* degan xalq maqoli esimizga tez-tez tushaveradi. Va albatta, *“Shevalarimizning lug‘aviy boyligini saqlab qolish uchun nimalar qilyapmiz?”*, *“Bo‘lajak mutaxassislarni shevashunoslikka qanday jadb qilish kerak?”*, *“Aslida bu sohada nimalar qilishimiz kerak edi?”* - degan savollar kishini o‘ylatadi. Bularga yuqoriroqda hamda quyiroqda atroflicha javob berilgan.

O‘zbek xalq shevalari bo‘yicha yangi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ilmiy ishlarning sohaga oid dialektologiya metodologiyasi hamda metodikasini qayta ko‘rib, uni tuzatish hamda kuchaytish kerak. Shu sohaga oid dialektal materiallar metodik va metodologik yo‘nalishda tavsifiy, tasnifiy, lingvistik geografiya va qiyosiy metodlarining tadqiqot tamoyillari bilan birga o‘rganiladi. Зеро, *“Tamadduniy taraqqiyot rivojlanib borishi bilan insoniyatning aksariyat qismi asosan ongli ravishda aqliy mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi tobora ortib boradi. Bu esa o‘z o‘rnida metodologiyaning (xususan,*

¹ Абдурахмонов Д. Шевалардаги лексик фарқлар // Ўзбек шевалари лексикаси.-Тошкент: Фан, 1991. –В.63-85.

dialektologiya metodologiyasining – ta’kid bizniki T.E.) jamiyat, fan va inson faoliyatida tutgan o‘rni tobora yuksalib borishidan dalolatdir”¹. Shunda etnografik-dialektal, leksik-semantik dialektal, leksik-fonetik dialektal, leksik-derivatsion dialektal, morfologik-dialektal so‘zlar, frazeologik-dialektal iboralar lug‘atlari kabi bir qancha dialektal lug‘atlarni tuzish hamda nashr etish imkoniyatlari yuzaga kelardi.

¹ Холбоев Сотимжон. Миллий мустақиллик ва таракқиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил. –Тошкент, О ‘zbekiston, 2015. –В. 18.

3-BOB. “TARIXIY DIALEKTOLOGIYA” VA DIALEKTOLOGIYA METODOLOGIYASI

3.1. “TARIXIY DIALEKTOLOGIYA” VA TARIXIY DIALEKTAL SO‘ZLARNING LISONIY MEROSDAGI O‘RNI

Bu mavzu ancha bahsli hisoblanadi. Bizningcha: 1) sheva so‘zligi ko‘rinishida; 2) adabiy til so‘zlari holatidagi; 3) yozma tarixiy yodgorliklarning matnlarining birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Mana shularni birma-bir ilmiy nazariy hamda ilmiy amaliy jihatlardan tadqiq etish hamda ularga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni shakllantirgan til tarixi mutaxassisleri bo‘lgan olimlarning ilmiy merosi nafaqat til tarixi nuqtai nazaridan, shu bilan birga tarixiy dialektologiya nuqtai nazaridan ham lisoniy merosdir. Bunda tarixiy dialektologiya va tarixiy dialektizmlarning lisoniy merosdagi o‘rni haqida fikr yuritib, ulardagi dialektologiya metodologiyasiga xos xususiyatlar ham e‘tiborga olinadi.

“*Tarixiy dialektologiya*”, tarixiy dialektal so‘zlar deb nomlangan terminlar va tushunchalar bugungi kunning terminlari hamda tushunchalari emas, balki XX asrning 20-70-yillarida yaratilgan va amalda faol qo‘llanilayotgan lingvistik terminlardan biri. Shuningdek, ushbu termini Sh. Shoabdurahmonov ham “Ўзбек шевалари ва уларни ўрганиш ҳақида умумий маълумот” nomli maqolasida o‘rinli qo‘llagan: “*Toshkent shevasi o‘zbek urug‘-qabila uyushmalariga xos bo‘lgan qator fonetik va morfologik xususiyatlarni saqlab kelishi bilan tarixiy dialektologiya nuqtai nazaridan ham diqqatga sazavordir*”¹.

“*O‘zbek dialektologiyasi*”ga oid adabiyotlarda, masalan, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlarning “*O‘zbek dialektologiyasi*” nomli darsliklarida dialektologiya ikkiga bo‘lingan: tarixiy hamda tavsifiy dialektologiya². Tavsifiy dialektologiya ayni vaqtdagi dialektologiya, ya‘ni zamonaviy dialektologiya. Faqat zamonaviy dialektologiya terminini birinchi bo‘lib qo‘llayapmiz. Bizgacha bu termin tavsifiy dialektologiya deb nomlangan. Bizni qiziqtirayotgan narsa esa tarixiy dialektologiya, tarixiy dialektizm terminlari bo‘lib, ularning tavsifiy, aniqrog‘i, zamonaviy dialektologiyaga munosabati hamdir. Shu bilan birga “Tarixiy

¹ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларни ўрганиш ҳақида умумий маълумот // Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1971. (386-407-бет) 390-бет.

² Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.-Тошкент, Ўқитувчи, 1978. –В.3-34.

dialektologiya” haqida gapirildimi, albatta, tarixiy dialektizmlar (ular yozma manbalarda qo‘llangani uchun dialektizmlar hisoblanadi, shu sababi ular dialektal so‘zlar emas) masalasini ham oydinlashtirish zarur.

Agar bu fikrimizni dalillaydigan bo‘lsak, Mahmud Koshg‘ariyning “*Devonu lug‘at-it turk*” asari ma‘lum ma‘noda hozirda mavjud bo‘lgan barcha turkiy tillar uchun umumiylik holatidadir. Undan keyingi vaqtlarda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning “*Qutadg‘u bilig*”, Ahmad Yugnakiyning “*Hibbat-ul haqqoyiq*” nomli asarlarining matnini tarixiy xronologik jihatdan kuzatilsa, ularda tillarning alohidaligi va arab tili leksikasi, fonetikasi va morfologiyasi xususiyatlarining shu davrdagi turkiy tillarga singanini sezish qiyin emas. Ammo ulardagi “...unli va undosh tovushlarning tarixiy dialektal xususiyatlari, unli hamda undosh tovushlarga xos fonetik hodisalar, diaxronik hamda sinxronik holatlari qiyosiy asosda talqin qilinadi”¹.

Bular turkiy tillar oilasidagi tillarning mustaqillashuvi va alohida holda faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlagani kabi ularni asoslab ham turadi. Atoyi, Lutfiy va Alisher Navoiy, Z. M. Bobur va M. Shayboniy, Turdi Farog‘iy, Mashrabu Xuvaydo, Uvaysiyyu Nodira, Munisu Ogahiy, Furqat va Muqimiylar yashagan davrda bu alohidalik yana kuchaygan. Demak, o‘zbek tilining tarixiy dialektologiyasini asoslashda ham mana shu XI asrdan boshlab ijodkorlar tomonidan yaratib kelingan asarlarning leksikasiga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Har bir davrda umumiylik va alohidalashuv jarayoni faol sezilgani uchun *tarixiy dialektologiya* terminidan oldin o‘zbek so‘zining aniqlovchi sifatidagi rolini kuchaytirishini bilib, o‘zbek so‘zi ishlatilmadi. “*Jumladan, o‘zbek xalqining tarixiy yozma manbalarida va dialekt, shevalari til materiallarida mavjud bo‘lgan shajara ro‘yxatida o‘zbek urug‘ining nomi ham mavjudligini va u ayniqsa. Qipchoq dialekti va shevalari tilida keng saqlanganligini ta’kidlaydi. Tarixiy yozma manbalari va dialekt, shevalari til materiallari asosida o‘zbek xalqi va tilining shakllanishi hamda nomlanishi masalasi yuqorida ta’kidlanganimizdek, professor Xudoyberdi Doniyorov talqinida miloddag avvalgi davrlar bilan bog‘lanadi*”².

¹ Маҳмудов Қ. XIII-XIV аср туркий ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. –Тошкент, Фан, 1990. –В.2.

² Санақулов У. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши, тарихини ўрганишда ўзбек диалектларининг ўрни масаласи Худойберди Дониёров талқинида // Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. –В.42-43.

To XX asrgacha boʻlgan davr ichida yaratilgan asarlar turkiy tillarning alohidalashuvi va mustaqillashuvi davrida yaratilgan desak, toʻgʻri boʻladi. XX asrgacha boʻlgan davrda turkiy tillar alohidalashuvi kuchaygani va rivojlangani singari umumiylik xususiyatlari ham shunchalik siqilashib, tillarning xususiy xususiyatlariga muvofiqlashib borgan.

Turkiy tillar uchun oltin qonun boʻlgan singarmonizm barcha turkiy tillarda faol qoʻllanishi masalasi XI asrdan boshlab kun tartibiga chiqqan. XIX asrning oxirgi choragigacha singarmonizm qonuni kuchayib borgan. Biroq unga baʼzi bir toʻsiqlar paydo boʻlgan. Chunonchi, XIX asrning 70-yillaridan ruslarning Oʻrta (Markaziy) Osiyoga, shu jumladan, Toshkentga kirib kelishi va bosib olishi, Qoʻqon hamda Buxoro xonliklarining kuchsizlanishi va oxir oqibatda yemirilishi natijasida oʻzga tillarning soʻzlari Oʻrta Osiyodagi xalqlar, xususan, oʻzbek xalqining tiliga singishi tufayli ulardagi singarmonizm qonunining kuchsizlanishi jarayonlari kuzatilgan va oxir-oqibatda shevalarimiz leksikasiga ham, adabiy tilimiz leksikasiga ham oʻzlashgan soʻzlar shunchalik koʻp kiritildiki, natijada singarmonizm hodisasi talaffuzda buzildi, lekin ona tilimizning oʻz soʻzlarida qisman boʻlsa hamki, saqlanib qoldi. Va yana shevalarimizda qipchoq va oʻgʻuz lahjalarida toʻliqroq holda, qarluq lahjasida esa juda kam koʻrinish va miqdorda saqlanib qolgan.

Mazkur davrda maxsus ilmiy grammatikalarda shoʻroparast olimlar oʻzlashgan soʻzlar til qonunlarini buzib boʻlsa ham oʻzbek tilining leksikasiga shoʻro mafkurasi homiyligida kirib bordi deyish oʻrniga singarmonizm hodisasi oʻzbek adabiy tilida yoʻq, deb bong urishdi va shevalarimiz ham rus tili taʼsirida ekanligini taʼkidlab borishdi¹. Mana shu holatlar ona tilimizning leksikasi, fonetikasi va morfologiyasiga taʼsir qilib, oʻzlashgan fonema va soʻzlar rus hamda yevropa tillari, arab, fors-tojik tillari leksik birliklari elementlari hisobiga ortib borgan. Hozirda koʻp kishi *choy, lagʻmon, manti, farzand, zuriyod, dastroʻmol, dasturxon, antena, goʻsht, mashina, maktab, maorif, chiroq, svet, daʻvo, maʻrifat, maʻno, baho, bahor* kabi soʻzlarning boshqa tillardan oʻzlashganiga umuman ishonishmaydi. Ular qanchalik koʻp miqdorda ona tilimiz leksikasiga oʻzlashgan boʻlsa, tilimizning asil tabiati va xususiyatlarini ham shunchalik buzayotganligi

¹ Ўзбек шевалари лексикаси.-Тошкент: Фан, 1991. –В. 34-65.

tabiiy hol. Ularning o‘rniga shevalarimiz leksikasidagi misollarni tanlab olib, mos kelganlarini ishlatsak, o‘rinli bo‘lardi. Masalan, shaboda, mayin shamol so‘zlari o‘rniga yelvizak so‘zining XX asrning 60-yillarida dialektolog olim filologiya fanlari nomzodi Ahmad Ishayev tomonidan ilmiy tahlilga topilib, o‘rinli va to‘g‘ri ishlatilishi yuqoridagi fikrimizga dalildir¹.

Mana shu jarayonlarni misollar bilan yoritish, ilmiy va amaliy xarakterdagi dalillar bilan asoslab berish, ilmiy tahlil va tavsiflashda bizga tarixiy dialektologiya termini qo‘l keladi. Shuning uchun ham Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi bo‘yicha ochilgan magistraturaning fan darslari tizimiga “Tarixiy dialektologiya” fanining kiritilishidan asosiy maqsadi ham yuqoridagi holatlarni aniqlashtirib, shevalarimizning qadimiy va umriboqiyiligini ham til tarixida yozilgan asarlar matnidagi tarixiy dialektizmlar misoli asosida dalillash.

Tarixiy dialektizmlarga baho berish, xalqimizning o‘tgan o‘n asrlik davrining yozma manbalari asosida o‘rganish adabiy tilning shakllanishi yoki ilmiy tilshunoslikka asos solingan. Misollarga murojaat qilsak: “Uch qiz Boysung‘ur mirzo *bila* bir *tuqqon* edi. Og‘asi Sulton Ahmad mirzo o‘lgandan so‘ng *aning* viloyoti *dag‘i* muning tasarrufida bo‘ldi. Mirzo hayotida o‘n uch yoshida *tengri rahmatig‘a bordi*”(27-b.). Rabiulohlar oyida Sulton Mahmud mirzog‘a *qaviuy oriza* yuzlanib, olti kunda *olamdin kechti*. Tab‘i nazmi bor edi. Devon tartib qilib edi. Vale she‘ri bisyor sust va bemaza edi. *Andoq* she‘r aytqondin aytmog‘on yaxshiroqdur. Yana bir Shayx Abdullo barlos edi. Shoh Sulton Muhammadning bir qizi *munda* edikim. Abobakr Mirzo *bila* Sulton Mahmud Mahmudxonning *xolasi bo‘lgay*. To‘nni *siriq* va tor kiyar edi. Odmi va asil kishi edi (29-b.). Sulton Husayn mirzo Xurosondin Hisor ustiga cherik tortib qish *Tirmez* to‘g‘risi keldi. Sulton Mas‘ud mirzo ham cherik yig‘ib, *Tirmizga* muqobalada kelib *o‘lturdi* (33-b.)²”. Bu yerda kursiv bilan berilgan so‘zlar tarixiy dialektizmlarga namunadir. Shuningdek, mukammal holda yaratilganiga ming yildan oshgan “Alpomish” dostonidagi dialektizmlar qo‘llanishiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: 1) tarixiy dialektal so‘z(dialektizm)lar (faqat oldin

¹ Bu fikrni 1987-1988-yillarda Til va adabiyot institutining Dialektologiya bo‘limida ishlaganimda ustoz Ahmad Ishaevdan o‘zining qanday millatchi bo‘lib, ishdan haydalganini uning o‘zidan eshitganman.

² Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. -Тошкент: Юлдузча, 1989. –В. 27-, 29-, 33.

qo‘llanilgan dialektal birliklar); 2) zamonaviy dialektal so‘zlar tarizda ham, hozirgi vaqtda ham qo‘llanadigan dialektal so‘zlardir.

Tarixiy dialektizmlarning zamonaviy dialektizmlar so‘zlar bilan bog‘liqligini dialektologiya metodologiya jihatlari bilan ilmiy asoslarda o‘rganish kerak bo‘ladi. Ularning bog‘liqligini asoslaydigan ilmiy me‘yorlarni ishlab chiqish lozim. Asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan xalq maqol, ibora, qo‘shiq, ertak va dostonlarining matnlari o‘rganilganda dialektal so‘zlarni aniqlab, tasniflaymiz. Yozma adabiyotda tarixiy dialektizmlarning o‘rganilishi masalasi hal etilmagan, bugungi kungacha qilingan ilmiy tadqiqotlarda tavsifiy o‘rganish bilan cheklanilgan. Tavsifiy dialektologiya uchun zamonaviy dialektologiya terminini qo‘llash o‘rinli. Dialektal so‘zlar terminini shevalarda qo‘llanuvchi sheva so‘zlari ma’nosida, dialektizmlar terminini esa badiiy adabiyotdagi shevalarning so‘zlari, til tarixida yaratilgan yozma manbalardagi sheva so‘zlarini tarixiy dialektizmlar deb ajratish maqsadga muvofiq.

Yozma adabiyotdagi dialektizmlarni yaratilgan davr tili bilan qiyoslash talab etiladi va bu to‘g‘ri talab. Bizningcha, til tarixini o‘rganishda o‘sha davrning til taraqqiyoti qonunlarini jiddiy ravishda o‘rganmasdan, aniqrog‘i, ularni “Dialektologik kvalimetriya” asoslari va talablariga muvofiq baholamasdan tarixiy dialektizmlar haqida gapirish mumkin emas.

“Tarixiy dialektologiya” fanida faol ishlatiladigan tarixiy dialektizmlar termini quyidagi ma’no qirra(noziklik)lariga ega deyishga tarixiy davrda yozilgan manbalardagi dialektal so‘zlar misolidagi imkoniyatimiz yetarli. Ular quyidagilar:

Tarixiy dialektizmlarni dialektologiya metodologiya asosida quyidagi mavzular asosida ham o‘rganish mumkin: 1) Alisher Navoiy asarlarining dialektal xususiyatlari tadqiqi; 2) Mahmud Koshg‘ariyning “*Devon-ul lug‘at-it turk*” asarida tarixiy dialektizmlar; 3) “*Boburnoma*”ning tarixiy dialektal birliklari tahlili; 4) Munis she’riyatida tarixiy dialektal birliklarning ifodalanishi; 5) Ogahiy asarlarida tarixiy dialektal xususiyat tahlili; 6) Yusuf xos Hojibning “*Qutadg‘u bilig*” dostonida tarixiy dialektal birliklarning leksik-semantik xususiyatlari; 7) Adib Ahmad Yugnakiyning “*Hibbatul haqqoyiq*” asarida tarixiy dialektal birliklar; 8) Lutfiy asarlarida tarixiy dialektal birliklar; 9) Mahmud Koshg‘ariyning “*Devon-ul lug‘at-it turk*” asarining dialektal va dialektal leksikografik xususiyatlari va boshqalar.

Xullas, dialektologiya ilmidagi tarixiy dialektal soʻz termini quyidagi maʼnolarni oʻzida jamul-jam qilgan:

1. Tarixiy dialektal soʻzlar til tarixi materiallarida qadim tarixning oʻn asrlik davri mobaynida qoʻllanilgan va hozirgi kunda ham shevalarda ishlatiluvchi dialektal soʻzlardir.

2. Til tarixi materiallarida turli fonetik oʻzgarishlar majmuida qoʻllanib, bugungi oʻzbek shevalarida ham turli fonetik, fonetik-morfologik, fonetik-leksik oʻzgarishlarga uchragan holda qoʻllanadigan dialektal soʻzlar tarixiy dialektal soʻzlar sanaladi.

3. Mavjud til tarixi materiallarida oʻzga bir maʼnoda, hozirgi oʻzbek shevalarida oʻzga bir dialektal maʼnolarda qoʻllanadigan dialektal soʻzlarni ham tarixiy dialektal soʻzlar deyish oʻrinlidir.

Demak, tarixiy dialektal soʻzlarni ular amalda bajaradigan vazifalardan kelib chiqqan holda ularni leksik va leksikografik birliklar sifatida tarixiy lisoniy merosdagi oʻrnini eʼtirof etilishda tarixiy dialektologiya metodologiyaning tamoyillarini unutmaslik maqsadga muvofiqdir.

3.2. “MUHOKAMAT-UL LUGʻATAYN”DAGI DIALEKTAL SOʻZLAR VA OBRAZLI NOMLANISHLARNING METODOLOGIK TALQINI

Alisher Navoiy nafaqat “...avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni...” (I.Karimov) va XV asrda poytaxti Hirot boʻlgan Xuroson davlatining Husayn Bayqarodan keyin turadigan maʼlum va mashhur davlat arbobi boʻlibgina qolmasdan, shu bilan birga u oʻzining ona tilisi boʻlgan turkiy (oʻzbek) tilni har tomonlama mukammal bilgan hamda uni boshqa tillar bilan qiyoslay olgan zamonasining tilshunos olimlaridan biri ham boʻlgan. Odamda baʼzan quyidagi holat tez-tez boʻlib, bilinib turadi, yaʼni baʼzi bir asarlarni oʻqiganing sayin nimalarnidir oʻzlashtirib olib va yana nimalarnidir anglab, tushunib borayotgan boʻlamiz. Mana shunday asarlardan biri Alisher Navoiyning tilshunoslikka, aniqrogʻi, qiyosiy tilshunoslikka bagʻishlangan asari “*Muhokamatu-l-lugʻatayn*”dir¹. Shoirning boshqa asarlari kabi bu

¹Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. –Тошкент: Akademnashr, 2017. 90 bet.

asarida ham bir necha sohaga oid muammolar, shu jumladan, dialektologiya metodologiyasi masalalari ham o‘sha davr nuqtai nazaridan talqin etilgan. Faqat ularni anglab olish kerak bo‘ladi, xolos.

Ushbu asarning yozilgan vaqti e‘tiborga olinsa, turkiy tilning ming bir ko‘rinishli so‘z shakllariyu ma‘no mo‘jizalari bilan Navoiy dahosi “*ilmu ulus*” oldida quyosh misoli charaqlab turgan bo‘lsa-da, ba‘zilar forsiy tilni ulug‘lab, “Bu tildan o‘zga tillarda ash‘or (ijod qilib bo‘lmaydi) yozib bo‘lmaydi. Turkiy til esa askariy til. Askariy til bo‘lgani uchun unda nafis, latif va serma‘no g‘azallarni bitib bo‘lmaydi”, deb yurishgan bir paytda bu ulug‘ shoirning mazmunu mohiyatining betakroriyiligi bilan ajralib turadigan “Muhokamatu-l-lug‘atayn” nomli asari yozilganligini e‘tiborga olish kerak. Bu faqat va faqat boshqa tillarni kamsitmagan holda o‘z ona tilisini ulug‘lay olgan Alisher Navoiygagina xos bo‘lgan ma‘naviy jasorat namunasi edi. Asarning nomlanishi “Ikki til muhokamasi” ma‘nosini bildirsa-da, bugungi kungacha “*Muhokamat ul-lug‘atayn*” (4-28-betlar) va “*Muhokamatu-l-lug‘atayn*”¹ tarzida ikki xil yozilgan. Bizningcha, asarning ikkinchi xil yozilishi to‘g‘ri.

Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, XX asrning 60-yillarida tilshunos olim Alibek Rustamov shoir asarlarining fonetikasini maxsus tadqiq qilgan². XX asrning 80-yillarida akademiklar G‘anijon Abdurahmonov va Alibek Rustamovlar shoir asarlarining grammatikasini maxsus tadqiq qilishgan³. XX asrning 70-80-yillarida professor Xudoyberdi Doniyorov va Do‘stmurod Abdurahmonovlar shoir asarlaridagi so‘zlarning ko‘pchiligi qarluq hamda qipchoq lahjalariga xosligini unli va undoshlarning tahlillari asosida ko‘rsatib asoslashgan.

Shoirning mazmunu mohiyati hayotbaxsh va o‘tli g‘azallari bilan, nodir va dilkashu betakror mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan dostonlari bilan birga o‘z g‘animlarining ham alamini keltirgan bo‘lsa, ushbu asarini yozish bilan esa ne-ne g‘animlarining bo‘lmag‘ur g‘iybat gaplarini turkiy tilga nisbatan gapirishlariga biron bir asos qoldirmagan.

¹Qiyoslang: 1) Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Матнни П. Шамсиев нашри асосида изоҳ ва таржималар билан нашрга тайёрловчи Суйима Ғаниева. –Тошкент: Фан, 2000. –Б. 4-28; 2) Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. -Тошкент, Akademnashr, 2017. 90 bet. Албатта, бу асарнинг Туркиядаги ва бошқа ерлардаги қўлёзма нусхалари олимлар томонидан қийслаб ўрганилган.

²Рустамов А. Навоий тилининг фонетик хусусиятлари // Навоий ва адабий таъсир масалалари. -Тошкент, 1968.-В.258-278.

³Абдурахмонов Ғ., Рустамов А.Навоий тилининг грамматик хусусиятлари.-Тошкент, 1984.

Natijada, “*Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron-bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa*” (I.Karimov).

Asarni qayta-qayta o’qir ekanmiz¹, ayni vaqtda bir qancha kishilarning “Men shoirman, ijodkorman”, deb bir hovuchgina so’zlarga yopishib olishgani anglab, sezib boramiz. Alisher Navoiy esa ham o’z davri uchun adabiy til bo’lgan saroy tilini hamda yana o’zbek shevalarning boylklari bo’lgan dialektal so’zlardan unumli va o’rinli foydalana olgan. Bunga misol qilib, ushbu asarida keltirilgan “yig’lamoq” so’zining sinonimlariga e’tibor bersak, shoirning bu so’zga keltirib o’tgan ma’nodosh (sinonim) so’zlarning qariyb teng yarmi o’sha vaqtda ham dialektal, ya’ni sheva so’zi hisoblangan. Qarang: “*quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jinjaymoq va o’ngdaymoq va chekrimak va do’msaymoq va umunmoq va o’sanmaq va igirmak va egarmak va o’xranmak va toriqmoq va aldamoq va arg’adamoq va ishanmak va iglanmak va aylanmoq va erikmak va igranmak va ovunmoq va qistamoq va qiynamoq va qo’zg’almoq va sovrulmoq va chayqalmoq va devdashimoq va qiyanmoq va qizg’anmoq va nikamak va siylanmoq va tanlamoq va qimirdamoq va serpmak va sirmamak va ganorgamak va sig’riqmoq va sig’inmoq va qilimoq va yolinmoq va munglanmoq va indamak va tergamak va tevramak va qingg’aymoq va shig’aldamaq va singramoq va yashqamoq va isqarmoq va ko’ngranmak va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmak va kuymanmak va ingramoq va tushalmak va mung’aymoq va tanchiqamoq va tanchiqolmoq va ko’ruksamak va bushurg’anmoq va bo’xsamoq va kirkinmak va sukadamak, bo’smoq, burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o’rtanmak, sizg’urmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirg’amoq, bichimoq, qiqzanmoq, singurmak, kundalatmak, qumurmaq, bikirmak, ko’ngurdamak, kinarkamak, kezarmak, do’ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg’anmoq, qichig’lamoq, gangiramak, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko’ndurmak, so’ndurmak, suqlatmoq”².*

¹Bu asarning bir necha nashri bor: Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. Асарлар. Ўн тўртинчи том. -Тошкент, 1967. –В.103-132. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Порсо Шамсиев нашри асосида изох ва таржималар билан нашрга тайёрловчи С.Ғаниева // Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томли. Ўн олтинчи том. – Тошкент, 2000. –В.6-40.

²Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. -Тошкент, Akademnashr, 2017. –В. 32.

Ushbu soʻzlardan “*umunmoq va oʻsanmaq va igirmak va egarmak va oʻxranmak va toriqmoq va aldamoq va argʻadamoq va aylanmoq va va ovunmoq va qistamoqva qiynamoq va qoʻzgʻalmoq va sovrulmoq va ganorgamak va sigʻriqmoq va sigʻinmoq va qilimoq va indamak va tergamak va tevramak va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmaktanchiqamoq va tanchiqolmoq va koʻruksamak va bushurgʻanmoq va boʻxsamoq va kirkinmak va burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, sizgʻurmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirgʻamoq, bichimoq, singurmak, kundalatmak, qumurmaq, koʻngurdamak, kinarkamak, doʻptulmoq, chidamoq, tuzmak, qadamoq, chiqanmoq, suqlatmoq*” soʻzlari eski oʻzbek adabiy tilida kam ishlatiladigan soʻzlar boʻlgan. Chunki Alisher Navoiy sanab oʻtgan soʻzlar Xuroson davlatining poytaxti Hirot shahri yaqinidagi oʻzbek shevalarida faol ishlatilganki, ularni shoir jamlab, yigʻib, oʻrganib, oʻrganilayotgan asarida keltirilgan yigʻlamoq soʻzining maʼnodoshligini “*gʻarib maqosid adosida*”, yaʼni ingichka maʼno nozikligi bilan asoslashga intilgan: “*Bu yuz lafzdurki, gʻarib maqosid adosida taʼyin qilibdurlarki, hech haysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chogʻida kishi anga muhtoj boʻlur*”¹, yaʼnikim “*Bu yuzta soʻzni ingichka (nozik) maqsadlarini ifodalash uchun belgilabdurlarki, bularning hech biri uchun capt tilida soʻz yasamabdirlar. Lekin bularning barchasiga kishining ehtiyoji tushadi, soʻzlashish chogʻida kishi unga muhtoj boʻladi.*”².

Shoir nafaqat bir yerda boʻlgan, balki taqdir taqozosi bilan Abusaid Mirzoning farmoniga muvofiq Hirotidan Samarqandga “ixroj”, yaʼni surgun qilingach³, Termiz, Shahrizabzu Samarqandni oʻz koʻzi bilan koʻrganki, u yerlardagi odamlarning turmush tarzi, turlicha gaplashishiyu soʻzlarining turlari koʻpligini koʻrib bilgan, yaʼnikim turkiy (oʻzbek) tilning sheva vakillari nutqini oʻz qulogʻi bilan eshitgan ham: “*Va bu soʻzning tanavvui taaqquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolagʻasiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki navʼ bila taqsim toparida xud hech soʻz yoʻqturkiy, yetmish ikki firqa kalomigʻa dalolat qilgʻay; ammo ulcha tafsiliydur. Har jamoat alfozi, oʻzgalaridin va har guruh iborati*

¹Bu shoirning asardagi oʻz soʻzi.

²Ushbu fikrlar esa shoir asaridagi fikrlarining tabdil qilingan koʻrinishi sanaladi.

³Bu tarixiy dalil (fakt)boʻlib, oʻsha davrning tarixiy manbalarda ham oʻz ifodasini topgan.

yonalaridin mutag‘ayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyazdurki, o‘zgalarda yo‘qtur”¹, ya’ni “So‘zning turlari shu qadar ko‘pki, o‘ylash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag‘a qilmasdan yuzaki bayon qilinsa va qisqalik bilan yozib chiqilsa, yetmish ikki nav‘ga bo‘linib, yetmish ikki xil xalqning so‘ziga aylanishida hech bir so‘z yo‘q, lekin bundan hamko‘pdir. U shundayki, yer yuzining yetti iqlimining har birida necha mamlakat bor, har bir mamlakatda necha shahar, shaharcha va kent bor va har dashtda necha xil sahronishin xalq, har bir tog‘niig kamarlarida va yuqorisida, har bir daryoning orolida va qirg‘og‘ida necha guruh odamlar bor. Har bir jamoaning tillari o‘zgalaridan va har guruhning so‘zlashuvlari yana birlaridan o‘zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o‘zgalarda yo‘qdir”². Bu yerda muallif turkiy (o‘zbek) tilining lahja va shevalari to‘g‘risida nisbatan batafsil to‘xtalganki, faqat lahja hamda sheva terminlarini qo‘llamagan, xolos. Taniqli dialektolog olim Xudoyberdi Doniyorovning ta’kidlab o‘tishicha, shoir ishlatgan “yig‘lamoq” so‘zining yuzta sinonimidan oltmish to‘qqiztasi qipchoq shevalarida uchragan³. Demak, Navoiy o‘z davrining adabiy tili bilan birga xalq tili sifatida shakllangan turkey-o‘zbek shevalarning lug‘aviy boyligidan yaxshi xabardor bo‘lib, o‘z asarlarida badiiy barkamollikni ta’minlash uchun o‘rinli tarzda foydalangan ham.

Alisher Navoiyning bu asaridagi birgina yig‘lamoq so‘ziga yuzta sinonimni keltirishining o‘zi hamma vaqtda ham sheva so‘zligi ijodkorlar uchun bitmas tunganmas xazina ekanligini ko‘rsatib, bunga asos sifatida shoir o‘zining asarlardan misollar keltirib ham mazkur risolasida qisqacha sharhlagan⁴. Va yana mazkur asarda omonim so‘zlarning o‘ziga xosligini ham ko‘rsatib berishga intilgan. Tilimizda ham, shevalarimizda ham shakldoshlikka asoslangan omonimiya boshqa xalqlar adabiyotida bo‘lmagan tuyuq janrining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Shoirning bu asarida turkiy tilga xos ko‘p ma’nodlilik va so‘z yasalishi jarayonlari ham qisqa bo‘lsa-da o‘z ifodasini topgan. Bular

¹Mazkur fikr shoirning asaridagi o‘z so‘zi hisoblanadi.

²Ayni shu fikrlar esa shoir asaridagi fikrlarining tabdil qilingan ko‘rinishi.

³ Qarang: Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Тошкент: Фан, 1968. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан, 1972. Дониёров Х. Эски ўзбек адабий тили ва қипчоқ диалектлари. –Тошкент: Фан, 1976. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Тошкент: Фан, 1979.

⁴Qarang: Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Матнни П. Шамсиев нашри асосида изох ва таржималар билан нашрга тайёрловчи Суйима Ғаниева. -Тошкент, Фан, 2000.-В.18-19.

Alisher Navoiy ham lug‘atshunos sifatida “Sab’atu abhur” nomli lug‘at tuzgan degan fikr ishonchli ekanligi anglatadi. Sababi, lug‘at tuza bilgan odamgina ona tilining so‘z shaklidagi sirli xazinalarini dil-dildan his qila oladi. Va yana shoir hozirgi kunda so‘z qo‘llashdagi bahsga, aniqrog‘i, “Sart so‘zi qaysi xalqni ifodalaydi?”, deb beriladigan savolga yo‘lma-yo‘l “forsiyalar” deb javob berib o‘tgan.

Shoir bu asarini “*Muhokamatu-l-lug‘atayn*” (uning o‘zbekchaga tarjimasi esa “*Ikki til muhokamasi*”) , deb arabcha nomlagani ham obrazli nomlanishning bir shaklidir; *sart tili, sart lafzi, sart iborati* deb fors tilini; *hindi* deb hind tilini; *arab tili, arabi til, arabi alfaz* deb arab tilini; *turk tili, turk lafzi, turk alfazi, turk iborati, turkcha, turki, turki alfaz,* deb turkiy tilini; *turk, turklar, turk eli, turk ulusi, atrok,* deb turkiy(o‘zbek)larning o‘sha davrdagi nomini; *turki vu sart lug‘ati* jumlasini bilan turkiy va sart (forsiy) tillarini ifodalashi kabi nomlanishlari esa bugungi kunda “O‘zbek nomshunosligi” fanida ilmiy o‘rganilishi endi boshlanayotgan *obrazli nomlanishlarning umumiy hamda ilk ko‘rinishlari* deyish o‘rinliroqdir¹. Shoir bular bilan ham onomastik nomlanish (asar nomi)ga, ham oddiy obrazli nomlanishlarning amaliy namunalari yuqoridagi shoirona iboralarida keltira olgan. Nega xalq o‘z nomlarini yaxshi ko‘radi, chunki ularda yashirin ko‘rinishdagi obrazlilik (metaforik) holatlarini turlicha ko‘rinishlarda muhurlangan.

Shoir o‘z asarida *til* so‘zi(termini) bilan birga *lison* so‘zi(termini)ni ham zaruriyatga moslab ishlatib, ularning o‘rtasidagi farqni ajrata olganligi ham uning tilshunoslik ilmidagi tajribasi ancha mukammalligini bildirib turibdi². Va bu ikki so‘zni muallif farqlab qo‘llaganini kabi bir matnda ularni yonma-yon qo‘llash ham obrazli nomlanishning bir ko‘rinishi sanaladi. Va yana shoir mazkur asarida “yig‘lamoq” so‘zining shevalarda uchrashini o‘rganib, ulardagi dialektal so‘zlarni qanday qilib yig‘ish, qo‘llash yoki o‘zlashtirishning namunasini ko‘rsatib bergan.

Va yana bu asarni o‘qiganda kishi nutqida singarmonizmga xos ohangdoshlik holatini ham bilib, bugungi kunda so‘zlarni latofatu nazokatu nafosat bilan aytishda labial hamda tanglay singarmonizmga

¹ Obrazli nomlanishlar haqidagi tadqiqotimizni shoirning ushbu asariga e‘tibor berish bilan boshlash uchun bu maqolaga qo‘l urganmiz. Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. –Тошкент: Akadernashr, 2017. –В.86-89.

²Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. Қосимжон Содиков таҳлили, табдили ва талқини остида. –Тошкент: Akadernashr, 2017. –В.87.

xos tabiiy xususiyatlar majmui sal bo'lsa hamki, yetishmayotganligini anglaganday bo'lamiz¹. Shunda "...avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni..." bo'lgan shoirning ushbu asari ona tilimizni avaylab asrashga va o'zbek xalq shevalarining tadqiqiga da'vat desak, o'rinli bo'ladi.

Zero, uning asarlarni o'qib, o'rganib, tarixshunos ham, nomshunos ham, tilshunos ham, adabiyotshunos ham, geograf ham, dialektolog ham, fizik ham, ximik ham o'z sohasi uchun noyob narsalarni topa oladi. Shuning uchun shoirni "*Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi*"² va yana "*Alisher Navoiy – nomshunos alloma ham*" deb atashganda haq bo'lishgan³.

Shu o'rinda yana bir o'ttiz yillik kuzatishlarimga asoslangan qiyosimni ham qayd etmoqchiman. XV asrda Alisher Navoiy ijod qilish bilan birga tilshunoslikka dahldor "*Muhokamat-ul-lug'atayn*" nomli asarni yozgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning o'ninchi yillarida O'zbekiston xalq shoiri va O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning bir qancha she'r hamda maqolalarida, shuningdek, "*So'z latofati*" nomli asarida⁴ xalq tiliga, xalq shevalaridagi so'zlarga e'tibor berish, ularni yig'ib, o'rganib, amalda ishlatish kerakligiga bir necha so'zlarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtalgan holda ishora qilingan⁵. Bu ikki mashhur shoirning she'ru g'azallarini jumlai jahonga tanitgan narsa adabiy tilimiz elementlari bilan birga, albatta, qonimizga ongimizga singib ketgan shevalarning dialektal leksikasi ekanligini e'tiborga olish o'rinli.

¹Zero, tilimizga rus-internatsional so'zlarning kirib kelishi sho'ro davriga xos xususiyat edi. Shu tufayli ham sho'ro davrida "O'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yo'q", deb tilshunoslikka oid kitoblarda yozilgan, ta'lim tizimimizdagi darslarda ham aytilgan. Aslida ushbu hodisa adabiy tilimizda qoldiq hodisa sifatida saqlanib qolgan bo'lsa-da, lahja hamda shevalarimiz esa mazkur fonetik hodisa bilan o'z nufuzini va boshqa turkiy tillardan biriligini asoslab turidi. Chunki o'zga turkiy tillarda ushbu hodisaga chegara qo'yilmagan. Shu o'rinda adabiy tilimizdagi orfoepik me'yorni qayta ko'rish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Ayni vaqtda mumtoz adabiyotimiz vakillarini, xususan, Alisher Navoiyning asarlarini izohli lug'atlarsiz o'qib, uqib bo'lmaydigan holga kelib qoldik. Buni yashirishning hych bir hojati yo'q. Axir bugungi kun yoshlaridan mumtoz adabiyotimizni, mumtoz musiqa va qo'shiqchiligimizni ajratib tashlashga haqqimiz ham, huquqimiz ham yo'qligini anglab yetishimiz kerak.

² Bunday nomlanish bilan shoirni e'tirof etish va ulug'lash XX asrning 40-yillaridan to bugungi kungacha ilmiy adabiyotlarda bot-bot aytilgan.

³ Эназаров Т., Есемуродов А. Алишер Навоий – номшунос аллома ҳам // Темурийлар даврида тил, маданият ва санъат тараққиёти. –Тошкент, 2016.

⁴Воҳидов Э.Сўз латофати. –Тошкент: Ўзбекистон, 2014.

⁵Bu ikki shoir bir-birini takrorlamagan holda she'r va boshqa asarlarida ona tilimizning bebahoyu go'zalligini ko'rsatuvchi shevalarining so'zlarini yig'ib, ulardan o'rinli foydalanishga da'vat etgan.

Ayni vaqtda 2006-yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘at”larida sakson mingdan ortiqroq ona tilimiz so‘zlari qayd etilgan. Bu – ona tilimiz, ulug‘ va mustaqil O‘zbekiston Respublikamiz, shuningdek, qadimiy xalqlardan biri bo‘lgan o‘zbek xalqi qudrati, salohiyati va imkoniyati oldida juda kam deyishga majburmiz... Ammo o‘zbek xalq shevalaridagi so‘zlar mavjud o‘nta dialektal so‘z turlari va ularning ko‘rinishlari bo‘yicha nomigagina tadqiqot olib borilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” nashr etilgan¹, xolos. Aslida, ko‘p filolog mutaxassislar ham dialektal so‘z va uning turlarini, ularning sheva vakillari nutqidan qanday ajratib olish yo‘llarini tassavur ham qilishmaydiki, natijada, xalq vakillari nutqida haligacha o‘rganilmagan million-million so‘zlarimiz e‘tiborsiz yotibdi. Qarang, sakson mingdan ortiqqina so‘zlarimiz oldida, hattoki, Alisher Navoiy o‘rgangan shevalardagi dialektal so‘zlarning o‘nta turiga xos bo‘lgan sheva so‘zlarini yig‘ib olinsa, kamaytirib aytilganda ham ikki-ikki million atrofidagi dialektal so‘zlarni sheva vakillari nutqini yozib olish va shu matnlardagi dialektal so‘zlarni ajratib olish asosida lug‘at maqolalar tayyorlansa, qariyib kamida yuz tomli dialektal lug‘atlar nashr etilib, sheva so‘zlar saqlanib qolingan bo‘lard. Tabiiyki, buning uchun sheva vakillari nutqini dialektal matn sifatida yozib olib, maxsus ilmiy talab va me‘yorlar bo‘yicha ishlansa, ona tilimizning boyligi, ya‘ni *so‘zlarimiz bamisoli beqiyos tog‘larimizga aylanadi*.

Zero, shevalarning sinonim, omonim, paronimligi haligacha tadqiq etilmagani singari shevalarda so‘z yasalishi, dialektal leksikaning xilma-xil ko‘rinishlari ham tuzilajak ko‘p jildli dialektal lug‘atlar majmuiga kiritilmay qolib ketmoqda. Bu muammo ayni vaqtda “*O‘zbek dialektologiyasi*” fanining hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur asar bugungi kunda yig‘ib, jamlab, tadqiq etilishi unutilgan shevalarning dialektal so‘zlarini yig‘ish, to‘plash va ilmiy tahlil qilishga hamda tilimizga xos bo‘lgan obrazli nomlanishlarni o‘rganishga da‘vat etib turibdiki, “*So‘z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashdan nutq egalari ojizdirlar...*”²desak yangilishmagan bo‘lamiz. Shuning uchun ham ushbu asar ensiklopedik mohiyatga ega.

¹ Qarang: Ўзбек халқ шевалари луғати.-Тошкент: Фан, 1971.

²Kursivda berilgan fikr shoirning o‘ziga tegishlidir.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, shevalarni va obrazli nomlanishlarni (tarixiy) muallifning o‘zi bilmagan holda dialektologiya metodologiyasi asosida o‘rganishga da‘vat etib yozilgan Alisher Navoiyning “*Muhokamat-ul lug‘atayn*” asari nafaqat til va adabiyot ta‘limi sohasidagi dolzarb masalalarni ilgari surgan, shu bilan birga qadimiy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining million-milion dialektal so‘zlarini sheva vakillarining nutqidan dialektal matnlar sifatida o‘rganish va ilmiy tadqiq etishga ham rag‘batlantira oladi.

3.3. DIALEKTOLOGIYA VA TOPONIMIKANING O‘ZARO MUTANOSIBLIGI XUSUSIDA

“*Toponimika*” (“Onomastika”ning bir bo‘lagi bo‘lishi) bilan dialektologiyaning uzviy bog‘liq joylari va dialektal matnlari dialektal so‘zlarning tahlillarida sezilib turadi. Dialektologiya, xususan, “O‘zbek dialektologiyasi” fani adabiy tilning asosi va poydevori bo‘lgan sheva hamda lahjalarini o‘rganib, ilmiy va amaliy jihatlardan tadqiq etib kelmoqda. Shu narsa ma‘lumki, o‘zbek xalq shevalari son jihatdan ko‘p miqdorni tashkil etgan holda qarluq, o‘g‘uz hamda qipchoq lahjalari tarkibiga kiradi¹. Turkiy tilli xalqlar ichida o‘zbek xalq shevalari katta hamda ko‘pchilikni tashkil etishi bilan ajralib turadi. Bu holat joylarga nom berishda ham o‘z aksini topgan desak, xato bo‘lmaydi. Nomlarni, xususan, toponimlarni ilmiy va amaliy jihatlardan monografik yo‘nalishda ma‘naviy meros, madaniy hamda umuminsoniy boyliklarni onomastik madaniyat² sifatida o‘rganish va lingvogeografik nuqtai nazardan ilmiy-amaliy asoslarda tadqiq etish zaruriyati sezilmoqda.

Bilamizki, umumiy toponimika ham va xususiy toponimika bo‘lgan “O‘zbek toponimikasi” ham, sheva hamda lahjalari ham takrorlanmas rivojlanish hamda taraqqiyot yo‘llarni bosib o‘tgan. Bunday deyishning bir qancha sabablari bor:

1. XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan davrda har bir uchragan toponim ham, dialektal so‘zlarning bir qanchasi o‘z davriga

¹Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -Б. 6; Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Тошкент: Ўқитувчи,1996. -Б.30-32. Эназаров Т. ва бошқалар. Ўзбек диалектологияси.-Тошкент: Университет, 2012.

²Ономастик маданият термини қуйидаги манбада қўлланган: Шмелева Т.В. Ономастика. Учебное пособие. – Славянске–на–Кубани, 2013. –С.9–10.

mansub bo'lgan adabiy tilning qolipiga solingan, ham rus tili nuqtai nazaridan orfografik me'yor bilan yozilgan holda talqin hamda ilmiy tahlilga tortilgan. Bu davrning 20-50-yillarida rus olimlari shevalarni tadqiq etishganligi hisobga olinsa, ular adabiy tilning mavqeni Toshkent va Farg'ona shevalari darajasida deb bilishgan holda Alisher Navoiy, Z. M. Bobur kabi alloma ijodkorlar ijodiy faoliyati bilan shakllangan eski o'zbek adabiy tilning borligini yo unutishgan, yoki bilishmagan. To'g'rirog'i, sho'ro mafkurasiga xizmat qilishgani uchun ona tilimizning imkoniyatlarini pasaytirish yo'lidan borishgan.

2. Joy nomlarining ilmiy tahlili ham, sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal material va matnlar ham qandaydir umumiy ma'noda XX asrning 20-90-yillarida sho'ro mafkurasining maqsadlariga bo'ysundirilgan. Bu holatda sal o'zgacha fikrlangan ishlardagi tahlillar mualliflari bir butun holda millatchilikda ayblanganligi 30-yillardagi qatag'on siyosati, keyinchalik 40-, 50- va 80-yillardagi *o'zbek ishlarining* mazmun-mohiyatidan anglash mumkin.

3. Agarda sheva va lahjalarimiz o'zbek adabiy tilining asosi, poydevori bo'lsa, so'zsiz, nomlarimizga asos bo'lgan so'zlarimiz ham o'zbek dialektologiyasining materiallari jumlasiga kiradi. Chunki ba'zi nomlarni aytsak, boshqa sheva vakillari va adabiy tilda gaplashuvchilar yaxshi tushunmasligi mumkin. Masalan, *Olaqarg'a, Itolmas, Toshtemir, Yeshtemir, Tupli, Pirnazar, Shakar, Shernazar, Chiroqchi, Chuchaqay, Duxchi, Qiztepa, Qiziltepa, Qamashi, Kasbi, Ishtixon, Jizzax, G'allaorol, Baxmal, Turmushi* va boshqalar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'ladi.

4. Bu davrda amalga oshirilgan toponimika va dialektologiyaga oid ilmiy ishlardagi materiallarning tahlillari ilk yoki boshlang'ich, izohli va ensiklopedik tahlillar ko'rinishda bo'lganki, ularda amalga oshirilgan tahlillar primitivligi, ya'ni mukammal yemasligi bilan o'qiganlarning ma'naviy ehtiyojini qoplay olmagan. Zero, ilm bilan shug'ullanayotganlarning to'qson to'qqiz foizidan ham ko'prog'i ilmiy tadqiqotlari bilan o'zlarining ma'naviy ehtiyojlarini boyitishgan. Shu o'rinda mamlakatimiz poytaxti Toshkent nomining amalga oshirilgan turli maqsaddagi tahlillari fikrimizga asos bo'ladi. Chunki ular ilmiy tahlilga, ya'ni etimologik tahlilgacha yetib borisha olmagan yedi. Yohud etimologik tahlilni tushunishmagan yoki uni rad etishgan bo'lishi mumkin.

Bizningcha, Toshkent nomining etimologik tahliliga suyanadigan bo'lsak, mazkur joy nomining kelib chiqishini toshli qal'aga bog'lash noo'rin. Uning kelib chiqishi: *Choch* > *Chosh* > *Tosh* holatidagi ko'rinishi turli tillarning fonetik aralashuvi natijasida ro'y berganligi to'g'ri ko'rsatilib, asosli dalillar keltirilgan. Shu o'rinda *Choch* > *Chosh* so'zlarining bir o'zakli ekanligi, bu ikki so'z xalqimiz tilida hosilning jamlangan eri, to'plangan joyiga nisbatan aytiladigan *Chosh* so'zining xuddi o'zidir¹. Albatta, *Chosh* qilingan, *Chosh* qilmoq iboralari ham xirmon joyning holatini anglatadigan birikmalardir. Demak, Toshkent nomi *Choch* > *Chosh* > *Tosh* yohud *Chosh* > *Choch* > *Tosh* tarzidagi fonetik o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Bu esa uning ma'nosi hosildorli joy, dehqonchilik madaniyati gullab yashnagan shahar ma'nolarini anglatadi. Bu yesa tahlillarni, aniqrog'i, ilmiy tahlillarni mukammallashtirib borib, etimologik tahlilga kirishish dialektologiya va toponimika bo'yicha amalda oshirilgan tahlillarni amalga oshiruvchilarning sermashaqqat faoliyatini ko'rsatadi. Xullas, toponimika bilan dialektologiyaning o'zaro mutanosibliги tarixiy dialektologiya metodologiyasining yo'nalishlarida ular tarkibidagi leksemalarning o'rinli va ishonarli ilmiy tahlillarga tortishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

3.4. OLTIN BITIKLAR VA ULARDAN BA'ZILARINING KELIB CHIQISHI

Shu o'rinda ta'kidlashni istardikki, "oltin bitiklar" jumlası adabiyotimiz tarixidagi noyob asarlarga nisbatan ham, nomlarga nisbatan ham, dialektal so'zlarga nisbatan ham ishlatiladi.

Nomlar, xususan, ularning bir turi bo'lgan toponimlarning kelib chiqishi to'g'risida qancha fikr aytilsa, shuncha kam. Ularga "*Onomastik kvalimetriya*" va "*Toponimik kvalimetriya*" nuqtai nazarlaridan baho berilsa, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarga foydalilik darajasi nuqtai

¹Т.Эназаров. Тошкент топонимининг этимологик таҳлили // Ўзбекистон география жамияти Ахбороти. 30-жилд. -Тошкент, 2008. –В. 47-49. Эназаров Т. Ж.Топонимлар – эҳтиёж маҳсули // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда. Илмий мақолалар тўплами. -Қарши, 2008. -В.125-128 (Жуманазаров билан ҳамкорликда). Эназаров Т. Ж. Номшунослик масалалари. -Тошкент, 2010. Эназаров Т., А. Есенмуродов. Нусанова М. Ўзбек номшунослиги. –Тошкент, 2016. Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах, 1992.

nazaridan qarash kerak. Ko‘pchilik “oltin bitiklar” terminini faqat noyob qo‘lyozma asarlarga nisbatan ishlatishadi. Aslida, tarixiy dialektologiya metodologiya nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘sak, qo‘lyozma asarlar kabi nomlar ham, toponimlar ham xalqlarning azaliy qadriyati, ruhiyati, tiliyu dili bilan obrazli nomlanishlar orqali bir butun holda qadim tarix sahifalarida muhrlangan “oltin bitiklar”dir. Ular insoniyat qancha yashagan va yana qancha yashasa, shuncha vaqt davomida o‘zining betakror mazmun-mohiyatini, aniqrog‘i, “oltin bitik”ligini namoyon qila oladi. Albatta, buning uchun ilm-fanning bugungi talablariga javob bera oladigan mukammal toponimik tahlilga asoslanilgan etimologik va izohli tahlillarni amalga oshirish shart.

Nomlarning bir turi bo‘lgan toponimlar ham “oltin bitiklar” deb ataldi. Bunga sabab, birinchidan, bu birikmaning kam qo‘llanishi bo‘lsa; ikkinchidan, unda ilmiylik va badiiylik ma‘no qirralarining borligi.

Bizningcha, birikma ko‘rinishidagi “oltin bitik” terminining quyidagi ma‘no qirraliklari bor.: 1) topib aytilgan ma‘nili, mazmunli ibratomuz fikr-mulohazalar; 2) qadimiy qo‘lyozma asar; 3) noyob toshbitik; 4) xalq tiliga xos, lekin haligacha maxsus o‘rganilib, yig‘ib olinmagan dialectal so‘zlar; 5) ulug‘ ijodkorlarning tanlangan asarlari; 6) kam miqdordagi qadimiy asar; 7) kam nusxali mukammal asar; 8) qadimiy va tarixiyli bilan ham xalq tilini, ham xalq tarixini ulug‘lovchi nom(toponim, oykonim, oronim, gidronim, dromonim, fitonim, zoonim, etnonim kabi)lar; 9) yoshlarning ta‘lim-tarbiyasiga mo‘ljallangan zamonaviy, biroq har jihatdan mukammal va saylanma tipidagi asarlardir. Uning ma‘nolariga yana qo‘shimcha qo‘shish mumkin.

Agar nomlar, xususan, obrazli nomlanishlar orqali shakllangan toponimlar hamda dialektal so‘zlar “oltin bitiklar” hisoblanar ekan, demakki, ularning to‘plangan va bir butun holdagi majmui esa “oltin bitiklar fondi” hisoblanadi. Xullas, nashrdan chiqan “*O‘zbekiston toponimlarining etimologik lug‘ati – Toponimlar tilsimi*”¹ ham “oltin bitiklar fondi”ning bir bo‘limini tashkil etishi aniqdir.

O‘zbek lug‘atchiligida ayni vaqtgacha turli nom va miqdorda ko‘p lug‘atlar yaratilganligi bor haqiqat. Biroq “*O‘zbekiston toponimlarining etimologik lug‘ati – Toponimlar tilsimi*” kabi etimologik tahlil bilan shakllangan toponimik lug‘at haligacha yaratilmagan. Sababi, bunday

¹ Enazarov T. va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati – Toponimlar tilsimi. –Toshkent: Nodirabegim, 2019. -222 b.

lugʻatning oʻziga xos muammo va vazifalari bor. Toʻgʻri, bir necha olimlarning toponimlarning taʼbirli, izohli, etimologik tahliliga bagʻishlangan ilmiy ishlari nashr etilgan, ammo ular etimologik lugʻatlar holatiga keltirilmagan. Mazkur lugʻat oʻzbek lugʻatchiligida shunday ilk lugʻat boʻlganligi sababli mualliflar ancha ehtiyokkorlik bilan ish olib borishgan. Albatta, oʻzbek onomastikasiga hamda uning boʻlimlariga oid oldingi ilmiy va ilmiy metodik ishlarga tanqidiy yondashib, tanqidiy baho berish vaqti keldi.

“Oʻzbekiston toponimlarining etimologik lugʻati – Toponimlar tilsimi”ni shakllantirish uchun joy nomlarining etimologik tahlilini etimologik tadqiq tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirish lozim boʻladi. Etimologik tahlil toponimlar toʻgʻrisidagi mavjud tahlillarning eng mukammali va murakkab koʻrinishidir. Shu bilan birga, soʻz hamda toponimlarning etimologik tahlillari ham bir-biridan tubdan farq qiladi, ularni aralashtirib yuborib boʻlmaydi.

Markaziy Osiyo, jumladan, mamlakatimiz toponimlarini oʻrganish qadim-qadim zamonlardan boshlangan boʻlsa ham, XX asrning 50-60-yillaridan boshlab toponimlarning nomlanish asoslari, motivlari, motivatsiyasi, baʼzi bir nomlarning tavsifiy, tasnifiy, ensiklopedik talqinlariyu izohi va etimologiyasiga doir fikrlarni ilmiy asosda mukammal tadqiq qilish amalga oshirila boshlangan. Bugungacha toponimlar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili majmui joy nomlarining etimologik tahlilining zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston onomastikasi, xususan, toponimiyasi boʻyicha oʻndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilingan, bir necha monografiyalar va joy nomlarining izohli lugʻatlari nashr etilgan. Bu ishlarni amalga oshirishga oʻzbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, 3. Doʻsimov, B. Oʻrinboyev, S. Qorayev, T. Nafasov, F. Gʻulomov, M.Mirakmalov, N.Husanov, N. Oxunov, S. Naimov, Y. Xoʻjamberdiyev, L. Karimova, J. Latipov, M. Ramazanova, T. Rahmatov, Sh. Qodirova, A. Zokirov, K. A. Abdumuratov, T.Enazarov, N.Uluqov, X. Xolmoʻminov, A. Otajonova, A. Turopov, A. Yesenmurotov, I. Xolmurodovlar hissa qoʻshishdi.

Hozirgacha yurtimizning *oltin bitiklaridan* biri boʻlgan toponimlari monografik tadqiqot sifatida maxsus etimologik tadqiq etilmagan. Oʻzbekiston toponimiyasi boʻyicha yozilgan ilmiy ishlarning koʻpchiligida joy nomlarining lugʻaviy qatlamlariga oid bir qancha fikrlar bildirilgan. Ammo bu qatlamlarga oid tahlillar hajman qisqa

bo‘lib, ularga oid ayrim mulohazalargina aytilgan, xolos. Buning ustiga, ushbu tahlillarda joy nomlari talqiniy, tasnifiy hamda tavsifiy mazmunda izohli talqin qilingan. Ularda toponimlarning yasash xususiyatlari va izohlanishi, geografik tafsiloti haqidagi fikr-mulohazalar, an’anaviy grammatika talablari asosida tahlil qilish usullari ustun bo‘lgan.

Ammo XX asrning 90-yillarigacha so‘zlarning apellyativ (odatdagi) so‘zlar va onomastik (nomlash uchun) leksika deb ikkiga bo‘lib o‘rganilishi; ularning farqlari farqlab berilmagani; topoasos, topoformant va topoinikator terminlari talqinlari; toponimlashuv, etnonimlashuv; nomlarning imlosi va talaffuzi masalalari; topoob’ektlarga nom qo‘yish qonuniyatlari va ularni qayta nomlash talablari; toponimlar tahlilining odatdagi grammatik tahlildan farqlari; nom va toponimlarning tahlili toponimik tahlilligi hamda ularning onomastik tahlil talablariyu me’yorlariga, ya’ni omil, usul va tamoyillarining amal qilishi, mamlakatimiz hududidagi onomastik qonuniyatlarning o‘ziga xosligi; onomastik leksikografiyaning talab va me’yorlari; toponimik lug‘atlarni tuzish talab hamda me’yorlari; onomastik grammatika va topogrammatika talablarining lingvistik grammatikadan farqlanishi; onomastik morfologiya, topomorfologiya, onomastik sintaksis va toposintaksis masalalarining nazariy hamda amaliy talqinlari; nom va toponimlarning “oltin bitiklarning oltin fondi” - qizil kitobi masalasi, nom hamda toponimlarning mukammal izohli tahlili va etimologik tadqiqotiga asoslangan etimologik tahlili, undagi haqiqatga yaqinlik va etimon masalalari ilmiy nazariy hamda ilmiy amaliy jihatlardan asoslanmagan edi.

Sababi, *oltin bitiklarning o‘ziga xos majmuasi* bo‘lgan “O‘zbek onomastikasi” XX asrning 20-yillaridan to XX asrning 90-yillarigacha shakllanish davrida edi. Bu davrda onomastika sohasida Yevropa va rus olimlarining ilmiy kuzatishlarining ilmiy tadqiqotlar sifatida muvaffaqiyatli amalga oshirilib, ularning ilmiy nazariy hamda amaliy natijalari tarjima qilinmagan va tarjima qilingan holatlarda “*O‘zbek onomastikasi*”ga singayotgan edi. Ilmiy kuzatishlarda odatdagi apellyativ so‘zlar bilan nomlashga asos bo‘ladigan onomastik leksika sathiga oid so‘zlar endi-endi farqlanayotgan; onomastik ob’ektlarning nomlari bo‘yicha ensiklopidik, tavsifiy, tasnifiy va izohli tahlillar farqlanib, amalga oshirilayotgandi. Onomastik ob’ektlar boshqa turdagi ob’ektlardan ma’no, mazmunu mohiyat jihatlardan ajratilayotgan; grammatik tahlil bilan onomastik va toponimik tahlil, leksik ma’no

onomastik, xususan, toponimik ma'nolardan ajratish masalalarini farqlash jarayonlari bo'yicha ilmiy kuzatishlar yakunlanayotgan bir davr edi.

XX asrning 80-90-yillarida taniqli nomshunos olim filologiya fanlari doktori, professor E.Begmatovning ushbu sohadan ilmiy ish olgan shogirdlari endigina ilmiy kuzatishlarga kirishishgan, o'zbek onomastikasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy nazariy hamda ilmiy amaliy xarakterdagi sara kitoblari nashr etilmagan edi. Shuningdek, ushbu kitob muallifining doktorlik dissertatsiyasi muvaffaqiyatli himoya qilinmagunicha yurtimiz toponimlari monografik tadqiqot tarzida maxsus etimologik tadqiq qilinmagandi. Sababi, ularni etimologik tadqiq qilishning tamoyil, usul va omil singari me'yorlari o'rganilmagan edi. Shuning uchun ham ular toponimlarning etimologik tadqiq yo'llari sifatida amalda qo'llanmagan. Bu hol respublikamizdagi toponimlarning yetarli to'planmaganligini, o'ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlari mukammal tadqiq etilmaganligini, ularni etimologik tadqiq qilishning me'yoriy tizimi maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmaganligini hamda amalga oshirilgan ba'zi bir joy nomlarining tahlillari, asosan, *qayd etish – taxmin – xalqona talqin* tarzida olib borilganligini, ya'ni to'liq yakunlanmaganligini anglatadi. Holbuki, toponimlarning etimologik tadqiqi *muammo – tadqiq - taxmin – tahlil – talqin – yechim* shaklida olib borilishi bilan ularda mamlakatimizdagi xalqlarning milliy ruhi va til tizimining ichki rivojlanish qonuniyatlari mujassamlashganligini mantiqiy izchillikda ko'rsatish lozim. Chunki vaqti kelsa, tosh ham, temir ham yemirilishi mumkin, lekin xalq tomonidan qo'yilgan va qo'llanayotgan nom, toponim hamda dialektal so'zlar oltin bitiklar sifatida hech qachon yemirilmaydi, xalq tilida saqlanib qoladi. Faqat ularni dialektologiya metodologiyasiga asoslangan holda yig'ib, ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslarda tadqiq etish lozim.

4-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI VA DIALEKTOLOGIYA METODOLOGIYASI

4.1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNNING IJROSI - “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI”NING DOLZARB MASALALAR YECHIMI

“Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin....Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar.

Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko‘rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

“Bizning yoshlar albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar”. Lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – vataniy ishdir. Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan bir bo‘lishi zarur. O‘zbek tili – ona tilimizning nufuzi, obru-e’tibori yanada ziyoda bo‘lsin. Shunday bebaho boylik sohibi bo‘lgan, uni hamisha asrab-avaylab kelayotgan aziz xalqimiz omon bo‘lsin”.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Albatta, qabul qilinganiga o‘ttiz yildan oshgan “Davlat tili haqida”gi qonunning amalda bajarilishida adabiy til muammolari bilan birga o‘zbek shevalarining leksik boyligini amalda yig‘ish va tadqiq etish masalasi ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, “O‘zbek dialektologiyasi” o‘z ichida ikkita katta qismga bo‘linadi: 1) “O‘zbek dialektologiyasi” sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ilmiy yangilar bilan shakllangan monografiya va ilmiy to‘plamlar sifatida nashr etiladi; 2) “O‘zbek dialektologiyasi” fani. Quyida shu ikki qismga dahldor bo‘lgan dolzarb va hal qilinishi kechiktirib bo‘lmaydigan masalalar to‘g‘risidagi fikrlarimizni beryapmiz:

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu - adabiy tilimiz bilan shevalarimizning xususiyatlarini oldingi vaqtlardan ko‘ra nisbatan yana ham o‘zaro yaqinlashtirish masalasidir. Bu fikr hozir kimlarningdir g‘ashini keltirishi mumkin, lekin tilimiz ulug‘ daryolarimiz kabi oqqan o‘zanidan yana ham oqaveradi, bunga shubha yo‘q. Demak, adabiy tilning so‘z o‘zlashtirish, imlo va orfoepik qoidalarini sal yumshatish zaruriyati sezilmoqda.

Zero, turkiy tillar ichida faqat o‘zbek tilida turkiy tillarga xos xususiyatlar adabiy til doirasida ancha kam berilganligi ko‘p tilshunoslar aytishgan. Alifbomiz va imlomiz sohasidagi yangiliklarga qo‘shilamiz. Biroq alifbomiz va imlomiz sho‘rolar davrida tuzilgan chegaradan nariga, aniqrog‘i, turkiy tillarga xos xususiyatlar majmui zaminiga o‘ta olmayapti. Bu boradagi takliflarimiz:

1) shevalarning umumiy xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda alifbodagi harflar tizimiga cho‘ziq va qisqalik, qattiq hamda yumshoqlik xususiyatlarini singdirib borish kerak;

2) alifbomizdagi harflar tizimiga cho‘ziq va qisqalik, qattiq hamda yumshoqlik xususiyatlarini singdirish asosida imlo va talaffuz qoidalarini ham o‘zgartirib borish shart, ya‘ni boshqa turkiy tillar kabi tilimizga xos va mos bo‘lgan singarmonizm elementini imlo qoidalariga singdirish lozim.

Dialektal so‘z masalasi “O‘zbek dialektologiyasi”ning juda bahsli masalalaridan biri. Chunki dialektal so‘zlarning turlari o‘nta, XX asrning 70-80-yillarida professor A.G‘ulomov va professor, keyinchalik akademik bo‘lgan Sh.Shoabdurahmonovlarning sof dialektal so‘zlarni o‘rganish ilmiy nazariy konsepsiyasiga amal qilingan holda 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” sof dialektal so‘zlar asosida shakllantirildi. Buning natijasida esa O‘zbek xalq shevalarining lug‘aviy boyligini o‘zida jamlagan va umumiy holda ifodalaydigan bor-yo‘g‘i bittagina “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” yaratilgan¹. Undagi dialektal so‘zlardan archa qismi A. Ishayev tomonidan tayyorlangan qon-qarindoshlikni ifodalovchi terminlar, xolos². Shu bilan birga tadqiq etilgan har bir sheva bo‘yicha lug‘atlar o‘sha tadqiqotlarda hali hanuz qolib ketmoqda. Bu haqida A. Ishayev kuyinib, maxsus to‘xtalgan tadqiqoti bor³.

Dialektal so‘z va uning turlari xalq tilining boyligi hisoblanadi, ularni unutishga yohud tashlab yuborishga hech kimning haqqi yo‘q. Faqat ularni yig‘ish, saralash va lug‘atlar holatiga keltirishimiz shart.

¹ Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971. –В. 2-319. Шунингдек, диалектал луғат тузишга эътибор ҳам қилишмаган: Абдуллаев Ф. А. Диалектал луғат тузиш принциплари ҳақида // ЎТА.Т., 1966. 2-сон. –В. 39.

² Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971. 320-betdan to oxirigacha A.Ishaevning “Ўзбек шеваларида қариндошлик терминлари”.

³ Qarang: A. Ishaev. Ўзбек шеваларининг диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990. –В. 4-12.

Dialektologik lug‘atlar muammosi. Dialektologik lug‘atlar sheva vakillaridari nutqidan yozib olingan matnlar asosida lug‘at maqolalarni ajratib va shakllantirilib, shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lindi:

1. Umumiy dialektal lug‘atlar.
2. O‘quv dialektal lug‘atlar.
3. Mavzuiy yoki individual dialektal lug‘atlar¹.
4. Mukammal tayyorlangan dialektal lug‘atlar.

Umumiy dialektologik lug‘atlarga barcha dialektal so‘zlar alifbo tartibida kiritilib, ularning lug‘at maqolalari dialektal matnlar asosida tayyorlanadi.

Mavzuiy yoki individual dialektologik lug‘atlar esa mavzular va dialektal so‘zlarning turlari asosida tayyorlab boriladi.

O‘quv dialektologik lug‘atlar ta’lim-tarbiya jarayonlarida faol qo‘llanadigan lug‘atlardan biri hisoblanadi. Bunday lug‘atlar umumiy va mavzuiy lug‘atlardan ta’lim-tarbiya va odob-ahloqqa oid dialektal so‘zlarning berilishi bilan farqlanadi².

Dialektologik lug‘atlarning har biri ayni vaqtda alohida leksikografik va dialektologik masalalar yechimi majmuini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu masalalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish haqidagi farmonda ham aniq ifodalangan: “...o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish”³.

Dialektologik ekspeditsiyalar muammosi. Sababi ular ancha vaqtdan buyon o‘tkazilmayapti. Ko‘pincha ushbu muammo ham dialektologik amaliyot bilan almashtirilib yuboriladi. Dialektologik amaliyotlar talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yozda o‘tkazish

¹ Bir sheva lug‘ati sifatida yaratish kerak. Qarang: Ястремская Т. А. Словар одного говора // Славянская диалектная лексика. Санкт-Петербург, Наука, 2011. с. 106-109. Эназаров Т., Каримжоновна, Эрназарова М., Махмадиев Ш., Рихсиева К. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, Университет, 2012. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси фанидан амалиёт. Т., Университет, 1996. Эназаров Т., Абдуллаев Х. Дialektologik amaliёт сўроқлиги. Т., Адабиёт учкунлари, 1996.

² Bu tasnifni biz amalga oshirdik.

³ Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligining birinchi va ikkinchi kurslarida “Dialektal leksikografiya” va “O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi” nomli tanlov fanlarining o‘qilishi amalga oshirilmogda.

rejalashtirilgan. Shunga ko'ra unga DTSlardan ortiq talab qo'yib bo'lmaydi¹.

Dialektologik ekspeditsiyalar esa dialektolog olimlar rahbarligida tadqiqotchilar tomonidan yilning istagan faslida rejali asosida o'tkazilishi shart². XX asrning 70-yillarigacha dialektologik ekspeditsiyalar amalda bo'lganligi manbalardan ayon bo'lib turibdi³. Ayni vaqtda fan texnikadagi yangiliklardan ba'zilarini sheva matnlarini yozib olishda qo'llasak, ortiqcha mablag' ham, ortiqcha vaqt ham ketmaydi. Bu masalada mutaxassislarning maslahat va ko'magi olinganki, biz dialektologik ekspeditsiyalarda qo'llashni istagan kompyuter va telefon qurilmalari majud ekan. Faqat uni amalda qo'llasak, dialektologik ekspeditsiyalarga ketadigan xarajatlar teng yarmiga qisqarib, dialektal matnlarning sifati va saviyasi ortadi⁴.

O'zbek xalq shevalarini keng miqyosda o'rganib, barcha o'zbek shevalarining dialektal materiallarini jamlash uchun bir necha o'n yilliklarga mo'ljallangan davlat ta'minotiga asoslangan ilmiy tadqiqot ishi loyihalarini dialektolog olimlarni jam qilgan holda berib, ularning qo'llariga haftama-hafta, oyma-oy bajarilishi rejalashtirilgan maxsus ish dasturini talab qilish shart⁵.

O'zbek shevalarining lug'aviy boyligi hamda shevalar lug'atchiligiga, ya'ni dialektal leksika va dialektal leksikografiya masalalariga e'tibor zarurligi tabiiy hol. Chunki bizning shevalarimiz leksikasi va leksikografiyasi masalalarini boshqa joydan kelib qilib berishmaydi, balki o'zimiz qilishimiz shart. Ayni vaqtda olib borilgan ilmiy kuzatishlarimiz natijasida va yozib olingan dialektal matnlarni jiddiy o'rganib, shunday xulosaga keldikki, biz yozib olgan dialektal matnlar ikki-uch betli bo'lib, ularda 70-90 tagacha dialektal so'zlarni ajratish mumkin⁶.

¹ Ushbularni ham qo'limizdagi dialektal matnlar va dialektal leksikografik materiallarga tayanilgan holda amalga oshirdik.

² Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4797-sonli Farmoni. 2016 yil 13 may.

³ Talabalarga bunday ortiqcha talab qo'yish o'quv jarayonining borishiga ziddir.

⁴ Dialektologik ekspeditsiyalar va dialektologik amaliyot mutaxassislarni tayyorlash uchun doimo zarur o'quv jarayonlaridan biri.

⁵ XX asrning 50-70-yillarida Dialektologik ekspeditsiyalar va dialektologik amaliyotlar vaqtida ko'p materiallar yig'ilgan. Masalan, Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек шевалари морфологияси. Тошкент, Фан, 1984. 248-271-бетлар.

⁶ Mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, biz dialektologik ekspeditsiyalarda qo'llashni istagan kompyuter hamda telefon qurilmalari majud ekan. Faqat uni amalda qo'llasak, dialektologik ekspeditsiyalarga ketadigan xarajatlar teng yarmiga qisqarib, dialektal matnlarning sifati va saviyasi ortadi.

Agar bir qishloqdan shunday dialektal matnlardan nari borsa, 50-60tadan yozib olsak, ularni 70 taga ko‘paytirsak; mahalla, guzar, qishloq, shahar va shaharchalarning hozirgi miqdori respublika bo‘yicha sakson uch mingdan ortiqligini hisobga olsak, eng kamida ikki–ikki yarim milliondan ortiq dialektal so‘zlarimiz hali hanuz sheva vakillari nutqida saqlanib qolmoqda¹. Bu degani – o‘zbek xalq shevalarining dialektal so‘zligidan ikki yuz tomga yaqin dialektal lug‘at degani. Ammo bunday lug‘at umuman biron bir xalq tilida yaratilmagan.

Buni tushungan va qadrlaydigan mutaxassislar kerak. Axir aytilgan miqdor o‘zbek tilining boshqa turkiy tillardan miqdor va salohiyat jihatdan yuqori pog‘onada turganligini ko‘rsatib turadi. Lekin bu masaladan o‘ndan ortiq maqolamiz chiqqan bo‘lsa-da, ammo O‘zbek tilini rivojlantirish davlat departamenti ham, davlat tili masalalari bilan shug‘ullanadigan boshqa yuqori tashkilotlar ham haligacha jim o‘tirishib. Ming qatla shukurki, oliy rahbarimiz – O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning bir qancha farmon va nutqlarida bu sohada ham tanqidiy tahlil asosida ilmiy kuzatishlar olib borish haqida maxsus to‘xtalganlari bizga kuch va ishlashga ma‘naviy-ma‘rifiy turki beryaptilar². Sababi, biz ilgari surayotgan masalaning nechog‘li zarurli va ahamiyatligini tushunadigan mutaxassislar boshqa masalalarga yo‘naltirilgan. Bizga o‘xshagan o‘ttiz yillab o‘zbek dialektologiyasi sohasida dars berib, maqola, kitob, o‘quv qo‘llanmalari yozganlarning fikrini eshitadiganlarning qo‘log‘ida telefon, bizni eshitishga xohishlari ham yo‘q. Ammo bizda bor-yo‘g‘i to‘rt yarim mingdan sal ortiq dialektal so‘zlar sof leksik dialektal so‘zlar majmuidan yig‘ilganligi sababli 1971-yilga “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da turganligini³ ta’kidlash shart.

To‘g‘ri, quyidagi lug‘atlarni ham kamchiligi bor bo‘lsa-da, ilmiy manbalardan biri sifatida foydalanish mumkin: B.To‘ychiboyev, S. Shirinov, Q. Qashqirli. Tuganmas boyliklar bulog‘i (-Toshkent: O‘qituvchi, 1991). Rahimov S.Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati (Denov,1993). B.To‘ychiboev, Q.Qashqirli. Zomin so‘zligi (-Toshkent, 2008). T.Nafasov T. Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari (-Toshkent:

¹ Dialektologik ekspeditsiyalar va dialektologik amaliyot mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus dastur asosida ishlash lozim.

² Dialektologik amaliyot va “O‘zbek dialektologiyasi”dan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkanimizda buni talabalar bilan birga sinab ko‘rganmiz ham.

³ Bu miqdor ortishi ham mumkinligi tabiiy, chunki shevalarimiz hali hanuz to‘liq va mukammal o‘rganilmagan.

Muharrir, 2011)¹. Lekin ularda leksikografik va dialektal lug‘at maqolalar tuzishda kamchiligi bor.

Chunki biz ko‘tarib chiqayotgan masala o‘zining dolzarbligi bilan o‘zbek tilining va ayni vaqtda o‘zbek xalqining nufuzini jahon miqyosida ko‘taradigan, salohiyatining qanchaligini asoslaydigan fundamental masalalardan biridir². Biz o‘zbek shevalarining mavjud so‘zlarini saqlab qolsak, ming-million yildan keyin ham o‘zbek tili saqlanib qoladi va boshqa tillarga qo‘shilib ketmaydi³.

4.2. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI”NI O‘QITISH VA BU SOHADA TADQIQOTLAR OLIB BORISH METODOLOGIYASI XUSUSIDA

So‘zsiz, “O‘zbek dialektologiyasi”ni o‘qitish va DL (dialektal lug‘at) tuzish uchun shevalardan maxsus so‘roqlik yoki savolnoma asosida yig‘ilgan va axborotchilari aniq bo‘lgan dialektal matnlardan iborat materiallar kerak. Sababi, bugungacha shevalarni o‘rganish metodikasi hamda metodlari; shevalarni tadqiq etish metodikasi; lahja va shevalarni ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslardagi tadqiqining metodologiyasi kabi dolzarb masalalariga e‘tibor berilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tanqidiy tahlilga asoslanib ish olib borish kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatma va fikr-mulohazalariga asoslanib, “*O‘zbek dialektologiyasi*” fani va sohasidagi quyidagi holatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

¹ Bu haqida adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.

² Ushbu materiallar ilmiy manbalardagi ilmiy axborotlarga asoslanilgan. Qarang: Дialeктологический атлас башкирского языка / Акад. Респ. Башкортостан, Отд-ние гуманитар. наук, РАН, Уфим. науч. центр, Ин-т истории, яз. и лит. Уфа: Гилем, 2005. 402 с.: карт. Дialeктологический словарь башкирского языка. Уфа: Изд-во: Китап, 2002. 432 с. Тараканов И. В. К истории изучения удмуртско-тюркских языковых контактов // Вестник Удмуртского университета. 2012. Вып. 2. С. 23-31. Халиуллина Н.У., Шайхулов А. Г. Тюркские языки Урало-Поволжья в контексте алтайского языкового сообщества (Опыт лексико-семантического и идеографического словаря. Ч. III. Словарь односложных корневых основ тюркских языков Урало-Поволжья: монгольских, тунгусо-манчжурских языков в рамках когнитивных сфер «Природа», «Человек», «Общество», «Познание (априори)»). Уфа: Изд-во «Восточный университет», 2004. 200 с. Шайхулов А. Г. Структура и идеографическая парадигматика односложных корневых основ в кыпчакских языках Урало-Поволжья в континууме ареальной, межтюркской и общетюркской лексики. Уфа, 2000. 490 с.

³ Ular, so‘zsiz, Urhun-Enasoy tosh bitiklari kabi abadiylikka qoladi. Agar harakat qilib, shevalarimizning leksik materiallarini yig‘ib, amalga kirita olsak, ertaga ona tilimiz rus, ingliz yoki arab tillari kabi xalqaro tillarning ta’siriga tushmaydigan tilga aylanishi tabiiydir.

1. Bugungi kunda turli fanlar doirasida innovatsion texnologiyalar amalda qo'llanayotgan bir paytda “*O‘zbek dialektologiyasi*” fanining bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligida o‘qitish hamda mazkur soha bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish metodikasi muammolari haqida fikr yuritish kerak. O‘zbek dialektologiyasi masalalari XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan davrdagi ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar qattiy bir tartibda olib borilmagan, tadqiqotchilarning tashabbuslari asosidagi ilmiy izlanishlarning faoliyati stixiyali tarzda, ya’ni kim qaysi shevani ishlashini o‘zi hal qilgan. Mamlakatimiz hududi shevashunoslik bo‘yicha maxsus markazlashtirilgan kordinatsion kengash qarori bilan birma-bir o‘rganilmagan, nomigagina ilmiy ishlar olib borilgan. Natija ham shunga yarasha – markaziy shaharlar shevalari o‘rganilgan, qolgan hududlar esa umuman qolib ketgan va dialektal matnlari ham yig‘ilmagan¹. Bu haqidagi fikr-mulohazalar hozir birinchi marta aytilayotgani yo‘q, balki bundan o‘ttiz besh yil oldin ham o‘zbek dialektologlaridan biri Do‘stmurod Abdurahmonov tomonidan aytilib, maxsus ilmiy ishda ta’kidlangan². Ushbu masalalarga e’tibor berilmagani uchun ilmiy ishlarni olib boradigan dialektolog mutaxassislar va dialektologiya masalalari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar masalasi bahsli mavzu bo‘lib qolmoqda. Soha bo‘yicha yozilgan (mavjud besh yuzga yaqin) ilmiy ishlar tanqidiy tahlil asosida ko‘riladigan bo‘lsa, ularning qariyb hammasi amaliy xarakterdagi ishlar bo‘lib, ma’lum qismigina nazariy xarakterdadir.

“*O‘zbek dialektologiyasini o‘qitish*” bo‘yicha ilmiy metodik ishlar yo‘q hisobi. Bu masalada XXI asrning o‘ninchi yillarigacha faqat darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan javob berilgan bo‘lsa, 2016-yildan boshlab mazkur masalaga professor Samixon Ashirboev jiddiy yondoshganligi uchun uning quyidagi ilmiy metodik xarakterdagi maqolalari e’lon qilingan³: “*O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari*” (bir

¹ Bu bilan o‘zbeklarning shevasi ham bor-yo‘g‘i shu, degan noto‘g‘ri xulosani keltirib chiqarish bo‘lgan.

² Ushbu fikrni asoslaydigan haqida maxsus maqola yozilgan, qarang: Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалари морфологиясининг ўрганилиши // Ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент: Фан, 1984. –B. 248-271.

³ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari // Pedagogika. 2016, 3-son. – B.56-60. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari // Pedagogika. 2016, 4-son. –B.21-24. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (Grammatik son talqini) // Pedagogika. 2016, 5-son. –B.79-82. Ashirboyev S., Xidraliyeva Z. R. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (xorij tajribasini milliy lashtirish) // Pedagogika. 2017, 1-son. –B.109-114.

nomda ikkita davomli maqola), “O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (grammatik son talqini)”, “O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (xorij tajribasini milliylashtirish)”, “O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (so‘z yasalishi masalasi)”.

Shu bilan birga o‘zbek xalq shevalari bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib boradigan “Dialektologik laboratoriya”sining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi masalasi haligacha ochiq turibdi. Ammo bu masala rus (masalan, “Учебно-научная лаборатория по фонетике, диалектологии и речевой коммуникации НИИ лингвистических исследований при филологическом факультете Кубанского государственного университета. Тематика исследований: актуальные вопросы фонетики. Разговорной литературной и диалектной речи; современные коммуникативные процессы”. Национальный исследовательский Томский государственный университет Лаборатория общей и сибирской лексикографии. Ву лаборатория vakillari 400 aholi punktini, 26ta lug‘atni 44ta jild sifatida tuzishgani, “Вопросы лексикографии” jurnalida sheva leksikasi hamda leksikografiyasi bo‘yicha turkum-turkum maqola e’lon qilishgani uchun nomzodlik va doktorlik unvonlarini olishgan, shuningdek, rus shevalarini ilmiy asoslarda tadqiq etishgani uchun ular 1997-yilda Rossiya Fedratsiyasining Davlat mukofotini va ilm-fanga oid boshqa mukofotlarni ham olishgan.)¹, mo‘g‘ul² va romana-german tillariga oid shevalarni o‘rganadigan laboratoriyalar faoliyati bilan hal qilingan (Centre for Dialectology. Bu dialektologiya markazi 1909-yilda Daniya Folklor Jamiyati tarkibida paydo bo‘lgan. Keyinchalik Dialektal Komissiya nomi bilan yuritilgan va 1992-yilda mustaqil institute siatida faoliyat olib borgan. 1960-yildan Kopenhagen Universiteti tarkibida Daniya Dialektal ilmiy tekshirish institute nomi bilan ish boshlagan. Ushbu dialektologiya markazi quyidagilarni tadqiq qilishni o‘z ichiga olgan: 1) Daniyadagi dialekt va mahalliy tillarni o‘rganish; 2) tillardagi xilma-xillik va o‘zgarishlarni; 3) tillar o‘rtasidagi aloqa, tilning xususiy

Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi ta’limi: Yangilanish tamoyillari (So‘z yasalishi masalasi) // Pedagogika. 2017, 4-son. –B.106-109.

¹Quyidagilarga qarang: Filfak.kubsu.ru/index.php/fakultet/2012-12-26-13-57-09/uchebno-nauchnaya-laboratoriya-po-fonetike-dialektologii-i-rechevoj-kommunikatsii. см. <http://journals.tsu.ru/lex>.

² Дайриймаа Баасанжаргал. Фольклорные материалы в фонде фольклористики в диалектологии Института языка и литературы Монгольской Академии наук // Коллекции и архивы. -Москва, 2008. –стр.294-296.

tomonlarini va jamoatlarini o‘rni haqida. Dialektologiya markazida dialekt, og‘zaki nutq, yozib olingan bitiklar va zamonaviy jamiyat bilan birgalikda o‘rganish ham e‘tiborga olingan)¹. Kelajakda bizning o‘zbek dialektologlari ham yuqoridagi kabi muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin.

Shuningdek, “O‘zbek dialektologiyasini o‘qitish metodikasi va metodologiyasi” nomli o‘quv qo‘llanma yoki darslik haligacha yaratilmadi, biroq izlanishlar olib borilmoqda.

Shevalardan to‘plangan yoki to‘planadigan dialektal materiallarini tavsifiy, tasnifiy, fonetik, leksikografik, morfologik, morfofonologik, grammatik, statistik va etimologik jihatlardan tadqiq etish zaruriyati sezilib turibdi:

1. “O‘zbek dialektologiyasi”da shevalar XX asrning 20-yillaridan o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, hozirgi kungacha to‘liq o‘rganilmagan. O‘zbek shevalari dialektal matnlarsiz to‘liq o‘rganilmay, tasniflashga kirishilgan. Bu tasnif shevalar to‘liq o‘rganilgach, tuzatilishi mumkin bo‘lgan nisbiy tasnifdir.

2.O‘zbek shevalari bo‘yicha dialektologik atlaslar tuzish masalasi ham nomigagina amalga oshirilgan. Ammo bunday biror ish qilingani, hatto, arxivlardan ham topilmadi, chunki dialektal matnlar yozib olinganda dialektologik atlaslarni tuzishga kirishish mumkin edi.

3.O‘zbek shevalarini lingvogeografik metod asosida o‘rganish jarayoni ham to‘liq amalga oshirilmagan.Ushbu metodga bag‘ishlab bir necha maqola va bir kitobdan boshqa ishlar amalga oshirilmagan.

4.Shevalarimizni o‘rganish bo‘yicha dialektologik amaliyot o‘tkazish XX asrning 90-yillarining boshidan to 2012-yilgacha “Dialektologik amaliyot” ko‘rinishidagi malakaviy amaliyotlar faqat fidoyi ustozlar va bilim olishga chanqoq talabalarning o‘zlari hisobidan amalga oshirilgan.

5.O‘zbek shevalari to‘liq o‘rganilmagani uchun olib borilayotgan tadqiqotlar yakunlanmay qolib ketgan.

6.O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha malakaviy amaliyotlar o‘tkazish kamayib-kamayib, to‘xtab qolgach, “Shu sohaning tajribali mutaxassislari bormi?” degan savolga javob berish dargumon. Bo‘lajak

¹ Qarang: John Benjamins Pub. The dialect laboratory: dialects as a testing ground for theories of language change (Dialektologiya laboratoriyasi: dialektlar, tildagi o‘zgarishlar nazariyasini tekshirish omili / vosiatisi sifatida). Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Pub. Co.,2012. (See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/262223674>)

mutaxassislar hech bo‘lmasa, darslarda eshitgan fikrlarini dialektologik amaliyotda ko‘rib, bilib, eshitib, yaxshilab tushunib olardi-da. Bular esa o‘z-o‘zidan shevashunoslik sohasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradigan mutaxassislarning juda ham kamayib ketishiga olib kelmoqda.

7.O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha qilingan ishlar qanchalik ko‘p deb o‘ylasak, shunchalik kamdir. Chunki ularning mukammalligi amaliy va nazariy ahamiyatga molikligi jihatdan sifatiy ahamiyati juda past. Buning isboti shevalar bo‘yicha tuzilgan lug‘atda dialektal leksigografik talablarga kam e‘tibor berilgan va dialektal so‘zlarning turlariga e‘tibor berilmagan. Shuningdek, sheva vakillari nutqi dialektal matnlar sifatida yozib olinishi kam uchraydi. Natijada shu yozilgan dialektal matnlarning tadqiqi nomigagina amalga oshirilgan.

Fattoh Abdullayev, Ayub G‘ulomov, Shonazar Shoabdurahmonov, Mustaqim Mirzayev, Sobirjon Ibrohimov, Ahmad Ishayev, Do‘stmurod Abdurahmonov kabi o‘zbek dialektologlarining bu masaladagi fikrlari har xilligi uchun dialektal lug‘atlar tuzishga hech kim botinmagan.

Va yana shevalar tadqiqi bo‘yicha yaratilgan materiallar dialektologiya metodologiyasiga tayanilgan holda mazmunan quyidagi ko‘rinishlarga ega edi:

1.Sof nazariy mazmundagi ishlar – XX asrning 20-yillaridan to XXI asrning 10-yillarigacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bunga misol bo‘ladi.

2. Nazariy, amaliy xarakterdagi monografik tadqiqotlar va “O‘zbek dialektologiyasi” bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalari.

3. Ilmiy amaliy xarakterdagi dialektal lug‘atlar va sheva, lahjalardagi, tarixiy va badiiy asarlardagi dialektizmlar ajratilib, tahlillar vositasida yoritilgan ilmiy maqolalar.

Sohaga tegishli ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi mavzularini qanday hamda qay tarzda tadqiq etish va o‘zbek dialektologiyasini bakalavriyat yo‘nalishlarida va magistratura mutaxassisligi doirasida o‘qitish masalalari bayon etilgan metodik xarakterdagi ilmiy ishlar amalga oshirilmagan. Sababi: 1) to‘g‘ri, bu sohada darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan. Ularning asosiy maqsadi shevalarimiz boyligini imkoniyat doirasida qamrab olish, o‘rganish va o‘zlashtirishga qaratilgan. Chunki ular vaqt, davr va misollar nuqtai nazaridan ham eskirdi. Bu esa sohada darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishning metodikasini ishlab chiqish va ilmiy

asoslarda shakllantirish orqali shevashunoslikda talaba va magistrantlarga o'qitish mo'ljallangan mavzularni o'qitish metodologiyasidan tortib, soha uchun zarur va kerakli qo'llanmalar yaratilishiga ham asos bo'ladi.

2) maqola, o'quv metodik qo'llanma, o'quv qo'llanma va darslikda biron bir sheva yohud lahja qiyosiy planda kam tadqiq etilgan, ya'ni biror bir hodisa, yo dialektal so'z, yo uning ma'nosi bor yo'qligi rad qilinib, yo qo'llab- quvvatlanmagan; 3) o'zbek shevalari to'liq o'rganilmaganligi uchun bu sohada yozilgan maqola, risola, monografiya, o'quv qo'llanma, darsliklarda yangi dialektal materiallarni berish va ularning tahlil qilishga kirishib ketilgani uchun metodik ishlarga e'tibor berilmagan.

2. O'zbek dialektologiyasi sohasida dialektologik nazariya va dialektologik amaliyotlarning o'zaro uzviy birligini ta'minlashni amalga oshirishni jiddiy o'ylab ko'rish vaqti keldi. Buning uchun esa dialektologik nazariya va dialektologik amaliyot jarayonlarini, shu sohada tadqiqotlar olib borishning metodikasi va metodologiyasini zamonaviy ilm-fanning talablari asosida kuchaytirib, dialektologiyaning amaliyoti bo'yicha ilmiy kuzatish olib boradigan tadqiqotchilarni ilmiy va amaliy hamda moddiy jihatlardan quvvatlash lozim bo'ladi. Ular to'plagan dialektal materiallarni tahlil va taqrizlar asosida qabul qiladigan "Dialektologik fond"ni shakllantirib, faoliyatini doimiy ravishda olib borish shart. Bunda quyidagi holatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) dialektal matnlarni yozishda qo'llanilgan transkripsiyaning ayni vaqtda ikki xil ko'rinishi bor: a) rus-krill alifbosi asosidagi transkripsiya; b) lotin alifbosi asosidagi transkripsiya. Endi uning eng optimal variantlarini hisobga olgan holda yangi transkripsion belgilarni dalillab, asoslab tuzib chiqish kerak. Ammo transkripsion belgilarning murakkablashtirilishi o'zini oqlamaydi. Chunki sheva materiallarini qiyinchilik bilan jamlab olinayotgan bir vaqtda to'siq sifatida murakkab transkripsiyani qo'llash boshlangan ishlarning tugatilmasligiga olib keladi. Ba'zi bir olimlar murakkablashgan transkripsiyani ham tavsiya etishmoqdaki, bu shevalarni o'rganish va ilmiy asoslarda tadqiq etish jarayonini sekinlashtiradi yoki boshlangan ishlarni yakunlanmasligiga sabab bo'ladi. Sheva materiallari yig'ib olingandan keyin maxsus ilmiy matnlarga kiritish vaqtida amaldagi ilmiy transkripsiyaga uqurish (transletiratsiyalash) mumkin;

2) ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish uchun ularning metodologik va metodikasini tadbiq etish uchun turli sheva va lahjalarga tegishli dialektal matnlarni tanlab olib, o‘quv dialektal xrestomatiyalarni tuzish;

3) ma‘ruzada o‘tilgan mavzularning mazmunini amaliy mashg‘ulotlarda amaliy jihatlarini yoritish metodologiyasi va metodikasini kuchaytirish;

4) ma‘ruzada o‘tilgan mavzularning mazmunini dialektologik amaliyotlarda to‘plangan dialektal matndagi misollar bilan asoslash; ma‘ruzada o‘tilgan mavzularning mazmunini amaliy mashg‘ulotlarda amaliy jihatlarini yoritish uchun amaliy mashg‘ulot dasturlarini yangilab, bu fanning amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashni amalga oshirish;

5) ma‘ruzada o‘tilgan mavzularning mazmunini seminar mashg‘ulotlarida amaliy jihatlarini yoritish yo‘llarini talqin etadigan o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlash;

6) amalda bajarilgan ishlarni ma‘lum ma‘noda jamlaydigan va talabalarni fikrlashga da‘vat etadigan oraliq nazorat ishlari va “*Bir sheva lug‘ati*” kabi o‘quv loyiha shaklidagi ilmiy ishlarni amalda boshlash vaqti keldi.

Bizningcha, shevashunoslik sohasining o‘qitish hamda shu sohada ilmiy tadqiqot olib borish metodikasi va metodologik asoslari haligacha mukammal ishlanmagan, to‘g‘rirog‘i, bu masalalarga e‘tibor berilmagan. E‘tibor berilganda, qariyb oltmish yildan beri bitta fan sifatida o‘qitilayotgan “O‘zbek dialektologiyasi” fani bir necha fanlarning shakllanishiga asos bo‘lardi... Biz erishilgan yutuqlarni va sohadagi kamchiliklarni sarhisob qilib, “*O‘zbek dialektologiyasiga kirish*”, “*Dialektal matn*”, “*Tarixiy va tavsifiy dialektologiya*”, “*O‘zbek dialektal leksikologiyasi*” nomli fanlarni o‘qitish tarafdorimiz. Albatta, bu fanlarni o‘qish va o‘zlashtirishda talabalarimiz yangi-yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishadi.

4.3. DIALEKTAL SO‘Z TURLARINI ANIQLASHDA DIALEKTAL MATNLAR TAHLILI METODIDAN FOYDALANISH

Dialektal so‘z bu shevalarda faol qo‘llanib, adabiy til sathida kam yoki umuman qo‘llanmaydigan leksik birliklardir. Bunday leksik

birliklar sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Shuning uchun ham ular qatnashgan matnlar dialektal matnlar hisoblanadi. Ular o‘zbek dialektolog olimlarining asarlarida maxsus o‘rganilmagan, tadqiqotlar olib borish jarayonida sof leksik dialektizm, frazeologik va leksik-fonetik o‘zgarishlarga uchragan dialektal so‘zlarni u yoki bu darajada qayd etib o‘tishgan. “Sheva leksikasini o‘rganish bir shevaning yoki o‘xshash shevalar guruhning leksikologiya tahlili bilan birlikda o‘sha shevaning umumiy xususiyatini yaratish (jamlash – *ta’kid bizniki*) imkoniyatini beradi”¹.

O‘zbek xalq shevalari boy. Faqat dialektal so‘zlarning dialektal matnlarga asoslanib o‘rganilishi ilm-fan talablariga, ya’ni dialektologiya metodologiyasi talablariga mos keladi. Shuning uchun shevalarning dialektal so‘zligini dialektal matnlarga asoslanib saqlab qolish lozim, deb bilamiz. Zero, Urxun-Enasoy yodgorliklari matn sifatida saqlanganligi uchun bugun ham ilmiy qiymatga ega ekanligini hisobga olsak, shevalarimizning dialektal manbalari hali ming-ming yillar o‘rganiladi.

Dialektal matnlarning tahlilida quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Bunday matnlarni qaysi transkripsiyada yozilganligiga va matnlardagi so‘zlarning to‘g‘ri transkripsiya qilinishiga e’tibor berib, ularning qaysi sheva va lahjaga oidligini ko‘rsatish.

2. Undagi fonetik hamda fonomorfologik o‘zgarishlarni ko‘zdan qochirmaslik.

3. Dialektal so‘z va uning turlarini bilib, matndagi so‘zlarni belgilab borish.

4. Dialektal matnning axborotchisi va yozib oluvchisiga e’tibor qaratish.

5. Unda dialektal so‘z hamda uning turlari deb belgilangan so‘zlarni alohida guruhlab yozib, dialektal matnlarni dialektal leksika talablari asosida tahlil qilib, ularda aniqlangan dialektal so‘z turlarining miqdori qancha ekanligiga e’tibor qaratib, ulardagi faol uchragan dialektal so‘z turlarini aniqlashtirish va ularga lug‘at maqolalar tayyorlash lozim.

Bundan ko‘rinib turibdiki, dialektal matn tahlilida fonetik, leksik, fonomorfologik va grammatik xususiyatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham bu tahlilni “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”

¹ Назаров К., Фуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет, 1993. –В.25.

fanidagi tahlildan farqlagan holda *dialektal matnlarning tahlili* deb nomlasak, o‘rinli. Darslarda bu tahlildan foydalangan holda uni dialektal matnlarning tahlili metodi deb atash maqsadga muvofiq. Bunda ham dialektal matnga e‘tibor qaratiladi, ham u asosida shakllangan metodga ham e‘tibor qaratiladi.

Shu o‘rinda quyidagi dialektal matn va uning mazmun-mohiyatiga murojaat qilsak:

Izoh: matndagi bir qancha so‘zlar oldingi dialektal matnda turli rangda berilgani uchun bu ikki matndagi dialektal so‘zlar qavs ichida qoraytirib, so‘ng ma‘nosi berilgan.

MENING YANGAM VA XOJAKATTAM

(Mening йәнгәм ва хәләкәттәм)

Mening yangam(йәнгәм - kelinoyi) ajoyib ayol. U har qanday ishni chin dildan bajaradi. Mana hozir ham u dalada. Boshida zaynovi (зәйнәвь - yashil), bika (быкә - pushti rang (och qizil) va qara (кәрә-qora rang) ranglar aralash kassingka qo‘lida grabl (грәбл - haskash(mehnat quroli)) olib ishlamoqda. Daladan bo‘sh vaqtlarida u tikuvchilik bilan shug‘ullanadi. U joynomoz (жәйнәмәз - joynomoz), lo‘la (лөлә- bolish), qariyalar uchun jelaklar (желәклә: -yubqa ust kiyim), quroq (курәк - turli xil matolar parchalaridan tikiladigan narsa) dasixonlar (дәсихән - dasturxon) tikadi. Butun oila a‘zolari undan xursand, ayniqsa, kattam (кәттәм - buvi). Shu xotinni kelin qilganlaridan ko‘ngillari to‘q(конь тоқ-хотиржам). Har doim yangamni(йәнгәм) maqtab: uvali-juvali bo‘l(увәль-жувәль бол - uyli joyli bo‘l) qo‘sha qaringlar (қошә кәрәлә:-umrlaringni oxirigacha birga bo‘linglar) kabi olqishlarni aytadilar.

Hammasidan ham zo‘ri yangam(йәнгәм) shirin –shirin ovqatlar pishiradi. Ular tayyorlagan qatig‘laosh(кәтәғләш- quyuq qatigga ugra solib pishiriladigan taom), ichiga boyimjon (бәйимжән - baqlajon sabzavot turi) va karchishka (кәрчишкә- kartoshka sabzavot turi) solib pishiriladigan kovob (кәвәб- taom turi), cho‘mich (чомич–oshxona buyumi) bilan kovlab turiladigan atala (әтәлә- unni yog‘da qovurib tayyorlanadigan suyuq taom), arvoypirda (әрвәйпәр–marosim turi). Bu marosimni ko‘pincha avto–ulovi borlar o‘tqizadi) pishiriladigan halvoytar (хәлвәйтәр), shirvirich (шәрвәрч - sirguruch). Sutga guruch solib tayyorlaniladigan taom), kodipichak (кәдәпәсчәк - qovoq solib pishiriladigan taom), g‘ilvindi (ғәлвәндә - somsaning bir turi),

yupqalarni (**йубкә** - somsaning bir turi. Ichiga qaymoq solib pishiriladi) yemabsiz bu dunyoga kelmabsiz. Biz bo'lalarimiz (**боләлә:** - xolavachchava amakivachcha) bilan yig'ilib tez-tez kattamniki (**кәттәм**) kelib turamiz. Yangamdan (**йәнгәм**) ko'p narsalarni o'rganishga harakat qilamiz. Zero, bir kun kelib biz ham bir oilaning bekasi bo'lamiz. O'sha kunlarga qadar o'zimizda kelinlik ko'nikmasini shakllantirib boramiz.

Xalqimizda "Qariganda ham tinch o'tirmaydi" degan gap ko'p ishlatiladi. Bu bejizga aytilmagan albatta. Xolakattam (**хәләкәттәм**- otaning xolasi) ham shundaylar sirasiga kiradi. Qarib, bukchayib qolgan bo'lsalar ham yosh juvonlar (**жувәнлә:** - turmushga chiqqan ayol) singari serharakatlar. Buning isbotini jonli (**жәнль-** har qanday uy jonzoti. Uy hayvoni) boqishni kanda_qilmasliklaridan (**кәндә қълмәслък** – to'xtatmaslik) ko'rishimiz mumkin. Ularning uyida juvana (**жувәнә-** ho'kiz), inak (**ьнәк-сигир**) бизов (**бъзәв-** бузоқ) , takalar (**тәкә-** echki) judayam ko'p. Dadam va pochchom (**пәччәм**) jonlilarga(: **жәнли**) juda qiziqishadi. Shuning uchun tez-tez ularnikiga borib turishadi. Hovlilari ham anchagina katta bo'lib, jonzotlarga yemish bo'lsin deb yung'ichqa (**йунғьчкә** - beda), jugori (**жугәрь** - makka j'xori) ekib qo'yilgan.

Qorin ochqoganda (**қәрьн эчқәгәндә-** qorin ochganda ma'nosida) nima ovqat qilamiz?- deb o'ylashning ham hojati yo'q, sut-chakki (**чәккь** - quyuq holdagi qatiq) mo'l. Borsak maza qilib yeb kelamiz. Shu bilan birgalikda uy ishlariga ham qarashib kelamiz. Buni ko'rgan xolakattam (**хәләкәттәм**) xursand bo'lib bizni alqaydilar: qadding terakday bo'lsin (**кәдднг терәкдәй болсьн-** beling g'amdan bukilmasin ma'nosida), uying bug'doyga to'lsin (**уйьнг буғдәйгә толсьн-** risq nasibang mo'l bo'lsin), suvday serob bo'l (**сүвдәй серәб бол**), nasibang ulug' bo'lsin (**нәсьбәнг улуг болсьн** - risq nasibang mo'l bo'lsin) kabi. Biz ham alqovlardan xursand bo'lib, ishimizga yanada shijoat qo'shamiz.

QARISI BOR UYNING PARISI BOR

"Qarisi bor uyning parisi bor"-, degan naql qachon, kim birinchi bo'lib aytganini hech kim bilmaydi. Ammo hamma bu naqadar to'g'ri fikr ekanligini anlaydi. Nuroniy bobolarimiz, dona **kattalarimiz** (**кәттәм**) barcha **hovlidagi** (**хәвль** - uy) turli mavzudagi turli nasihatlar bora-bora qiziqarli **gurunglarga** (**гурунг** - suhbat) aylanadi. Oiladagi

mehr-oqibat va hamjihatlikni yanada mustahkamlashda, kattalarga hurmat, kichiklarda izzat fazilatlarini o‘rganishda **qarilarning** (кәрь-qariya. Yoshi ulug‘ kishi) o‘rni katta.

Bobo va **kattalarimiz** (кәттәм) uyimizning fayzi hisoblanadi. Bobolarimizning ustlariga **jelak** (желәк) kiyib, kattalarimizning **zaynovi** (зәйнәвь), **bika** (бькә), **qara**(кәрә) **kassinka** (кәсьнкә - ro‘mol) yopinib, **tutaki** (тутәкь – ochik ranglarga nisbatan) **sinovoncha** (сьнәвәнчә – - paxta solib qavilgan kamzul) kiyib, chakkalariga **nazvoylar** (нәзвәй – rayhon(o‘simlik)) taqib yurishlari bizga o‘zgacha ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otadi. Ayniqsa, ularning: “Uying bug‘doyga to‘lsin”(уйьнг буғдәйгә толсьн), “Umriginangdan baraka top”(Умрьгьнәндә: бәрәкә тәп–hayotda qiyinchilik ko‘rma ma’nosida), “Qadding terakday bo‘sin”(қәдь: терәдә: болсьн–), “Uvali-juvali bo‘l”(Увәль-жувәль бол – baxtli bo‘l ma’nosida) kabi olqishlarini eshitganimizda qalbimizda ularga bo‘lgan hurmat yana ham ortadi. **Qarilarimizning** (кәрь) yana bir o‘ziga xos xususiyati har bir **gurunglarida** (гурун) maqollardan unumli foydalanishlaridir. Bu esa aytilgan fikrning ta’sir kuchini oshiradi. Masalan: “Ayg‘ir qanday bo‘lsa, ot shunday”(әйғьр қәндә: болсә, от шундә:) “Bog‘ing bo‘lsa, qo‘ra qil, O‘g‘ling bo‘lsa, mulla qil”(Бәғьнг болсә, қорә қьл, оғльнг болсә, муллә қьл), “Igna qayoqqa yursa, Ip ham shu yoqqa yurar”(ьгнә қәйәккә йурсә, ьп хәм шу йәккә йурәр)” kabi. Bir so‘z bilan aytganda bobo va kattalarimiz uyimizning farishtalari. Ularni e’zozlaylik.

Bu matnlarni tayyorlash va ularni “O‘zbek dialektologiyasi”dan dars o‘tganda tushuntirish uchun umumiy o‘qitish metodlari bilan birga dars o‘tish va sheva bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borish jarayonlarida shakllangan **dialektal matnlar tahlili metodining** tarkibiy qismlari bo‘lgan quyidagi xususiy metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq:

1. **Dialektal matn(lar)ni yozish metodidan** dialektal matnlar sheva vakillarining o‘zaro muloqot vaqtidagi nutqlarini yozib olishda foydalaniladi.

2. **U(lar)ni transkripsiya qilish metodidan** esa dialektal matnlarni ilmiy yozuv bo‘lgan transkripsiyada qayd etishda qo‘llaniladi.

3. **Dialektal matnlarni leksik tahlil talablari asosida dialektal so‘z turlarini aniqlash metodidan** shu matnlarni tahlil etish jarayonida leksik tahlil talablarini amalga oshirish vaqtida qo‘llanadi.

4. Dialektal soʻz turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etish orqali oʻqitish metodidan “Oʻzbek dialektologiyasi” fanidan maʼruza, amaliy va seminar mashgʻulotlarida vaqti va oʻrniga qarab foydalaniladi.

5. Bir sheva lugʻatini tayyorlash orqali fanni oʻqitish metodi. Bunda bir shevaga xos leksik, fonetik, grammatik xususiyatlar oʻrganiladi. Ushbu metodning tavsiya qilinayotganiga sabab shuki, juda koʻpchilik yoshi ulugʻ insonlar oʻz shevalarining xususiyatlarining qariyb 20 foizini yaxshi bilishadi. Mana shu holatning oʻzi ham bir sheva boʻyicha katta hajmli dialektal materiallarni toʻplashga imkon beradi.

Ular bir jarayonning umumlashma va xususiy koʻrinishlari sifatida dialektal matnlar tahlili metodiga birlashishlari tabiiy holdir. Demak, koʻrsatilgan kichik metodlar va ularning majmui boʻlgan dialektal matnlar tahlili metodi kabi metodlaridan maʼruza, amaliy va seminar mashgʻulotlarida vaqti va oʻrniga qarab foydalanish maqsadga muvofiq¹.

Biz dialektal matnlar tahlili metodi hamda uning mazmun-mohiyatidagi kichik toʻrtta metoddan unumli foydalanib, oʻzbek va rus dialektolog olimlarining ilmiy ishlari bilan tanishib, shuningdek, bir qancha nazariy va amaliy xarakterdagi ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy holda tanishib, ularni ham tanqidiy, ham qiyosiy oʻrganib, shevalarda dialektal soʻz turilarning quyidagi turlari borligini aniqladik. Bular dialektolog olimlarning asarlarida u yoki bu darajada qayd etilganligini manbalar asosida kuzatib, quyidagi turlari borligini taʼkidlab oʻtmoqchimiz²:

Ular bir jarayonning umumlashma va xususiy koʻrinishlari sifatida dialektal matnlar tahlili metodiga birlashishlari tabiiy holdir. Demak, koʻrsatilgan kichik metodlar va ularning majmui boʻlgan dialektal

¹ Bu metodlar oldinlari ilmiy tadqiqotlarda nomlanmasdan foydalanilgan boʻlishi mumkin. Ularni jamlab, nom berish bizning chekimizga tushdi. Shuning uchun ularni individual shaklda nomladik. Bu metod toʻgʻrisida qisqa toʻxtaldik, alohida maqolalarimizda ularni maxsus yoritamiz.

² Birinchi tur dialektal soʻzlardan boshqalari oʻzbek dialektal leksikografiyaga birinchi marta olib kirilishi moʻljallanmoqda. Quyidagilarga qarang: Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. Абдуллаев Ф.А.Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39. А. Ишаев. Ўзбек шеваларининг dialektal лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –В. 4-12. Омонтуриев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё dialektal-этнографик мақолларининг изоҳли луғати (Унигилаётган мақол, матал ва айтимлар). 2-қисм. -Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2019. -96 bet. Nafasovning Т. Qashqadaryo oʻzbek shevalari lugʻati. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2010. Toʻychiboyev B., Yoʻldoshyev Q. Zomin soʻzligi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2012.

matnlar tahlili metodi kabi metodlaridan ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida vaqti va o'rniga qarab foydalanish maqsadga muvofiq¹.

Biz dialektal matnlar tahlili metodi hamda uning mazmun-mohiyatini ifodalovchi kichik to'rtta metoddan unumli foydalanib, o'zbek va rus dialektolog olimlarining ilmiy ishlari bilan tanishib, shuningdek, bir qancha nazariy va amaliy xarakterdagi ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy holda tanishib, ularni ham tanqidiy, ham qiyosiy o'rganib, shevalarda dialektal so'z turilarning quyidagi turlari borligini aniqladik. Bular dialektolog olimlarning asarlarida u yoki bu darajada qayd etilganligini manbalar asosida kuzatib, quyidagi turlari borligini ta'kidlab o'tmoqchimiz²:

1) sof leksik dialektal so'zlar (**enə, surxək, nəxəs, murt, gəzət** – ikki o'rgajli tuya);

2) leksik-semantik dialektal so'zlar (**əkə** so'zi ayrim shevalarda: "ota" va hatto, "pochcha" ma'nolarida qo'llanadi);

3) leksik-fonetik dialektal so'zlar (Masalan, so'z boshida qo'llanadigan adabiy tildagi y undoshi o'rniga qipchoq lahjasiga oid dj-lashgan sheva vakillari, ko'pincha, jd undoshini talaffuz etadilar: *djaman-yomon, djoq-yo'q*; o'sha shevalarda ayrim unlilar so'z boshida diftonglashadi; *tari(q), sari(q)* kabi so'zlar oxiridagi q undoshi talaffuz etilmaydi. ЁҒ сўзи фонетик ўзгаришларга учраб *jdav* ҳолатига келган. F. A. Abdullayev "...fonetik o'zgalik ma'nodagi o'zgalik bilan bog'liq bo'lsa, bunday so'zlar lug'atga kiritilishi kerak"³.);

4) morfologik-fonetik dialektal so'zlar (**əpəng'ld** - opanglar; **ətəluv'** // **ətəluv'** - otalari; **həmmədl'ys'** - hammalari singari morfologik dialektal so'zlar bor.);

¹ Bu metodlar oldinlari ilmiy tadqiqotlarda nomlanmasdan foydalanilgan bo'lishi mumkin. Ularni jamlab, nom berish bizning chekimizga tushdi. Shuning uchun ularni individual shaklda nomladik. Bu metod to'g'risida qisqa to'xtaldik, alohida maqolalarimizda ularni maxsus yoritamiz.

² Birinchi tur dialektal so'zlardan boshqalari o'zbek dialektal leksikografiyaga birinchi marta olib kirilishi mo'ljallanmoqda. Quyidagilarga qarang: Abdullaev F. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. Abdullaev Ф.А.Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39. А. Ишаев. Ўзбек шеваларининг диалектал лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –В. 4-12. Омонуриев А., Рахмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луғати (Унитилаётган мақол, матал ва айтимлар). 2-қисм. -Тошкент: Ilm ziyo zakovat, 2019. -96 bet. Nafasovning T. Qashqadaryo o'zbek shevalari lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 2010. To'ychiboyev B., Yo'ldoshyev Q. Zomin so'zligi. –Toshkent: O'qituvchi, 2012.

³ Abdullaev Ф.А.Дialektal луғат тузиш принциплари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 2-сон. –В. 39.

5) morfologik-leksik dialektal soʻzlar (**moldor** – mollar; **кәрчишкә** - kartoshka sabzavot turi);

6) leksik-derivatsion dialektal soʻzlar (*bergi* < *ber* + *-gi* – qarz; *chapqy* < *chap* + *-qy* – roygaga qatnashadigan ot; **жәнль** - har qanday uy jonzoti; *yur* + *-mel* (QQASSR-oʻgʻ.) – *yurmel* - tez yuradigan, yuragʻon; *quyash*+ + *-lama* – *quyashlama* - oftobroʻya; *qavыр* + *-ышма* – *qavырышма* – ziyofat);

7) frazeologik-dialektal iboralardan iborat dialektal soʻzlar (**оуогʻini qoliga olli** - shoshdi; **увәль-жувәль бол** – baxtli bol; **сүдәй серәб бол** - bola-chaqali boʻl);

8) atoqli ot (toponim) hamda joy nomlari shaklidagi dialektal soʻzlar (**Borigul, Itolmas, Teshiktosh, olaqargʻa, Sinabogʻ, Akulova**);

9) etnografik dialektal soʻzlar (**нән синни, javchi, pәchchaburән**);

10) baʼzi bir umumistemol soʻzlarining *dialektal maʼnoga* ega boʻlishidan shakllangan dialektizmlar (**dars** – 1) *nashgʻ ulot*; 2) *chiqindi* va boshqalar).

Bular shevalarning benihoya katta lugʻaviy boyligini koʻrsatuvchi asos hamda dalillar majmuidir. Chunki sheva vakillari bormi, demak, nutqda bir qancha soʻzlar konnotativ maʼnoda, yaʼni dialektal maʼnoda qoʻllanadiki, bu holatga ham haligacha jiddiy eʼtibor berilgani yoʻq. 1971-yilda nashr etilgan “Oʻzbek xalq shevalari lugʻati”dagi soʻzlardan koʻrinib turibdiki, hozirgacha sof leksik dialektal soʻzlar va qisman fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlar oʻrganilgan, xolos. Qolgan dialektal soʻzlar esa xalq shevalarida turganicha qolmoqda...

Yuqoridagilarni eʼtiborga olgan holda quyidagi umumlashmalarga kelindi: Dialektal soʻzlarni oʻrganish va tadqiq etish oʻzbek tilining leksik boyligini saqlashga imkon beradi. Dialektal soʻz maqomi va dialektal matnni yozib olish metodi alohida fanga oid xususiy metodlar ekanligi uning “Oʻzbek dialektologiyasi” fan doirasida faol qoʻllanishini anglatadi.

Dialektal soʻz maqomi va uning turlarini bilmasdan turib, dialektal matnlarni yozib olishga kirishmaslik kerak. Chunki soʻzlovchi dialektal soʻzlarni qoʻllab gapiradigan yoki ularni qoʻllamasdan gapiradigan holatda boʻladi;

Soʻzlovchi biror dialektal soʻzni qoʻllashni boshladimi, keyingi gaplarida ham shunday soʻzlarni qoʻllashi aniq. Shuning uchun ularning gaplarini yozib olishga kirishish oʻrinlidir.

Dialektologiya metodologiyasiga tayanilgan holda dialectal matnlarni tahlili metodi o‘z ichida quyidagi kichik metodlarni jamlagan mazmun-mohiyat jihatidan katta metod sanaladi: 1) dialektal matn(lar)ni yozish metodi; 2) u(lar)ni transkripsiya qilish metodi; 3) dialektal matnlarni dialektal leksik tahlil talablari asosida dialektal so‘z turlarini aniqlash metodi; 4) dialektal so‘z turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etish orqali o‘qitish metodi. “Xullas, lahjalar va shevalar tilimizdagi bitmas-tuganmas boylkdir. Ularni mumkin qadar tezroq va to‘liqroq yozib olishga harakat qilish asosiy burchimizdir”¹.

4.4. ONA TILIMIZNING OLIY MAQOMI

Dunyoda shunday tillar bor: tarixi bor-yo‘qligini bilmaysan. Jahonda shunday tillar bor: juda kam odam gaplashadi. Bu zaminda shunday tillar bor: so‘zlari so‘zlashuvda qo‘shimcha qanday ma’nolari bor-yo‘qligini bilmaysan.

Ammo, lekin dunyoda shunday til borki, so‘zlari nutqda qanday ma’no nozikliklarda qo‘llana olishiyu odatdagi ma’noyu mazmuni ham, uning tarixiyu o‘tmishi ham, bugunu kelajagi ham ahli jahon e’tirof etgan allomayu olimlar tomonidan batafsil o‘rganilgan. Bu tilda ma’no quymaligiyo ma’no nozikligi bilan ajralib turadigan maqollaru matallar, insonlarni komilu kamolotga yo‘llaydigan allayyu yallalar, ham Mahmud Koshg‘ariyning “*Devonu lug‘at-it turk*”i, ham Yusuf Xos Hojibning “*Qutadg‘u bilig*”i, ham Ahmad Yassaviyning “*Hikmatnoma*”si kabi nodiru noyob asarlar yaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu tilning tarixiyu taqdiri ming-ming yilliklarga borib taqaladi. U XX asrning 80-yillarigacha qancha e’tibordan chetlatilsa-da, qancha ezg‘ilansa-da, qancha haqoratlansa-da, xonliklaru diniy mafkura, rus iste’lochilari va sho‘ro mafkurasini tomonidan ruhiy kishanlar bilan zanjirlansa-da, u kelajakka shunchalik ishonib, shunchalik intilib, shunchalik tirishib, yashab kela oldi. Bunga Mashrabu Uvaysiy, Nodira begimu Avaz O‘tarlarning qaynoqu dardli, ham otashin ijodiyu faoliyatlari namuna bo‘ladi. XX asrning 30-40-yillarida turli internatsional so‘zlarni ona tilimizga kishi bilmas zug‘umu zaharlar bilan kiritishib, uni rus tiliga moslashtirishdi. Natijada 50-, 60- va 70-yillarda mazkur tilda so‘zlashuvchilarni rus tilida gapirishu ish

¹ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –В.294.

yuritishda e'lon qilinmagan qonunlar asosida qo'rqitib, dovdiratib turishgandi.

Va yana mana shu jarayon natijasida ona tilimizning o'ynoqiligiyo ohangdorligi, silsilaligiyo salobatligi ramzi bo'lgan unlilar uyg'unligi o'zbek adabiy tilidan chetlashtirildi.

Va faqatgina Ona tilimizning o'ynoqiligiyo ohangdorligi, silsilaligiyo salobatligi ramzi bo'lgan unlilar uyg'unligi shevalarimizda qoldiki, adabiy tilimiz bilan shevalarimiz o'rtasida katta, lekin tabiiy bo'lmagan to'siq qo'yildi.

Va yana rasmiy hujjatlarning ham berilishi o'zbekcha bo'lsa-da, matnidagi so'zlarning asosiy qismi o'zlashgan so'zlardan iborat bo'lib qolgandi. Ya'ni rusu o'zbek so'zlarini palapartish qo'shilishidan paydo bo'lgan aralash til yuzaga kelgandi.

Va yana 70-yillarda o'zbek tilida yozilgan hujjatlarni ba'zi bir amaldorlar o'zbek bo'lishsa-da, yirtib-yirtib qaytarishgan. Biroq o'zbek tili o'zbek xalqi kabi bag'ri keng tilligicha qolavergani ko'rib, bilib, his qilib turganimizdek, yuqorida aytilganlar ham tarixiy haqiqat.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tilimizga Davlat tili maqomi Respublikamiz Oliy Kengashi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda birinchi prezidentimiz I. A. Karimovning odilonayu oqilona tarzda chiqarilgan oliy maqomli farmoni bilan berildi. Mana oliy maqom xalqimizning tilidanu dil-dilidan yangragani uchun berildiki, bu bilan birga yangi zamoni, ya'ni azaliy orzu bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini o'zi bilan boshlab, qarshilab keldi, deyish o'rinliroq.

Va yana tilimizga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomini bergan qonun yozuv va imlodagi chalkashliklarning oldini olish uchun 1993-yil 2-sentabrdagi yangi o'zbek yozuvi to'g'risida qonunning qabul qilinishiga asos bo'ldi.

Va yana tilimizni buzishganlar, noo'rin cho'zishganlar qani endi qonuniy jazolanishsa edi. Endigi taraqqiyotimizda bunga ham yo'lu usul topsak, ajabmas.

Va yana XX asrning 70-yillaridan buyon o'rganilmay qolib ketayotgan adabiy tilimiz asosi – duru javphir, olmosu oltin bo'lgan shevalarimizning so'zligiyo o'zligini o'rganib, avlodu ajdodlarimizga qoldirish uchun aqlliyo adolatli rahbarlarimizning imkoniyatiyo salohiyati oshib, zora rahmi kelsayu, qani endi, yangi-yangi grant

loyihalarni amalga oshirishga rahnomalik qilishsa – ona tilimizning oliy maqomi yana ham oliy darajali pog‘onalarga ko‘tarilgan bo‘lardi.

Va yana tilimizga Davlat tili maqomini bergan qonun asosida yangi o‘zbek yozuvining talab darajasidagi imlo qoidalari qabul qilindi va yana til bayrami – O‘zbek tili bayrami keng miqyosda nishonlanadigan bo‘ldi. Bular barchasi tilimizning qimmatiyu qudratini, imkoniyatyu salohiyatini yana ham yuksak darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Ona tilimiz ayni vaqtda oliy minbarlarda erkin va baralla yangrayotganidan cheksiz faxrlanamiz.

Va yana Aljabrni yaratgan Al Xorazmiy, Kolumbdan olti yuz yil oldin Amerikani kashf etgan Abu Rayxon Beruniy, osmon yulduzlarining sirini kashf etib, olamga taratgan Mirzo Ulug‘bek kabi allomayu olimlar xuddi shu tilda so‘zlashib, ilmda bo‘y-bo‘ylashgan.

Va yana bu til shoirlar shoiri, avliyolar avliyosi bo‘lmish Alisher Navoiy asarlari tilidir.

Va yana Alisher Navoiy asarlarining jahon minbarlarida yangrashi ham ona tilimizning oliy maqomidan darak beradigan mujdadir. Shunda beixtiyor: *“Navoiyga ishqu ixlosim bor, Ki iymonu ilmu ilohim bor!”* deb kuylab ham, suylab ham yuborasan kishi...

Va yana ushbu til o‘zbekona so‘zlashish odobiyu oromini mukammalu mo‘tabar o‘zbek prozasi namunalariga aylantira olgan Abdulla Qodiriy tili hisoblanadi.

Va yana mazkur til XX asr she‘riyati zaminini zirillatgan Abdulla Oripov va Erkin Vohidovlarning mo‘tabaru mukammal asarlari yangrayotgan til, ya‘ni kamoloti ulug‘, salobati bulug‘, har bir so‘zi qutlug‘ bo‘lgan o‘zbek tilidir.

Va yana Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi alloma ijodkorlarning asarlari turli tillarga tarjima qilinayotgandagi shukuhu shukuronalik ona tilimizning oliy maqomidan darak beradi.

Va yana tilimizdagi onalik mehriyu sehrini she‘ru ash‘orlarida Uvaysiyyu Nodira, Nozimaxonimu Zulfiyaxonimlar, otalikning mehru muhabbatini Yusuf Xos Hojibu G‘afur G‘ulom ming bir yusinda ifodalay olishgani haqqi rost.

Va yana tilimizni ma‘naviyatu ma‘rifatning yuksak cho‘qqilariga chiqarish kerakligini dil-dilimizdan his qilib turibmiz. Buning uchun radio va televideniya-dagi eshittirish hamda ko‘rsatuvlarda, nashr etilayotgan kitoblarda, ko‘chalardagi ko‘rgazmali yozuvlarda, gazeta va

jurnallarda xato yozmaslik yo‘llarini o‘rganish qanchalik kerak bo‘lsa, shevalarimizdagi bir qancha so‘zlarni adabiy tilimizda yo‘q bo‘lgan yangi zaruru mo‘tabar so‘zlar silsilasi sifatida kiritish maqsadga muvofiq. Zero, ona tilimizning oliy maqomi bu – madaniyat ma’rifatda ham, siyosatda ham, iqtisodda ham, ilmu fanda ham, ta’limu tarbiyada ham tilimizning tilim-tilim so‘zlari sehrini amalda his qilish demakdir.

X U L O S A

O‘zbek xalq shevalari dialektologiya metodologiyasiga tayanilgan holda o‘rganilganda qadimiy hamda mavjudlik strategiyasi bilan o‘zbek adabiy tilining asosi va taraqqiy etish manbalaridir. Ularining tadqiqi XI asrda yigirmadan ortiq turkiy til materiallari asosida “Devonu lug‘at-it turk” nomli dialektal lug‘atni tuzib, turkiy tillarning so‘zlarini arabcha tarjima qilib, qiyosiy tilshunoslikka ham asos solgan hamda to‘plagan sheva materiallari asosida mukammal dialektal leksikografik ishni boshlab bergan Mahmud Koshg‘ariy nomi bilan bog‘liq.

XX asrning 20-yillaridan bir qancha rus va o‘zbek dialektologlarining faoliyatlari bilan ilm-fan taraqqiyotining zamonaviy talablari darajasida o‘zbek xalq shevalarining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o‘rganish boshlangan.

Dialektologiya metodologiyasi, aniqrog‘i, dialektologiya falsafasi bu – yillar davomida shug‘ullanish asosida yuzaga kelgan shaxsiy tajriba, fikr-o‘y va malaka vositasida shakllangan ishonch, e‘tiqod bilan o‘zbek xalq shevalarining asosiy qonuniyatlarini teran anglashga intilib, ularni ilmiy nazariy hamda ilmiy amaliy jihatlardan talqin, tahlil va tadqiq etish demakdir.

XX asrda o‘zbek xalq sheva va lahjalari bo‘yicha amalga oshirilgan dialektologik tadqiqotlarni professor Y. D. Polivanov boshlab bergan. Uning ilmiy tadqiqotlarida keyingi ilmiy ishlar uchun ilmiy tadqiqot strategiyasi bo‘lib qolgan an’anaviy tadqiqot olib borish yo‘li nazariy va amaliy jihatlardan asoslab berilgan.

Ayni vaqtda ham o‘zbek xalq shevalari xaligacha leksik, leksik-semantik va leksikografik jihatlardan to‘liq o‘rganilmagan. Chunki sohada dialektal leksika va uning turlari masalasi kam tadqiq etilgan. Albatta, XX asrdagi o‘zbek dialektologiyasi sohasiga xos yutuq va kamchiliklari ham bor. Kam bo‘lsa ham ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi sohaning yutug‘i. Kamchiliklari esa o‘zbek shevalarini tasniflash jihatdan ham, dialektal leksikani yig‘ish va leksikografik tadqiq qilish jihatdan ham yaxshi o‘rganilmaganligi; dialektal so‘z maqomi, dialektal so‘z va uning turlari nuqtai nazardan ham talab darajasida tadqiq etilmaganligi; XX asrda nashr etilgan dialektal lug‘atlarda dialektal leksikografik tadqiqning me‘yor va talablari majmui to‘liq bajarilmaganligi va boshqalar.

Adabiy til me'vori va talablari hali kun tartibiga chiqmagan bir paytda, ya'ni XI-XIX asrlarda turkiy tilda yaratilgan lug'atlarni ma'lum bir ma'noda, tanqidiy tahlil etilganida ham, albatta, dialektal lug'at deb atash o'rinli. Chunki yaratilgan har bir lug'atda mulliflar va lug'at yaratilgan hudud shevasining xususiyatlari u yoki bu darajada bilinib turadi. Ushbu umumlashma fikrni hazm qilish uchun dialektologiyaning tavsifiy va tarixiy dialektologiya nomli qismlarga bo'linishini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Bu sohaning taraqqiyoti bugungacha ham davrlashtirilmaganligi uning tarixiy taraqqiyotini mavjud nazariy va amaliy manbalarni qiyosiy o'rgangan holda davrlashtirishga harakat qilinishi sohaning rivojlanish tarixi borligini tasdiqlaydi.

Amalga oshirilgan shevalar tasnifi dialektologiya metodologiyasiga tayanib, beg'araz tanqid qilinganda ham qisman morfologiya, asosan fonetika matetirallari bilan dalillangani sababli, (achchiq tanqidiy tahlil (haqiqat) bo'lsa hanki, aytish lozim,) fonetik tasnif bo'lib qolgan. Bu esa XXI asrdan turib nazariy va amaliy o'rganish bilan shevalarni mukammal tasnif qilish zaririyatini anglatib turibdi.

Rus va boshqa tillarning dialektolog olimlarining dialektal tadqiqotlari bilan XX asrning 80-yillarida o'zbek shevalarini lingvistik geografiya yo'nalishida tadqiq etish boshlangan. XX asrning 90-yillarida o'zbek dialektologiyasi sohasida yangi innovatsion ilmiy tadqiqot yo'nalishi bo'lgan shevalarni areal lingvistik tadqiq yo'nalishi shakllangan. Mazkur ilmiy yo'nalishga professor Aziz Jo'rayevning ilmiy ishlari, xususan, monografiyasidagi ilmiy g'oya asos bo'lgan.

Har bir sohaning ilmiy maktablari bo'lgani kabi o'zbek dialektologiyasi sohasida ham ilmiy maktablar bo'lgan va bor. Oldinlari ilmiy maktab deganda uning asoschisi nomi aytilardi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda mamlakatimizdagi diniy idoralarning rahbarlari bilan uchrashganda ham asoschisi bor, ham asoschisi yo'q, ammo shunday ilmiy maktablarning bo'lishiga ijtimoiy va ilmiy talab-ehtiyojning borligiga asoslanib, ularni ikkiga bo'lib, farqlagan edi. Mana shu holatlar bu sohadagi ilmiy maktablarning belgilab o'tilganligi "O'bek dialektologiyasi"da yangi tadqiqot yo'nalishi ochilganligini bildiradi.

Ilm-fan hech qachon o'zicha rivojlanmaydi, balki ma'lum davrlarga xos ilmiy nazariy yo'nalish, ilmiy nazariy konsepsiya va

ilmiy maktablar faoliyati bilan ular rivojlangan. Ushbu sohada ham xuddi mana shu nuqtai nazarlardan yondoshilgani uchun ularga to‘xtalinib, birma-bir asoslashga harakat qilindi.

Dialektal so‘zlar sof leksik dialektal birliklardan iborat emasligi, balki shevalarda qo‘llanayotgan nomlar, xususan, kishi ismi va toponimlar ham dialektal so‘zlar majmui jumlasiga kirishi misol hamda nazariy manbalar bilan dalillandi.

Dialektologiya tavsifiy hamda tarixiy ko‘rinishlarda bo‘lishi ilmiy manbalarda qayd etilganligini hisobga olib, tarixiy dialektologiya va tarixiy dialektal so‘zlarning ushbu sohada va lisoniy merosdagi ilmiy ahamiyati katta ekanligiga e‘tibor qaratildi. Shevalarning dialektal birliklari xalq vakillari tomonidan qadimdan e‘zozlanib qo‘llanayotgani uchun Urxun-Yenesiy daryolari bo‘yidan topilgan tosh bitiklarga qiyoslangan holda “oltin bitiklar” deb atalishi ta‘limiy va tarbiyaviy jihatlardan ham o‘rinli.

O‘zbek dialektologiyasi fani XX asrning 50-yillaridan oliy ta‘lim tizimida o‘qitila boshlangan bo‘lsa-da, shu fanning o‘qitish metodologiyasi va metodikasi haqida kam tadqiqotlar amalga oshirilganligiga diqqat qaratish vaqti keldi.

“O‘zbek dialektologiyasi”dan dars o‘tganda mavzuni tushuntirish uchun umumiy o‘qitish metodlari bilan birga dars o‘tish va sheva bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borishda shakllangan dialektal matnlar tahlili metodidan va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan quyidagi xususiy metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq: 1) *Dialektal matn(lar)ni yozish metodi* (dan dialektal matnlar sheva vakillarining o‘zaro muloqot vaqtidagi nutqlarini yozib olishda foydalaniladi); 2) *u(lar)ni transkripsiya qilish metodi* (dan esa dialektal matnlarni ilmiy yozuv bo‘lgan transkripsiyada qayd etishda qo‘llanadi); 3) *dialektal so‘z turlarini dialektal matnlar asosida tahlil etish orqali o‘qitish metodi* (dan “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan bo‘ladigan mashg‘ulotlarda vaqti va o‘rniga qarab foydalaniladi); 4) *dialektal matnlarni leksik tahlil talablari asosida dialektal so‘z turlarini aniqlash metodi* (dan shu matnlarni tahlil etish jarayonida leksik tahlil talablarini amalga oshirishda qo‘llanadi); 5) fanni o‘qitishda *bir sheva lug‘atini* tayyorlash metodi (da bir shevaga xos leksik, fonetik, grammatik xususiyatlar o‘rganiladi. Ushbu metodning tavsiya qilinayotganiga sabab juda ko‘pchilik yoshi ulug‘lar o‘z shevalarining xususiyatlarining qariyb 20-

25 foizini yaxshi bilishadi. Mana shu holatning o‘zi ham bir sheva bo‘yicha katta hajmli dialektal materiallarni to‘plashga imkon beradi).

Hozirgi kunda taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, juda kamaytirib aytilganda ham shevalarda, sheva vakillari nutqida ikki-ikki yarim million dialektal so‘zlar yig‘ilmasdan, ilmiy-nazariy asoslarda o‘rganilmasdan yotibdi. Bu – eng kami yuz jilddan ortiq bo‘lgan dialektal lug‘at deganidir . Bu – Urxun-Enasoydagi tosh bitiklar darajasidan-да yuz baravar ortiq bo‘lgan oltin bitiklar demakdir. Bu – ona tilimizning sofligini saqlab qoladigan, ya’ni o‘zga tillarning so‘zlari tilimizga singib qolishining oldini oladigan tabiiy imkoniyatdir. Ammo ularni ishonchli dialektal matnlar asosida yig‘ib olish va ilmiy tadqiq etish asosida lug‘at maqolalar yaratib, ulardan dialektal lug‘atlar tuzish uchun dialektologlarni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash hamda moddiy imkoniyatlar lozim bo‘ladi. Ushbu holat bugungi kun uchun dolzarbligi bilan muhim bo‘lgan innovatsion jarayonlarning bir bo‘lagidir. Shu sababli innovatsiyalar bilan shug‘ullanadigan tashkilotlardan shevalarning leksikasini yig‘ish va ulardan dialektal lug‘atlar tuzish uchun moddiy hamda ma’naviy qo‘llab-quvvatlashni kutib qolamiz. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, soha bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar va ularning yechimiga tanqidiy munosabat xato emas, balki bu sohaga oid dolzarb masalalarga munosabat bildira olmaslik xatodir.

O‘zbek adabiy tili va o‘zbek milliy tili shevalardan oziqlanadi – boyiydi. Bu esa shevalarga ham, ularning leksikasining ilmiy tadqiq etilishiga ham dialektologiya metodologiyasi va beg‘araz hamda asosli tanqid nuqtai nazardan jiddiy e’tibor va har nomonlama ko‘mak berish lozimligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati¹

Абдиев М. Самарқанд вилояти ўзбек шеваларининг ўрганилиш тарихи ва долзарб масалалари // Истиклол даври ўзбек диалектологиясининг долзарб муаммолари. –Самарқанд, 2017. -Б. 55-59.

Абдуллаев Ф. А. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир // ЎзФА тил ва адабиёт институтининг асарлари. -Тошкент, 1949.7-8-бетлар.

Абдуллаев Ф. А. Ўзбек тилининг қипчоқ шеваси (Наманган област Янгиқўрғон район материаллари асосида). АКД. -Тошкент, 1955.

Абдуллаев Ф. А. Ўзбек тилининг қипчоқ шеваси // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. -Тошкент, 1957. II қисм. 323-344-бетлар.

Абдуллаев Ф. Кипчакский говор узбекского языка. АКД. -Ташкент, 1957. с.18.

Абдуллаев Ф. А. Чўзиқ унлилар табиати тўғрисидаги // ЎТАМ. 3. 1959.

Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961.

Абдуллаев Ф. А. Фонетика Хорезмских говоров узбекского языка. АДД. -Ташкент, 1961. с.58.

